

QODIROVA FERUZAXON USMANOVNA
PULATOVA DILFUZA AZAMKULOVNA

INKLUZIV TA'LIM:

nazariya va amaliyot



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA

INKLYUZIV TA'LIM:
NAZARIYA VA AMALIYOT

Pedagogika universiteti hamda institutlarining bareha
yo'nalishida ta'lif olayotgan talabalar, inkluyuziv ta'lif
sharoitida faoliyat yuritayorgan o'qituvchilar hamda ota-onalar
uchun darslik

УДК : 376; 159.9
КБК: 74.26
I - 52

Taqrizchilar:

M. Jumayev – Nizomiy nomidagi TDPU professori
S.Achilova – ChDPU - Maxsus pedagogika kafedrasi,
PhD,dots, v/b

Usbu darslikda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitishning mohiyati, inklyuziv ta'limi tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda pedagogik-psixologik aspektlari yoritib berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitidaeshtishida, ko'rishida, aqiy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolanda, autistik sohasida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida qo 'llash mumkin bo'lgan davr talabiga mos pedagogik texnologiyalar keltirilgan.

Darslikdan talabalar, o'qituvchilar, maxsus pedagog-tutorlar, tarbiyachilar, alohida ehtiyoja ega bo'lgan bolalarning ota-onalari korreksion va rivojlantrish ishlarida foydalanishlari mumkin.

«*Odama qanday tashxis ekanligi muhim emas. Unga hurmat bilan munosabatta bo'tish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim».*

Mariya Sibulskaya

ИСБН 978-9943-9166-0-9

KIRISH

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalananishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqa. BMT ningta 'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlar xiirma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlarialohida ta'lim extiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limi ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'larning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga jorty etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlar va shaxsiy manfaatlardan kelib chiqqan holda fun, ta'lim va ishab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishab chiqilgan. “Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limi tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika buzzini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatita'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayongamosyuqormalakalikadrar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi’. Boshlang'ich ta'linda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariiga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda taskilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirishyanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqi sinqlash va mahalla tashkilotlaring imkoniyati cheklangan bolalarni

sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatlari hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentliki rivojantirishning klasterli yondashuvlari, taskilkiy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inkiyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “Xalq ta'imi tizimini 2030 yilgacha rivojantirish konsepsiyasi to'g'risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori va boshbisa xujjatlarda kadrler masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda ushu darslik tayanch manbaa sifatida xizmat qiladi.

I BOB. INKLIZIV TA'LIMNING MOHYATI VA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN IJTIMOIY AHAMIYATI

1.1. INKLIZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabit etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-onalarning qaramog' isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jumiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmogda.

Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlandi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsononini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuv)-bu nafaqt qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan tadiriy rivojlanib boradigan bu nozik sohadada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashtuvida nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo muhitoj bolalarning

ijtimoiy moslashuvni holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ta'limg' armasi tomonidan 2007 yilda «O'zbekistonda inklyuziv loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, loyihada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarcand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Dстиqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko'mak berish va rivojlanтиrish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi, Farg'on'a viloyatining Qo'qon shahridagi «Ziyo» maxsus zarurati bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O'zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishi. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarcand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarda joylashgan ayrim maktabgacha ta'lif muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta'lif-tarbiya olishdi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lif-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoxda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lif loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lif imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoxda. Natijada inklyuziv ta'lifni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarni, o'ziga xos imkoniyatlarini² chuhurroq o'rganish, u bilan bog'iqliq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoiga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lif usuli barcha bolarining ruhiy-jismoniylar holatidan qat'iy nazar ta'lif

jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit tablalariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lif maktablarida sog'lon tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun quayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur darslikda inklyuziv ta'lifning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oidalan, maktabgacha ta'lif muassasalaridan boshlab olyi ta'limgacha bo'lgan uzuksiz ta'lif jarayonida yo'iga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta'lif nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lon turmush tarziga asoslangan oilada tarbijayalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lif muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobjiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltnradi. Lekin ba'zan sog'lon bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan loydalanma olmasligi sabab uyalib turishi, kamtsitishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o'stirilganligi tutayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta'lif amaliyoti va ta'lif xizmatlarini tashkilashturishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lif jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalarini zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.

²YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta'limga muhtojlarga qaratilgan Dastur. – 1994.

**Inkluyuziv
ta'lim**

barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarning farqliliginin inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqifligini ta'minlashdir.

Inkluyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejleri va olyi o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mungkin. Inkluyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirdarda faol va muntazam istirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'satildigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib yo'yaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inkluyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uztusiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va olyi o'quv yurtlariga bemanol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inkluyuzivlik – inglizcha so'z bo'lib, inclusif – qo'shish,birlashitish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyoja ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lon bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inkluyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlарини hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir³.

Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lon bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inkluyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inkluyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lon o'quvchilar bilan birlashtirish o'qitishni anglatadi. Inkluyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanimigan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hankorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inkluyuziv ta'limning maqsadi – alohida ta'lim ehtiyojlarini bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jaib etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan

ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali mostashuv hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatlari ta'lim berishni ta'minlashdan iborat⁴.

Inkluyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

➢ rivojlanishning turli imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamtsitilishi istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lismi ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

➢ jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha

ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'ri kenglik munosabatini shakllantirish;

➢ ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlanitirish;

➢ barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlarini o'zhashtirish uchun imkoniyat yaratish;

➢ o'quvchilarning har tomonlhma rivojlanishi, emotsiional-

salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

➢ alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish,

Inkluyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyoja ega

bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir maktabda, sindfa o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar.

Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham makkab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayoni inkluyuziv ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishlari va faqatgina o'zları kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo'lislari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar bir turda bo'lisi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish metodlarini ularga moslashtirish, biroq aloqa o'rnatish sohasida muammolarga ega bo'lgan o'quvchilarni ular bilan uyg'unlashtirish ularning ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o'quvchilar bilan birkildagi xatti-harakatlarni amalga oshinish tajribasiga ega bo'lislari kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda asta-sekin uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning simfoshchlari yoki guruhdoshchlari bilan aloqa o'mata olishlari va o'qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar taraqqiyotining ko'lami shuqadar kattaki, ular uchun birkildagi ta'lim jarayonini tashkil etish imkonisizdir. Bunday sharoitida ko'plab o'quvchilar ta'lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko'rsatadi, ularga ta'lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limining keng ko'lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me'yorda rivojlanuvchi tengdoshchlari bilan qiyoslagan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqidir. O'quv jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning pedagogik-psixologik

⁴Умумий ўрга таълим ташкилтарни инсонизми таълимига таълим ташкил этилди. "Бахорлар Масҳаматининг 638-сон карори ишомаси", 2021.

xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o'z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga turli variantlarda ta'lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan:

O'quvchining bilmalarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta'lim beriladi. Bunday ta'limning mazmuni umumiy o'rta ta'limga mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o'qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Mazkur yo'naliishda o'quvchilar o'z tengdoshlari orasida bo'lib, ular uchun cheklangan ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog'liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazzarda tutiladi. O'quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatları esa cho'zilgan bo'ladi. Jumladan, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun to'qiz yillik umumiy o'rta ta'lim jarayoni o'n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun boshlang'ich ta'limning maqbul varianti sifatida umumiy o'rta ta'lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o'quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o'quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolarni bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog'lom sindoshlarinikiga ko'ra boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv jarayonida bunday o'quvchilar sindoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o'zib ketishi mumkin. Bu o'znavbatida o'quv dasturlariga o'zgatishlar kiritish, o'quvchilarga korreksion yordam ko'satish, intellektual

yuklamalarni ko'paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi.

Imkoniyati cheklanganmagan bolalar uchun inklyuziv ta'lim berish rivojlanishida muammolarni mayjud bo'lgan o'quvchilarni o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'qitishni nazarda tutar ekan, mazkur yo'naliish aksariyat bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim maktabalarida jismoni va aqliy rivojlanishda orqada qolgan o'quvchilar uchun maxsus sinflar ochish imkonini beradi. Bunday o'quvchilarga muvaffaqiyatlari ta'lim berish uchun mohirlilik bilan tashkil etilgan maxsus pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ularni integrallashtirilgan sinflardagi o'quvchilar sonini keskin kamaytirish talab etiladi. Inklyuziv ta'limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarini qo'iga kiritishni taqozo qiladi. Shuning uchun inklyuziv ta'limning sifatini aniqlash maqsadida muayyan parametrlar va ko'rsatkichlarini (indikatorlar) belgilab olish lozim.

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalananisiga bo'lgan ehtiyoj kunsayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotning ta'lim sohasidagi siyosati yo'naliishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlar xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazzarda tutadigan inklyuziv ta'limg'oyalarini ishtirotkchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishin ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinaliklarini ta'minlashga qaratilgan bilmal, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlanirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumijahon deklaratasiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining taskilishi, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qatori ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'lilda alohida ehtiyojlar bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariv-pedagogik jihatlarini

aniqlashtirish orqali inkiyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda sog'lom tengqurlari bilan birlgilikda inkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojni jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadi va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lim klasteri sharoitida barcha bolaga birdekkif sifatlari ta'limni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqeい, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda inkiyuziv ta'limni ijtimoiy ehtiyojolari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Inkluziv ta'lim tushunchasini ta'riflang.
2. Inkluziv ta'limning maqsadi nima?
3. Inkluziv ta'limning vazifalarini yoriting.
4. «O'zbekistonda inkiyuziv ta'lim» loyihasi qanday amalga oshirildi?
5. Imkomiyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berish uchun qanday sharoit yaratish kerak?

1.2. INKLIZUV TA'LIMNING HUQUQIV ME'YORIV ASOSLARI

O'zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezzulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim chitiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sen "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 1 dekabr dag'i PF-5270-sen "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sen "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sen "O'zbekistonning yangi tarraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-sen "Alohidada ta'lim ehtiyojolari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-sen "Alohidada ta'lim ehtiyojolari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish muhim ahamiyatiga ega.

Inkiyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rino obbo'z qobiliyati, inkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tizimoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorida alohida ta'lim ehtiyojolari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya (shu jumladan, inkiyuziv ta'lim-

tarbiya) olishiga xizmat qildigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar qayd etib o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojanitirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha: alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalarini binolariga qo'yiladigan talabarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarus adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umum ta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash; jamoatchilik o'rtaida alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

o'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

"Zamonaviy maktab"larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va

jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha "Zamonaviy maktab"ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korrekcion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda ta'lim muassasalarini har tomonhama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-okeyabrdagi 638-sont qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarda inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilab berilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan korrekcion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamон талабиди.

Jismoniy yoki ruhiy rivojanishida nuqsoni bo'lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a'zolari. Ularni uzuksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta'lim olishi va tarbiyalanishini ta'minlash bizning asosiy vazifalarimizdan birdir.

Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o'zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to'liq va teng huquqli ishistroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammollarini hal etishda o'ta muhim ahamiyatga ega. "Nogiron" tushunchasini hisobga olgan holda umume'tirof etilgan "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasini kiritish va BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tashkil etilishi ham quvonarlidir. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlar» haqidagi Qonuni har bir bola o'z oиласда tarbiyalanish ko'rsish bo'yicha kafolatlarini belgilaydi. Bola huquqlarini davlat siyosatini belgilaydi, davlat organlarini bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha kafolatlarini belgilaydi.

BMiTomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari unum jahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Inson

huquqlari umum jahon Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklарини kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliliq aniqlandi. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta‘kidlanishicha:

“Nogironlar shaxsiyatini humrat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiat va jiddiylik darajasidan qat‘iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya, 3-modda).

Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarming huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tononidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” qoidalarini ma‘muriy qonunchilik, sud va boshra choratadbirlari yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kompleks va ko‘p qirrali xarakterda bo‘lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni qamrab olgan yagona Konvensiyadir.

Nuqsonli bolalarning o‘quv imkoniyatlari asosiy o‘rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta‘limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy me’yoriy hujjatlar, xalqaro forum Konferensiylar asosida maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning

to‘laqonli va tenghuquqli a‘zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta‘limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Ushbu ta‘lim shakllari inklyuziv va integratsion ta‘lim deb ataldi.

“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushunish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish kafolatlanadi. Ammo mazkur dekloratsiyada nogiron bolalar, ularning ta‘lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda Suleymenova R.A. fikricha “Agarda nogiron bolalarning uzjamoałari va butun jamiyatni ijtimoiy hayotiga jalg etish imkoniyatlari radetilsaularning imkoniyatlari keskin kamayadi” degan fikri bildirdi. “Ta‘limning uzluksizligi, yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Ta‘lim rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun tub ahamiyatga ega” deb ta‘kidlaydi.

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o‘z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta‘minlash maqsadida ta‘limning ustuvor shakli sifatida umumiy, ya’ni inklyuziv ta‘lim belgilangan. Bu ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-onal mahridan bahramand bo‘lib o‘z mahallasida tengqurulari orasida umumiy ta‘lim olish imkonini beradi.

«Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya» maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, «barcha huquqlar–barcha bolalarga» tamoyili e’tirof etiladi.

Bu borada «Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya»da maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim tarbiyasi xususida: «Nogiron boloning maxsus ehtiyojarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojiana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta‘limga, ta‘lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim», deb ta‘kidlangan. Bu qonunga binoan, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishi, milliy e’tiqod va madaniyatga ham ohang bo‘lib o‘sishi, uning boyliklaridan, go‘zalligidan bahrha olib jamiyatning rivojiga hissa qo‘shishlari katta ahamiyatga egadir.

Alohida ehtiyojli bolalar barcha bolalar kabi, teng huquqli

bo'lib ular bilan bir jamoada yashash va birqalikda ta'lim olish huquqiga egadirlar. Alohida ta'lim olish esa bu huquqni cheklaydi va o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyatlardan mahrum qildi. Alohida ehtiyojli bolalar ularning cheklangan imkoniyatlari tufayli alohida o'qitilishi ularning ijtimoiylashuvini chegaralab, mustaqil hayotga tayyor bo'lishini qiyinlashtirishiga olib keladi.

Birlashtirilgan, inklyuziv ta'lim – inson huquqlarining dolzARB muammosi bo'lib kelgan. Hali juda ko'p bolalar ota-onalarining bola uchun qulay sharoti mavjud, deb hisoblagan maxsus intermatlarda o'qitishi tarafdori bo'lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o'zarini inklyuziv ta'lim shartlarini boshidan kechingan deb ta'riflab, alohida ta'limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki "qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo'lgan sharoidan chiqach, tashqariga mostashish, o'z o'rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kansitsihlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan – inklyuziv davlat siyosati darajasida ko'rilmoqda. Birlashtirilgan ta'limga o'tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

- Ta'limda alohida ehtiyojlar bo'lgan bolalarga munosabatlarning o'zgarishi;
- Olining bunga tayyor bo'lishi;
- Maxsus makkab ta'limda bolalarning o'qitilish vaqtini qisqartirilib bolalar boshang'ich bosqichda reabilitatsiya bo'lishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratilishi;
- Maxsus makkab ta'imi sohasi malakali mutaxassislar bilan amalga oshirilishi uchun zaur jixozlar bilan ta'minanishi;
- Maxsus makkab ta'imi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo'lishiga erishish

(qe'shimcha uydas hug'ullanish, repitor, maxsus psixolog maslahati orqali).

Ummum ta'lim maktablarni birqalikdagi – inklyuziv ta'limga tayyorlash:

- Maxsus infrastruktura yaratish;
- Maxsus mutaxassislarni bilan ta'minlash;
- Ehtiyojlariga mos texnik va o'quv moslamalari bilan ta'minlash (maxsus lampalar, eshitish apparatları, Brayl moslama kompleksi, aravachalar uchun maxsus partalar va hk.).
- O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarida o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020 yil 13 oktyabrdagi qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko'rsatilgan:
 - alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun **to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmasigan**;
 - alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini **zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishiga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmasigan**;
- alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtaida tushuntirish ishlarini olib borish yo'iga qo'yilmagan natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan farzandlarini **umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas**;
- alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish

masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organları tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

➢ pedagogika yo'nalishidagi OTMlar o'quv dasturlariga inkluyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

➢ pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inkluyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlori bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriylardagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uysda ta'lim oladi. 2020 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inkluyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Prezident qarori bilan 2025 yilgacha inkluyuziv umumta 'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- Inkluziv ta'lim rivojlantirish qanday me'yoriy-huquqiy hujatarda ko'rsatib berilgan?
- BMTning "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyasining 3-moddasida nogiron shaxslar haqida nimalar deyilgan?
- 2020 yil 13 oktyabrdagi qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarorida qanday muammolar ko'rsatilgan?

belgilangan.

1.3. INKLUYUVIV TA'LIMGA OID XORIJY TAJRIBALAR SHARHI

Inkluyuziv ta'lim bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilinganda, masalan, Rossiya Federatsiyasida o'qituvchini imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga tayorlashning asosiy yo'nalishlari "U'mumta 'lim tashkiloti pedagog xodimlari kasbiy darajasini oshirishning kompleks dasturi"da (2014 y.) aks ettirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ushbu kasbiy standart pedagogik ata'limga sohasi bo'yicha kadrlar tayorlash tizimi makaka tabalarni ishlab chiqishda asos sifatida qo'llanilib kelinmoqda.



Ushbu muassasalarida davlatning bir qator olyi ta'limga olyi kasbiy ta'limga standartlariga

"Psixologik-pedagogik" ta'limga yo'nalishida tayorlab kelimoqda. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni normal rivojlanayotgan tengqurlari bilan teng ta'limgarayoniga jalb qilishga zaruratni hozirgi kunda ta'minlash zarur. Suning uchun inkluyuziv ta'limgarayoniga hozirgi bosqichida uni amalgaga oshirish uchun pedagoglarning tayorlashda hududiy xalq ta'limi boshqarmalari metodik xizmati, OTMlari darajasida ta'limga klasteri tizimiga alohida rol ajratildi. Xalqaro mutaxassislar orasida "inkluyuziv ta'lim" atamasi 1994 yilda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va Alohida ehtiyojli shaxslar ta'limi sohasidagi tawoyillar, siyosat va amaliy faoliyat to'g'risidagi Salamanca deklaratsiyasida rasmiy qabul qilingan edi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi amaliyotga inkluyuziv ta'limga oyalarini joriy qilish bir qator me'yoriy-huquqiy hujatlar, jumladan,... va boshqalar bilan mustahkamlab qo'yilgan.

"Inkluyuziya", "inkluyuziv ta'lim" atamalari keng qo'llanishiga qaramasdan, ushbu tushunchalarning mohiyatini aniqlash masalasi hozirgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Bu bizning fikrimizcha, inqiqotchilarning ushbu fenomeniga har turli metodologik yondishuvlari bilan bog'liq. Ta'limga sohasida inkluyuziv yondishuvning evolyusiyasi jamiyatning nogironlik to'g'risidagi

tushunchasi o'zgarishiga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o'rtasigacha mayjud bo'lgan salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni ajratib qo'yishni nazarda tutuvchi tibbiy model o'rniغا XX asrning 1980-yillari o'rtasigacha davom etgan normallashtirish modeli keldi. Bu model salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyatga integratsiyalashni nazarda tutar edi. Hozirgi vaqtida salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta'limidagi to'siqlar va muammolar jamiyat ta'lim tizimining atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari nomukammalligini keltrib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy modelga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy ta'kidaydilarki, inklyuziv ta'lim tayanadigan ijtimoiy modelga ko'ra, "nogironlikning sababi faqat kasallikning o'zida emas, balki jamiyatdagi mayjud jismoniy (ijtimoiy tuzilmalar va tartiblarga doir) va tashkiliy (munosabatlarga doir) to'siqlar, stereotiplar va noto'g'ri qarashlardir."

S.V.Alexinaning fikricha, "inklyuziya - ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning birgalikda sifatlari ta'lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma'noda bo'lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya" hisoblanadi. Inklyuziv ta'limi eng umumiy tarza ta'lim siyosati va amaliyotining umumiyyatini yaratishga yordam beradi, ta'lim va o'qitish siyosati va amaliyotini strategik yo'nalishi sifatida belgilanadi. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlanishining xalqaro tajribasi uzoq muddati izchil, uzlusiz, bosqichma-bosqich va kompleks yondashuv xususiyatiga ega strategiya sifatida 1960 yillardan hozirgi kunlangacha amalga oshirilmoqda.

Xorijda inklyuziv ta'limi joriy qilish tajribasining tahlili ko'rsatdi, uning rivojanishi turli mamlakatlarda nogiron bolalarning ta'lim olish huquqlarini amalgalashishga, me'yoriy-huquqiy hujjatarni ishlab chiqish va manfaatdor doiralarda inklyuziyani tashkil qilish muammolarini muhokama qilishga yo'naltirilgan fuqarolik munosabatining shakllanishidan boshlangan. N.N.Malofeyevning fikricha, faqat shu bosqichlardan keyingina inklyuziv ta'lim g'oyalarini amaliyotga tabbiq qilishga

o'tish analga oshirildi. Inklyuziv ta'limi joriy qilish jarayonida to'siqlarsiz muhim tashkil qilish qiyinchiliklarigina: panduslar horligi, maktabning bir qavatli dizayni, umumiy foydalananish joyla rivoj shaxslarning imkoniyatini qayta jhozlash, shatlar jadvaliga mutaxassis defektotologlarni kiritishgina emas, balki "keng tarqalgan stereotiplar va noto'g'ri tohumishlar, shu jumladan, o'qituvchilar, o'quvchilar va otashxuning integratsiyaga tayyorligi yoki rad etishidan iborat" ijtimoiy xususiyatli qiyinchiliklar ham mayjud. Shu munosabat bilan inklyuziv ta'lim g'oyalarini amaliyotga joriy qilish, birinchi maybatda, maktab jamoasi tomonidan inklyuziya qadriyatlarini tan olish, har bir bolani uning "boshanishdag'i" imkoniyatlaridan qat'iy mozar, rivojanishga ehtiyojini analga oshirish, individualikni qo'llab-quvvatlash zarurligini tushunish bilan bog'liq ta'lim munasasasining inklyuziv madaniyatini yaratishni nazarda tutadi.

T.But va M.Eynskouning fikricharicha, "o'tkazladigan islohotlar va o'zgartirishlarning asosi hisoblanadi..., hamkorlikda ishlash o'yoatalriga qo'shilishadigan, o'zining barcha ishtirokchilari rivojanishini rag'battantiradigan ..., xavfsiz va murosali jamoani yaratishga yordam beradi, ta'lim va o'qitish siyosati va amaliyotini o'zgartiradi." Inklyuziv madaniyat kasbiy pedagogik faoliyat jihatidan kasbiy pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi VII olimlar tomonidan "inklyuziv ta'lim qadriyatlari va texnologiyalarini yaratish va o'zlashturishga yordam beruvchi, bilmlar, ko'nikmalar, ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar uchun integratsiyalovchi, pedagogga inklyuziv ta'lim sharoitida sonarali ishslash imkonini beruvchi integratsiyalashgan shaxsiy ishlari" deb belgilanadi. Tadqiqotchilar ta'kidaydilarki, "inklyuziv madaniyatning rivojanishi uchun imkoniyati cheklangan bolalarning o'zleri va ularning ota-onalari ta'lim sharoitlari va natijalari uchun munus'uliyatni o'zlariga olishda faol bo'lishlari prinsipial jihatdan muhim". O'zbekistonda bolalar baxtiyor, jipslashgan jamoa bo'lib kamol topishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni

to'laligicha yo'lg'a qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi keraki deb yozadi L.S. Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlami kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb xisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordanga muxtoj bola o'qish jarayonida xar tomonlama rivojlansin. Ya'ni, L.S. Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini taskil etish-maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

Bir qator chet mamalakatlarning tajribasini o'rganish jarayonida bizga shu narsa ma'lum bo'idiki, taxminan 1970-yillardan boshlab nogironlarning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida normativ aktlar paketi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Shunday qonunlarni va boshqa shunga o'xshash hujjatlarni hayotga tadbiq etish, sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarni huquqijihatidan barobar ko'rishning kompleks chorabidbirlarida ifodalananmoqda. Bu imtyozlar tartibi sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarning jamiyatda bir xil imkoniyatarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

AQSH va Yevropa ta'limi siyosati tarixi davomida o'zlarining bir qancha rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqdilar:

maktab desegregatsiyasi;
Shvetsariyada nuqsonli hololarning ko'pchiligi umumta'limga muassasalarida ta'limg-tarbiya olishlari rasm ishlardi, 3 tasi umumta'limga dasturida, qolgan bir o'qituvchi bo'lgan o'qituvchi ega maxsus tayyorgarlikka ega humkorlikdag'i fakultativ mashg'ulotlari o'tkazishardi. Shuningdek, maxsus chityoiji bola bilan ishllovchi mutaxassis o'qituvchi haftada bir marta har bir o'qituvchi bilan sinfdagi muammolar va masalalar yuzasidan uchrashardi. Bunday o'qitish yo'llari integratsion guruhlarda o'qituvchilariga engilashdirib, sinfdagi o'quv sifatini oshirardi.

Shvetsiya. Ota-onalar va maktab o'qituvchilariga Okrug kengashida faoliyat yurituvchi shahar bolalar rehabilitatsiyasi makazining maxsus pedagogi mustahat beradi. Bola imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular birgalik individual o'quv rejisi tuzadilar; maktab o'qituvchisi uning bajarilishi uchun maxsuldir. Zaruriyat tug'ilganida sinfga yordamchi pedagog taklif etiladi. Shvetsiya maxsus ta'limg agentligi (SIH) ham ola va maktablariga maslahat berish va yordam ko'rsatish uchun javobgar; amalda maslahat berishni aniq bir bola bilan ishlaydigan maslahatchi amaliga oshiradi. SIH maslahatchisi, masalan, o'quv materialiga aloquq dor tavsiyalar beradi; shahar hokimiyatiga maxsus ta'limga muhitiga bolalarga optimal ta'limga berishni tashkil etishda ko'maklashadi. Zarur bo'lganda, maktab negizida fan o'qituvchilariga malaka oshirish kurslari (sinfga integratsiyalashgan o'quvchilarning chityoijlari va xususiyatlarini nazarda tutgan kuchlari) tushkil qilinishi mumkin. G.Miron esa quyidagi

ma'lumotlarni beradi: 1981 yilda YUNISEFning Shvetsiya hukumatidagi tashkilotda 6 yoshgacha bo'lgan nuqsonli bolalarni neformal o'qitish dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur asosida nuqsonli bolalarni ommaviy muassasalarda o'qitish tizimi, bu bolalarni o'qitishda ota-onalar bilan ishlash metodikasi ishlab chiqilib, Nikaraguada ham qo'llanila boshladi.

Xitoyda integratsiyalash jarayoni barcha umummillat ma'lumotlarini yig'ish, tajriba almashish, muloqot va fikr almashish, kadrlarni tayyorlash, maktab o'quv jarayonlarini isloh qilish, maktab xodimlari bilan uchrasuv va savol javoblar o'tkazish hamda barcha axborotlarni yig'ib tahlil qilishdan boshlandi. Nuqsonli bolalar ta'limi Xitoy ta'lim tizimida birmuncha yangi edi. Har bir tumanda integratsion ta'lim borasida seminarlar uyuşhtirildi. 8 ta o'quv seminarida 1000dan ortiq kishilar ishtirot etdilar.

Bir qancha pedagogika institutlariida "Nuqsonli bolalar ta'limi" nomli o'quv kurslari o'tila boshladi.

Xitoyning ta'lim bo'yicha milliy tadqiqot Instituti YUNESKOning maqsadli grant mablas'larini yordamida alohida ehtiyojli bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida WEB resurs markazini tashkil etish bo'yicha innovatsiya dasturini ishlab chiqdi. Bu resurs markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Alovida ehtiyojli bolalar va yoshlarni ta'lim tizimiga kiritishda ma'lumotlarni olish bo'yicha resurslarni aniqlash;
- Maxsus ehtiyojli shaxslar bilan aloqa o'matish;
- Ma'lumotlar bankida turli ta'limiy va rivojlantiruvchi materiallarni to'plash;
- Internet tizimi orqali mutaxassislar maslahatini uyuşhtirish;
- WEB resurs markazi foydalanuvchilari orasida tajriba va bilmlar almashishni tashkil qilish;



➤ Integratsiya muammolarini hal qiliш vostitalarini izlash. Chet davlatlar bilan bu boradagi hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish (YUnying Chen, ma'lumotlari 2000 yil).

Shunday qilib Xitoya Internet tizimidagi elektron resurs orqali mutaxassislarining bilim va malakalaridan foydalangan holda butun mamlakat hududidagi alohida ehtiyojli bolalar va shaxslarning ta'lim olish talabini qondirish imkoniyati paydo bo'ldi. Mazkur dastur maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim junayoniga kiritish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarga qo'shimcha yordum sifatida qo'llaniladi. Ayrim hollarda esa ta'lim berish va rivojlantrish imkonini berruvchi yagona vosita bo'lib qoldi.

Hindiston qonunida majburiy boshlang'ich ta'limga jiddiy va katta vazifa deb qaraladi. Hindistonda 6yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 2.000.000ni tashkil etadi. Ta'lim tizimini rivojlantrish 1947 yilda munlakat mustaqillikga erishgandan no'ng qonuniy tastiqlangan. 1986 yilda ishlab chiqilgan va 1992yilda milliy ta'lim qonuniga kungina mutaxassislar va turli shtatlarning vakillari ishtirotida hamda boshqa tegishli fuqarolarning hamkorlikdag'i sayi-xarakat bilan qo'shimchalar kiritilgan.

Mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafoftattangan. Ta'lim tug'risidagi qonunning asosiy boshida rivojlanishida alovida ehtiyoji bo'lgan bolalarni barchalar qatori ta'lim olishi va ular urtasidagi tusiqlarni bartaraf qilinishi quyyd etilgan.

Shuningdek, qonunda mamlakatda yashovchi fuqarolarning ko'p tilligi va diniy-ijtimoiy, madaniy rivojlanishining xususiyati hamda mamlakatda yashovchi nogaon bolalar, qiz bolalar har-xil xududlarda yashovchi mayda miltat bolalari, ijtimoiy himoyaga mustoj ekanligi aniqlanib ularga qo'shimcha ravishda e'tibor berilib, ta'lim olish huquqi ta'kidlangan.

Hindistonda bolalarning ko'pchilik qismi maktablarda o'qitilishiga qaramasdan 35million 6-14 yosh bo'lgan bolalar xanuz ta'lidan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga sabab maktablarning binolarning nogiron bolalarga moslashtirilmaganligi, o'qituvcilarning davomatining pastligi va yetishmasligi, moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi, maktablardagi ta'lim jarayonining sustligi va hk. Har xil ta'biy ofatlarga ko'ra boshpanasiz qolgan, boquvchisini yuqotgan, etim bolalar, ijtimoiy ximoyaga muxtoj bolalar xanuz formal ta'lidan chetda qolmoqdalar.

Keyingi vaqtida ta'lim olishning bir qator movhum tizimi rivojlana boshladi. Bunday tizimni shakllantirish yaxlit bitta vazirlik doirasida bo'lishi kerak, deb ta'kidaydi Keralin Daier. Ush bu shakllangan ta'lim tizimining vazifasi "o'yin orqali" o'qitishga asoslangan yangi ishlab chiqilgan dastur yordamida, o'qituvcchi o'quvchiga yondoshish yo'lli bilan o'qitish talab etiladi. Bunday yondashuv doirasida o'qitish har xil bolani ehtiyojini qondirish uchun individualshirilgan bo'lishi ta'kidlangan. Inklyuziv ta'limming ijtimoiy masalasi har bir uzoq masofadagi xududlarda yashovchi bolalarni ota-onalarning xoxishiga ko'ra davlat maktablarida o'qitishi davlatning imkoniyati va o'qituvcilarning xoxishi, imkoniyatlardan kelib chiqib amalgalashirilishi mumkinligi qayd etilgar. Davlat maktablarida o'qitilishi davlatning imkoniyati va o'qituvcilarning xohishi, sharoitidan kelib chiqishi amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan. Davlat maktablariga qatnashuvchi guruhlari, ko'pchilik an'anavy segregatsion-guruhlaridan maktablariga qatnaydilar, Bu esa ijtimoiy inklyuziyaning muhim, muammosidir. Bu mamlakatning davlat qonuni, formal va noformal ta'lim tizimini joriy qilishda YUNISEF va YUNESKO tashkilotining hissasi va bevosita hamkorligida tuzilgan "Nuqsonli bolalarning integratsion ta'lim loyihasi" bo'yicha ish olib borila boshladi. Bu loyiha Hindiston hukumati siyosati va etnik holatini hisobga olgan holda tuzilgan (Ainscov M. va boshqalar, 1996 yil).

1979 yilda Nikaragua ta'lim vazirligi nuqsonli bolalarni o'qitish dasturini olib boruvchi maxsus bo'lim tashkil etdi. Bundan tashqari nuqsonli bolalarning o'quv imkoniyatlarini tushxis qilish markazi va maxsus muassasalar hujatları axborot bazasi yuzasidan ish yuritish markazlari ham ochildi. Mamlakatda ommaviy maktab tizimida ko'plab qiyinchiliklar bo'lib, maktabga qatnamaydigan bolalarning soni juda yuqori edi. Nuqsonli bolalar ta'limi maxsus segregation va ommaviy maktablarda integratsion sinflar shaklida tashkil etilgan. Maxsus maktablarda faqat og'ir nuqsonli bolalar o'qitulardи.

Tailandda og'ir va o'rta durajadagi nuqsonli bolalarni ommaviy maktablarqa qabul qilish, o'qitishga va bunga o'qituvcimutaxassislarini taylorlashga oid o'quv loyihasi ishlab chiqildi. Radjabatandagi Suan Disit institutiida o'tkazilgan ikkita konferensiyanedan so'ng inklyuziv maktablarning 3ta yo'nalishidagi konsepsiyasini ishlab chiqildi.

Birinchi yo'nalish qo'shimcha guruh bo'lib u administratorlar, o'qituvcilar va ota-onalardan tashkil topgan. Ikkinci yo'nalish og'ir va o'rta darajadagi nuqsonli va sog'iom bolalarni ommaviy sinflarda o'qitishni tashkilashtiruvchi o'qituvcilar va ota-onalar.

Uchinchi yo'nalish-sinflar uchun individual rejalarini ishlab chiqishdi qo'llab-quvvatlovchi administratorlar, o'qituvcilar volontyorlar (YUNESKO hisoboti, 1996 yil).

Vyetnamdagi inklyuziv ta'lim tizimini o'rganish shuni ma'lum qilidiki, bu erda ikkita holat ko'zatiladi. Ta'lim vazirligi tomonidan Davlat fan va ta'lim institutida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limming



samarali natijalarini aniqlash uchun ish olib bordi (YUNESKO hisoboti, 1996 yil).

Rossiya

V.A.Berezina,

L.M.Shipisinalarning
ma'lumotlariga ko'ra bergan

Rossiyada maxsus ta'lim hozir ikkita
yo'malishshada: differensial va integratsiya tashkil etilgan.

Differensial ta'lim 8 yo'nalishda taskil etilgan. Oxirgi paytlarda Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa Rossiyaning bir qator shaharlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish borasida ilmiy izlanishlar va psixologo-pedagogik amaliy ishlar olib borila boshtadi.

Rossiyada integratsiya modeli asosida umumta'lim muassasalarida maxsus sinflar tashkil etilgan bo'lib, ular quyidagicha:

-aqliy rivojanishida orqada qolgan bolalar uchun guruhlar va sinflar;

-ruhiy rivojanishi sustplashgan bolalar uchun guruh va sinflar;

-xulqi og'ir bolalar uchun guruh va sinflar.

L.M.Shipisinaning bergen ma'lumotlariga ko'ra Rossiyada hozirgi kunda 38 % imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim muassasalarida ta'lim - tarbiya olmoqdalar.

Armaniston. Barcha MDH

mamlakattarridagidek, Armanistonda har bir shaxsn jamiyatda ta'lim olish huquqiga ega ekanligi va uni ijtimoiy kelib chiqishi, jismoni y xolatidan qatiy nazar ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. Shu bois oxirgi 10 yil ichida Armanistonda ijtimoiy himoyaga muxtoj, kam ta'minlangan oilalar fazandlari, etim bolalar, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llashga

ta'lim olish maslasiga katta e'tibor berilmogda. Shuningdek, inkluyuziv ta'lim tizimini shakllantirish va rivojanitirishga oid daslabki ishlar olib borilmogda.

Qo'shimcha yordam ko'rsatuvchi xodimlar va yordamchi

zematlarni jalb qilish uchun, inkluyuziv ta'limi moliyalashishirish masalasi davlat tomonidan ma'qullanib, 2006 yilda inkluyuziv maktablarga qo'shimcha mablag' ajratildi.

Armanistonda 49 inkluyuziv maktab mavjud bo'lib 700ta jismoniy, aqliy va ijtimoiy muammosi bo'lgan bolalar ta'lim olohdilar. Bu maktablar inkluyuziv ta'lim jarayonini rivojanitirish va kengaytirish uchun resurs bo'lib xizmat qiladi.

Armanistonda maxsus ehtiyojli qondirishni davomiyligini ta'minlash maqsadida maxsus va inkluyuziv ta'lim jarayonini nafaqat asoslash, rivojanitirish uchun imkoniyat yaratishga xukumat parlamenti tomonidan bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan.

Rivojanangan, ijtimoiy himoyaga muxtojligi sifatida qarashlarini davom etishidir. Bunday eskicha yondashish davomiyligi hamma uchun bir xil bo'lgan yangi inkluyuziv ta'lim muxitini shakllantirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyatda notug'ri stereotipni va psixologik komplekslarni shakllantirishning eng ma'qul va va inkluyuziv ta'lim muxitini shakllantirishning yo'q qilish yo'g'ri yo'li sinfa va sinfdan tashqarida bolalar orasida hamkorlik qilishi. Shu fanni o'qitadigan o'qituvchi hamda shu sinfa o'qiydigan o'quvchilar, ota-onalar, zaruriyat tug'ilganda maxsus pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy ischiharning faoliyatidir. Interfaol usulda o'zaro yordam ko'rsatishga asoslangan guruhlarda o'qitish metodi.

Armaniston respublikasining ma'lumotlariga ko'ra inkluyuziv muktablarni umumta'lim muassasalari deb qarashmaydi. Bu muktablarda imkoniyati cheklangan bolalar sog'lon bolalar bilan yonna-yon formal o'qiydilar. Shuning uchun ham inkluyuziv muktabda birgalikda ta'lim olish jarayonida individual mashg'ulotga jiddiy e'tibor beriladi, aks xolda maxsus sharoitdag'i ta'limga o'qiyoji bo'lgan o'quvchilar o'qishdan orqada qoladi.

Ozarbayjonda 1998 yilda Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya ratifikatsiya qilindi va 2001 yilda esa "Maxsus ta'lim to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. 2002 yilga kelib inklyuziv ta'lim borasidagi loyihalar faoliyatini 10 dan ortiq qonunni hujjatlar va loyihalar ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning Milliy dastur rejasiga 2 qismidan iborat bo'lib, 1-qismi inklyuziv ta'lim borasidagi loyihalar faoliyatiga oid bo'lib, 2-qismini esa inklyuziv ta'lim moddiy - texnik asosini yaxshilash masalalari tashkil qiladi.

Ta'limni rivojlanatirish ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: ta'lim sohasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolanishi; ta'lim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy ta'larning barcha darajalarida va qo'shimcha ta'lim olishda shart-sharoitlar yaratish; rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish va ularga korreksiyalovchi-pedagogik ko'mak berish; shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojarini, shuningdek shaxsni shakkantirishda, malakali kadrlarni tayyorlashda jamiyat va davlatning entiyojalarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bular – sifat, quaylik, shaxsga yo'nalitirilganlik, mazmun, ta'lim dasturlari va ta'lim yo'nalishlarining turli-tumanligi va hokazo.

P.f.n, dotsent R.Shomaxmudova "Nogiron va maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtaсидаги to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisadiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishirokida, xususan bolaning ehtiyojni qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta 'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir"-deb ta'rif berib o'tgan.

Maxsus pedagogik soxadagi yetuk olima L.R.Mominova tomonidan maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning nutqidagi nuqsomni bartaraf etish bo'yicha korreksion-pedagogik ishlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, shuningdek, bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish metodikasi yaratilib amalda joriy etilgan. Bundan tashqari olimaning inklyuziv ta'limga oid qator tavsiyalari amaliyotda o'z samarasini berib kelmoqda.

L.Sh.Nurmuhammedovaning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" ilmiy tadqiqotlari dorasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhajijigi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan.

Nogiron shaxsning o'ziga xizmat ko'rsatish, mustaqil horakatlanishi, mo'jal olish, muomala qilish, o'z xulqini nazorat qilish, mehnat faioliyatini o'rganish yoki mashg'ul bo'lish qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotishi, uni ijtimoiy muhofaza qilish choralarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatdi.

Insonning nogiron bo'lib qolgan paytida shakllangan shaxsiy xususiyatlariiga insonning o'zi uchun, uning hayolida yuz beradigan hodisalar uchun javobgarligini ang'lashga bog'liq.

Sh.M.Amirsaidovaning tadqiqotlariida sharq mutafakkirlarining maxsus pedagogika faniga oid ilmiy fikrari o'rganilib, Abu Ali Ibn Sinoning maxsus pedagogika fani ravaqa uchun xizmat qiladigan tilhiy-ilmiy, pedagogik va psixologik g'oyalari tahlil qilinib, o'quv jurnavoniga tadbiq etish usullari ishlab chiqilgan.

M.P.Hamidova tomonidan olib borilgan "Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so'z boyligini oshirishning korretsiy-pedagogik asosları" nomli tadqiqot ishida umum va maxsus pedagogik tadqiqotlar asosida aqli zaif bolalarning nutqini ko'rikdan o'tkazish metodlari yaratilgan. Bolalarni ko'rikdan o'tkazish nutjasida aqli zaif bolalar nutqining rivojlanamaganlik mezonlari ishlab chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning premetler haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, hissy-irodaviy ishlalarini jalb etish bilan bilsinga qiziqish va nutqiy motivatsiyani kuehaytirishga qaratilgan korreksion-pedagogik ish mazmuni va unutli ishlab chiqilgan.

D.A.Nazarova tomonidan maktabgacha yoshdagi zaif ishluvchi bolalar nutqini rivojlanatirishga qaratilgan ilmiy ishida ilk bir muktabgacha ta'limda o'quvchidagi zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moshadbitirilgan varianti, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlanatirishning mazmuni, yangi interfaol usullari himda shakllari, o'ganilayotgan bolalarning umumiy rivojlanishini o'minshida ularning o'ziga xos rivojlanish omildan ketib chikib, nutqini keng qamrovli rivojlanatirish tizimi ishlab chiqilgan va unutlab berilgan.

M.F.Hakimovaning "Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga taylorlashning pedagogik asoslari" (aqli zaif o'quvchilar misolida) tadqiqotlari doirasida quyidagi ilmiy natijalar olingan:

1.Maxsus maktablar, maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan sanoat kasb-hunar kollejlaridagi aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga taylorlash ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

2.Maxsus yordamga muhtoj aqli zaif o'quvchilarning kasbhunarni tanlashga bo'lgan qiziqishining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

3.O'quvchilarni kasb-hunarga taylorlashda psixologik-pedagogik xususiyatlarni hisobga olgan holda, kasb-hunarga taylorlashning metodik ta'minoti yaratilgan. Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejları uchun metodik tavsiyanomalar, dars ishlammalari va o'quv qo'llamalar yaratilgan.

4.Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga taylorlashda xalq hunarmandchiligidan samarali foydalanilgan.

5."Oshpaz-qandolatchi", "Keng assortimentdag'i kiyimlar tikuvchisi" kabi yangi mutaxassisliklari o'quv rejasiga kiritilgan.

Maxsus ta'limga muassasalarini mehnat ta'limi o'qituvchilar uchun aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga taylorlashga doir, ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasbhunarga taylorlashning samarali tizimi yaratilgan.

Korreksion pedagogika sohasida salmoqli ish olib borgan olima U.Y.Fayziyeva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlariда zaif eshituvchi bolalarga savodga o'rgatish tizimining grammaticik asoslari va korreksion-pedagogik ish tizimi tadqiq etilgan. Natijada analiz-sintez (harf-tovush) metodi orqali eshitishida nuqsoni bor bolalarga savod o'rgatishning didaktik va metodik ta'minoti takomillashtirilgan. Olima tomonidan birinchi marta O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun "Alifbe" darsligini o'zbek tilida nashr etilishi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni savodga taylorlash jarayonlarini tizmli va samarali olib borilishida ijobjiy o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'idi. Bundan tashqari

olimaning eshitishida muammosi bor bolalar uchun istohlitashtirilgan maxsus maktab-internatlari uchun "Nutzq o'stirish"(1,-2,-4,-5-sinflar), "Ona tili" (4-5-sinflar), "Matematika" (tayyorlov, 1-sinflar) kabi darsliklari nashr etilgan. Bundan tashqari 1.U.Fayziyeva tomonidan 1-sinf o'quvchilari uchun chop etilgan "1-yozuv daftari", "2-yozuv daftari"da kar va zaif eshituvchi bolalarda ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Bugungi kunda olimaning eshitishida muammosi bor bolalarga jarrohlik yo'li bilan implant o'matilishiga qadar va jarrohlikdan keyingi davr pedagogik ishlari tashkil etishga doir tavsiyalari amaliyota qo'llanilib kelmoqda. Jumladan, bo'lajak sinoppedagoglarni eshitishida muammlari bo'lgan bolalarga yozuv va o'qishni o'rgatish metodlaridan foydalanishga taylorlashda 1.U.Y.Fayziyeva tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan tavsiyalaridan foydalaniildi.

Eshitishida muammosi bor bolalarning so'zlashuv nutqini etvoluntirishda tilga o'rgatish davrlarining vazifalariga amal qilish lozimligi F.U.Qodirovaning ilmiy izlanishida asoslab berilgan. Olma kurlar ta'limi amaliyotiga "hayotiy kompetensiya", "Nutqiy ikkelerasiya" tushunchalarini hamda "Nutqiy klaster", "Nutqiy nutib" tizimlarini olib kirdi. Jumladan, eshitishida muammosi bor bolalar ona tilini egallash davrlarining farqlanishi hamda nutq wujudlari, shakllaridan foydalanish tartibi amaliyotga tavsiya etilgan.

1.U.Qodirovaning eshitishida muammosi bor bolalarning predmetli amaliy faoliyatini tashkil etish orqali tilga o'rgatish tizimi amaliyotda samarali qo'llanilib kelmoqda. Natijada tayyorlov, 1-5-inflar uchun "Predmetli amaliy ta'lim" darsligi chop etilgan. Ushbu darsliklarda eshitishida muammosi bor bolalarni ona tiliga mulqot dorjasida o'rgatish bo'yicha ish turlari aks etgan. Masalan, "Daktil-oq'zaki aytung", "So'rang", "Hisobot bering" va "Tavsiflang" habrlar har bir mavzuda manтиqiy ketma-ketlikda hamda o'zbek tili qoniyyatlari asosida berilgan. Olimaning ushbu ish tizimidan olyi tili hinda "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish usulharini tekomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlariда foydalaniildi.

Zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatic qurilishini shakllantirish metodikasi R.Rustamova tomonidan taddiq qilingan. Olimaning tadqiqotlarida zaif eshituvchi bolalarni tilga o'rgatishda gap tuzilishi hamda tinish belgilardan to'g'ri toydalanish bo'yicha ish turlari amaliy-uslubiy jihatdan tizimlashtirilgan.

Zaif eshituvchi bolalar to'g'ri gap tuza oladi, qachonki, ularning so'z zaxirasi yetarli darajada bo'lsa, hamda ushbu so'zlardan turli kontekstlarda o'rinci foydalanish ko'nikmalariga ega bo'isalar. Shuning uchun ham zaif eshituvchi bolalar nutqiy zaxirasi ustida uslubiy ishlar mакtabgacha ta'lim davridan boshlab izchil olib borilishi maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalarни D.A.Nazarova amaliyotga tabbiq etgan. D.A.Nazarova mакtabgacha yoshdagи zaif eshituvchi bolalar nutqini o'stirish bo'yicha bir qancha samarali usullarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'igan olma sifatida bugungi kunda ham maxsus ta'lim metodikalarini takomillashtirish ishlarini muvoqiflashtirish borasida salmoqli ishlarni olib bormoqda. Uning fikricha, zaif eshituvchi bolalarning mакtabgacha ta'limi, mакtab ta'limi samaradorligini ta'minlashning muhim moydevoridir. Bu davr metodik ishlari samarasи esa, ota-onalarning savyasi hamda o'z farzandining kelajagi uchun qayg'urishiga bog'liqdir.

Ma'humki, eshitishida muammosi bor bolalarni ona tiliga o'regatish ulardagi mayjud eshitish qoldig'iga tayangan holda hamda uni rivojlantrish orqali amalga oshiriladi. Eshitish qoldig'ini rivojlantrish masalalari F.Alimxo'jayevaning ilmiy tadqiqot ishida ochib berilgan. Olimaning ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida amalyotga eshitish mashg'ulotlari uchun didaktik materiallar tayyorlashning metodik ishlar tizimi tabbiq etilgan hamda eshitishida muammosi bor bolalar mакtablari uchun "Talaffuz" darsligi nashr qilingan.

Z.Mamarajabovning "Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantrish" mavzusidagi tadqiqot ishida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantrishning didaktik ta'minotini adabiy ta'lim janrlari bo'yicha innovasion yondashuv asosida ishlab chiqqan hamda adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqining rivojlantrishning korreksion-pedagogik

modelini yaratgan. Olimaning ilmiy-tadqiqot ishlari adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'igan bolalar nutqini rivojlantrishning psixologik-pedagogik omillari aniqlashtirib berjanligi va adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantrish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqanligi bilan ham katta ahamiyat kasb etadi.

D.B.Yakubjanova tamonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida insonparvarlik paradigmasi asosida bo'tajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantrishning ijtimoiy, akmeologik, psixologik va pedagogik omillari hamda talabalarida eshitishida nuqsoni bo'igan o'quvchilar bilan o'zaro birgalikdagi harakatda refleksiv ko'niknalarining namoyon bo'lishi kabi masalalar taddiq qilingan.

Miliiy maxsus pedagogikada olib borilgan tadqiqotlar orqali inkiyuziv ta'linda turli imkoniyatti bolalar bilan qanday ishslash kerakligini bilish uchun zarur savollarga javob topish imkoniyati yaratildi.

Buyuk Britaniyaning "Bolalarni qutqaring" ("Save the children"-2002 yil) jamg'armasi tomonidan nashr etilgan o'quv qo'llumada inkiyuziv va integratsion tushunchalar bir xil ma'noda ishlataladi. Shunga qaramasdan, ushbu tushunchalar biror qo'llumda inkiyuziv bo'lib, bu farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:
-integratsion ta'lim: maxsus ehtiyojli bolalarni umumta 'lim mакtabiga qatnashi;
-inklyuziv ta'lim: maxsus ehtiyojli bolalarni sifatlari ta'lim tadbira olishi.

Bu ikkala tushuncha o'rtasidagi tafovut yanada tushunariroq hayon etilgan bo'lib, quyidagicha ta'kidlanadi:

Integratsiyalashgan ta'linda bolaga muammo sifatida quriladi

Nogiron bolaning individual yoki tibbiy holatda mакtabga yoki jamiyatga moslashishi kerak. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'igan hola umumta 'lim sharoitiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanib gapirishni o'rganishi kerak. Sog'lam boladan esa imoshora tilini va muloqotning bosqqa shakklarini o'rganish talab qilinmaydi. O'qisida muammo bo'lsa, bola standart talablarini

bajarishi kerak. Aks holda o'qituvchi qo'shimcha mashhulotlar o'tilishi lozim. Inkluyuziv ta'limga bolani emas tizimi o'zgartirishni taqozo qiladi. Nazarriy adabiyotlarni tahsil qilish jarayonida integratsion va inkluyuzivlik tushunchalarining o'rasisida umumiylilik ham mavjudligi o'ganildi, bu umumiylilik zamirida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'limga tizimi sharoitiga kiritish yotadi. Xorijiy davlatlarda inkluyuziv ta'limga tiziminining joriy qilinishini o'rganar ekanmiz, bu ta'limga tizimini joriy etish uchun uzoq vaqtini talab etishimi va juda ko'p miqdordagi moddiy mablag' zarurligi aniqlandi. Shuning uchun ham jahon miqyosida inkluyuziv ta'limga tiziminining oldida quyidagicha juda ko'plab muammolar va to'siqlarmayjud:

- ota-onalar uchun o'quv qo'llanmalarning yo'qligi;
 - ko'plab davlatlarda inkluyuziv ta'limga tizimini joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi;
 - nogiron bolallarga nisbatan salbiy munosabat;
 - maxsus ehtiyojli bolalarning hamjamiyatda ko'rinnmaslik muammosi;
 - maxsus ehtiyojli bolalarning maktabda ko'rinnmaslik muammosi;
 - moddiy mablag' muammolar;
 - ta'limga muassasalarini jismony moslashtirish;
 - sinifa o'quvchilar sonining ko'pligi;
 - kambag'allik;
 - jinsiylar tafovutlarga qarab kamshitish;
 - maxsus ehtiyojli bolalarning boshqalarga qaramaligi;
 - favqulodda vaziyatlar mojarolar qochoqlar;
 - kadrlar masalasidagi muammolar.
- Haqli savol tug'iladi, nima uchun maxsus ehtiyojli bolalarni inkluyuziv ta'limga tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etib, inkluyuziv ta'limga o'tishga qanday zaruviyat bor? Darhaqiqat, bu ta'limga tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'limga tiziminining nafsi jihatida ko'p bo'lib ular sirasiga quyidagilar kiradi:

“ inkluyuziv ta'limga qashshoqlik va ajratish iskanjasidan quotishiga imkon beradi;

“ inkluyuziv ta'limga maxsus ehtiyojli bolalaring o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishga imkon beradi;

“ inkluyuziv ta'limga barcha uchun ta'limga sifatini yaxshilaydi;

Umumta'limga muassasalarini sharoitida maxsus ehtiyojli bolallarga ta'limga turbiya berishning o'zigina samarali natija bermaydi. Buning uchun maktabda pedagoglar, defektologlar, psixologlar tomonidan do'stona munosabat muxitini yaratish lozim. Sintda do'stona bolalarning bir-birlariga nisbatan mehr-muhabbatlari bo'lislari, bir birlariga doimo yordam berishlariga zamin yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu esa korreksion-pedagogik ishlari samarali va osonroq kechishini ta'minlaydi.

Inkluyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'limga muassasalarida ta'limga olishlari uchun qo'shimcha moslashtirishning yaratilishini va shu yo'l bilan nogiron bolalar uchun quday shart-sharoitlarni talab qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning inkluyuziv ta'limga-tarbiyasini amalga oshirishga, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ishlarni samarali olib borish uchun maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar otamahoriga inkluyuziv ta'limga mohiyati, ahaniyati, ijtimoiy sauruligini tushuntirish ham mas'uliyatlari ishlar jumlasiga kiradi. zero, maxsus yordamga muhtoj bolalarning asosiy muammolarini ular o'zari yashab turgan muhitdan, oildan uzoqda ta'limga-tarbiya borish bilan hal qilib bo'lmaydi. Imkoniyatlari cheklangan jamiyat it'zolari sog'lon jamiyat a'zolari bilan teng huquq va imkoniyattarga qila bo'lmas ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish mushkul vazifa.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limga-tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan bishida. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xil inbablanga ko'ra ta'limga chetda qolmoqdalar. Inkluyuziv ta'limga jahb qilishning taskhiligi, ilmiy-usuliy massalalarini ko'rib chiqish,

mutaxassisini tayyorlash, matakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alovida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jaib qilishning ikki asosiy omili mavjud.

Birinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomonidan himoyalanaadihar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosida tarbiyalanadihar, nogiron bolalarga nisbatan sezgirroq bo'tadilar, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishni tabiiy hol deb biladilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonna-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligini his qiladilar va ijtimoiy hayotga osonroq va ertaroq moslasha boshlaydilar. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasida ota-onalar, pedagoglar, mutaxassislar, mahalla hamkorligida ish olib borishni talab qildi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga o'ziga xos tarzda joriy qilish uchun pedagogik, tashkiliy va usuliy ishlardan zarur. Maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim sharoitida o'qitilishi ularning o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshiari bir xil bo'lsa-da, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, idrok qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyoja ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga ta'sir qilish va qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'nga qo'ya olsa, nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatlari kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojanadi. Atoqli psixolog olim

L.S. Vigotskiy aytganidek: «Har qanday ruhiy yoki jismoni yuqonda ham taraqqiyot davom etadi».

Inklyuziv ta'limning joriy etiishi milliy, tashkiliy va uslubiy ijobotlarni talab etadi. «Umunta'lim» va «Maxsus ta'lim» o'tasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Inklyuziv ta'limda ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga tadbiq qilish murakkab bo'lib, ko'philik amaliyotchi olimlarning fikricha bu jarayon bir necha yo'naliishlarni o'z ichiga oлади.

Birinchidan, inklyuziv ta'lim jarayonida bolaning ishtiroki to'la huquqiy ta'minlanishi kerak. Bunga ta'lim muassasasi ma'suliyatlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, maxsus pedagogikaga oid adabiyotlar va indeqotarda inklyuziv ta'lim bilan bog'iq muammolar muhokamasini yoki metodik ishlarni rejalashturish va amalga oshirishda uni qadli fenomen shaklida ko'rib chiqish kerak. Chunki inklyuziv ta'lim rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonidagi barcha ijtirokchilarning fikriga asoslanib, doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, inklyuziv ta'limni ko'rib chiqishda ta'lim muassasalarini holatini yaxshilovchi inklyuziv madaniyatni hosil qilish, inklyuziv siyosatni rivojlantirish va inklyuziv amaliyotni kiritish yo'naliishlarni tahsil qilish kerak.

To'rtinchidan, inklyuziv ta'limning muammosi uning tashkil etishning turli shakllarini o'rganishda o'z aksini topadi va ijtirokchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy, sog'lig'i kabi turli xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik atamalar lug'atida "inklyuziv ta'lim o'quvchilarning imkoniyatları", individual-psixologik, jismoniy nuqson va ijtirokchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ma'sus ta'lim jarayonidir" deb ta'rif berilgan.

Inklyuziv ta'lim (inglizcha "inclusion - uyg'unlashgan, jalb qilingan") "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "barcha o'quvchilar uchun maxsus o'quv ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarining

xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlash" deb belgilangan.

Inklyuziv ta'lim haqida gapirganda, ta'lim ehtiyojarining turlituman yo'naliishlariga alohida urg'u berish zatur. Shu bilan birga, psixofiziologik rivojlanishida alohida xususiyatlarga va sog'lig'ning imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'qitishga alohida e'tibor va tadqiq etish lozim.

Yangi Zenlandiyadagi Vaykato Universiteti doktoranti Galina Namning ta'kidlashicha nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab internatlarda yoki uyda emas, balki umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerak.

Sog'lom va anomal bolalarda biliш faoliyatining rivojlanishini I.M.Solov'ev ham har tomonloma o'rgandi. "Normal va anomal bolalarda biliш faoliyatining psixologiyasi" nomli kitob shu ishning natijasi bo'idi.

I.M.Solov'ev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o'rganishda novatorlik ko'rsadi.

N.N.Malofeyev "Maxsus ta'lim g'oyasi past darajadagi odamlarga toqat qilmaydigan jamiyatda paydo bo'lishi mumkin emas" ekanligini ta'kidlaydi. Davlat va jamiyatning nogironlarga bo'lgan munosabati beshta bosqichga ajratiladi:

1. Nogironlarning yashash huquqini qo'iga kirigan davr.
2. Nogironlarning ijtimoiy himoya olgan davr.
3. Nogironlar tomonidan maxsus ta'lim olish huquqini olish davri.
4. Jismoniq va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga ta'lim olish huquqini kafolatlangan davr.

5. Teng huquqlardan teng imkoniyatlarga ega bo'lish davri. N.N.Malofeyev ta'kidlashicha, nogironligi mavjud bolalarning bolaligini to'laqonli o'tkazish, ya'ni tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'y Nash va zavqlanish, qarindoshlarining g'amxo'rliqi va diqqat-e'tiboridan foydalananish huquqiga ega.

Fuqarolik huquqlari uchun kurash, shuningdek, ijtimoiy islohotlar har bir bola o'zining individual imkoniyatlari va ta'lim

chityojarini hisobga olgan holda rivojlanish uchun qulay sharoit yaratishi keraktigini e'tirof etdi. Ta'limiy tamoyillar shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, unga ko'ra: har bir bolani biron bir ishni qila olmasligi, o'zlashtira olmasligi, o'rgana olmasligi nuqtai nazaridan emas, balki uning nima qila olishi nuqtai nazaridan tahlil qilish kerak. Bu turli mamlakattarning ta'lim sohalarida nagironligi bo'lmagan va nogironligi bor bolalarni birlgilikda o'qitish imaliyotining rivojlanishiga olib keldi.

Jamiyatning tarixiy rivojlanishi, odamlarning imkoniyatlari rivojlanishi ijtimoiy hamjamiyatda har bir a'zoning ta'lim olish huquqini belgilaydigan huquqiy hujatlarda mustahkamlandi.

Asosiy strategik yo'naliish - bu pedagogik shartlar bilan belgilanadigan ijtimoiy muammolarini muvaffaqiyatti hal etishdir. Ushbu yo'naliish inklyuziv ta'lim rivojlanishini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Maqsadga erishish vositasи sifatida qadriyatlarni paradigmaside o'qitish va tarbiyalashning asosiy maqsadi esa har bir bolani shaxsiy rivojlanishning asosiy maqsadi esa har bir anglashdir. Insanparvarlik yondashuvni umuman olganda muktabgacha va boshlang'ich ta'limda bolalar uchun ta'lim va turbiya jarayonining maqsadi va natijasi sifatida ijtimoiylashuv ijtimoiy rivojlanish g'oyasini amalga oshiradi.

Ijtimoiylashuv boshqariladigan tamaddun sifatida qaraladi, bu shaxsning ijtimoiy-madaniy faoliyatga jalb qilish to'g'risida shaxsning ijtimoiy-madaniy oshirib qadriyatlar tizimini qayta ishlab chiarish amalga oshiriladi.

Ijtimoiylashuvning mohiyatini tushunishda biz nomoyining mazmuni shaxsning ijtimoiy muhitga kirishi, umonidan ijtimoiy ta'sirlarni o'zlashtirilishi, uning ijtimoiy aloqalar tizimiga kirishidan iborat. Nogironligi bor bolalarni ijtimoiy modishishi ularning ijtimoiy makonga qo'shilishining asosi sifatida qonadi. Haqiqiy ijtimoiylashuv o'zaro aloqa sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Aynan shu turdag'i o'zaro aloqalar shaxsning

ijtimoiy tajribasini shakllantirishning mexanizmidir, ikkinchidан ijtimoiy jamoaning aloqalarini rivojlantirish shakli hisoblаниди.

Ijtimoiylashuv tadqiqotchilarining fikriga ko'ra ta'limga tegishlidir. Ijtimoiylashuv jarayoni har bir keyingi bosqichda oldingisiga asoslanadi va uning sifati oldingi ijtimoiylashuv muvaffaqiyati bilan belgilanadi. A.V.Petrovskiy fikricha ijtimoiylashuv uchta bosqichga ajratiladi: moslasuvchanlik, individuallik va integrativ. Bolalik davri birinchi bosqichga, ya'ni moslashish bosqichiga to'g'ri keladi. Bu vaqtida bolalar elementar normalar va qoidalarni, ijtimoiy rollarni, faoliyatning oddiy shakllarini o'zlashtiradi.

Inkluyuziv ta'limg ijtimoiy voqelik omili bo'lib, ijtimoiy xususiyatlarining to'liq to'iqliagini ifodalaydi. Inkluyuziv ta'limg turzlishi ijtimoiy fenomen sifatida quyidagi komponentlar bilan ifodalanadi:

1. *Inkluyuziv ta'limg qadriyatiligi* M. Rokich tomonidan taklif qilingan mezonlarga muvofiq, uni qadriyatlar-maqsadlar va qadriyatlar-vositalarga bo'lish mumkin. Inkluyuziv ta'limg qadriyatlari maqsadlariga quyidagilarni kiritish mumkin: qadr-qiymat qobiliyat va yutuqlariga bog'liq emas; his qilish va o'yash; har kim muloqot qilish va tinglash huquqiga ega; haqiqiy ta'limg faqat rivojlangan munosabatlar sharoitida amalga oshishi mumkin; turli tumanlik bolaning barcha qirralarini rivojlantiradi; har bir bolaning o'ziga xos qiziqishlari, qobiliyatları mavjud. Inkluyuziv ta'limg qadriyatli vositalari quyidagilar: taraqqiyotga erishish; nogironligi bo'lgan bolalar ta'limg olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak; din, madaniyat, qadriyat va madaniyat bolalarining birlgiligidagi ta'limi barcha o'quvchilarni ma'naviy jihadan boyitadi.

2. *Inkluyuziv ta'limg tamoyillari:*

inklyuziv ta'limg bosqichma-bosqich rivojlantirish; barcha bolalarning qadriyatlarini tan olish tamoyilli; o'quvchilarni ta'limg olish huquqini tan olish tamoyilli; jamoaviy ta'limg olish tamoyilli; inklyuziv ta'limg ishtirotchilarining ijtimoiy hankorlik va sheriklik tamoyili;

bilimni bola qobiliyatlariga qaratish; barcha bolalar uchun barcha resurslarning mayjudligini ta'minlash;

barcha ishtirotchilarini qo'llab-quvvatlanishi tamoyili; oilaga yo'naltirilgan yondashuv tamoyili; nogironlikning tibbiy modelini bekor qilish tamoyili; xilma-xillik va individuallik olish tamoyili.

Inkluyuziv ta'limg qadriyatlarini va tamoyillari yangi ijtimoiy me'yordar, xulq-atvor, kommunikativ munosabatlarning paydo bo'lishini belgilaydi.

3. *Inkluyuziv ta'limg subyektlari* me'yorda rivojlangan o'quvchilar, alohida ta'limg ehtiyojlarini bo'lgan bolalar, bolalarning ota-onalar yoki qonuniy vakillari, o'qituvchilar, psixologlar, ta'limg massasalari rahbarlari, nogironlarning jamoat tashkilotlari va uyushmalari va boshqalar.

4. *Inkluyuziv ta'limg ijtimoiy resurslari* o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va ota-onalar jamoasi.

Inkluyuziv ta'limgdan assiy maqsad ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va boshqalarini ta'minlash uchun mo'ljalangan. Ummumani olganda, inkluyuziv ta'limg asosiy funksiyasi quyidagicha:

ijtimoiy jarayonlarda ijtimoiy munosabatlarni birlashtirish va me'yortarimi shakllantirish, bag'rikenglikka, o'zaro hankorlikka moslangan ijtimoiy hamjamiyatning o'zaro kommunikativ aloqalarini muvofiqlashtirish - *tartibga solish funksiyasi*; sifatlari ta'limg teng huquqni ta'minlashtda shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish - shaxsning o'zini namoyon qilish istagi, o'ziga xos ijtimoiy sharoitda o'zini uzi shaxsiy ta'limg ehtiyojari, qobiliyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta'limg oluvchining shaxsiy salohiyatini ochib berish - *insomparvarlik funksiyasi*; madaniy qadriyatlar bilan tanishish - *umummadaniy funksiyasi*; madaniy qadriyatlar bilan tanishish - *umummadaniy funksiyasi*.

ijtimoiy tajribani uzatish, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish - ijtimoiylashirish funksiyasi;

ijtimoiy ahamiyatiga ega ta'lim natijasiga erishishda ta'lim oluvchilarning sa'y-harakatlarni birlashtirish - integrativ funksiya; akademik, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish - kasbiy funksiya.

Inkluyuziv ta'lim ijtimoiy jamiyat namunasi bo'llib, ijtimoiy fenomen sifatida quyidagi afzalliklarni yaratishi mumkin: hududga yaqin bo'lgan maktabda o'qish, muloqot qilish, jamiyatining bir qismiga aylanish imkoniyatining mavjudligi; ijtimoiy ta'lim sharoitida ijtimoiy moslashuvi uchun sharoit yaratish;

inklyuziv ta'lim berish orqali imkoniyati cheklangan bolalarda zaruriy kompetensiyalarini shakllantirish;

o'zaro muloqot imkoniyatlarini kengaytirish;

voyaga etgan bolalar jamoasida o'zaro hurmat munosabatlarni shakllantirish;

har bir o'quvchining axloqiy sifatlarini shakllantirish.

Inkluyuziv ta'limda ota-onalar quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- o'z hududiga yaqin joyda o'qitish;
- kechirish davrida qo'rquv va xavotirni minimallashtirish;
- hissiy quaylikni yaratish.

Umuman olganda inkluyuziv ta'lim modeli sifatida subyektlar o'rtaсидаги алоқаларинг барқарор компонентларини ривожлантирадиган маданий модельга аяланishi kerak. Bunday modelning asosini инсон individualligining xilma-xilligini qabul qilish hamda har bir инсон hayotining eng avvalo qadriyatları, унинг та'лим ва ijtimoiy jamoada qabul qilinish huquqiga bo'lgan bag'rikenglik tashkil qiladi. Bunday madaniy modelni shakllantirish murakkab jarayon bo'llib, ijobilijatijalarasi inkluyuziv ta'limni shakllantirishni nazzarda tutadi. Inkluyuziv ta'limda umummadaniy xulq-atvor namunalarni yaratish va rivojlantrish pedagogning kasbiy tayyorgarligiga uzviy bog'liq

bo'llib, asosiy maqsad olyi ta'lim muassasalarida ijtimoiy yo'nalish lababalarini klasterli ta'lim muhitida inkluyuziv tayyorgarligini rivojlantrishdan iborat.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Respublikamiz va hamdo'stlik mamlakatlarda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, ularni kasb-hunarga tayyorlash muammosiga qaratilgan maxsus pedagogika sohasida qanday va kimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan?

2. Buyuk Britaniyaning "Bolalarni qutqaring" jamg'armasi tomonidan nasr etilgan o'quv qo'llannmada inkluyuziv va integratsion tushunchalariga qanday ta'rif keltirilgan?

3. Inkluyuziv ta'lim tuzilishi komponentlarini aytинг.



II BOB. INKLUVIZ TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

2.1. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TOIFALARI

Bolalar bir-biriga o'xshamaydilar. Bir-biriga o'xshash bo'lgan bolaning o'zi mavjud emas. Bolalarning yoshlari bir xil bo'lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Ba'zi bolalar injiq, ba'zilar esa, aksincha xushchaqchaq, ba'zilari yaxshi kuylaydi, ba'zilari esa, aksincha ashula ayta olmaydilar. Bu ro'yxtav davom etaverishi mumkin.

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko'radi, eshitadi, bирор narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni his etadi.

Tevarak-atrofdagi borliqni bilish - sezish va idrok qilishdan ya'ni voqelikkagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, kattakichkligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangmi ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariiga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqildiq qilish qobiliyati rivojanlib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi - buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojanishlari uchun zarush shartdir. Sensor qobiliyatlarining o'z vaqtida rivojanishi esa bolalarning aqlli tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojanishi aqliy rivojanishining asosidir. Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojanishi boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birlinchi kunlaridan oq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitiganlari asosida borliqqa vil tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, katalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga boluning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati - boluning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojanlib borishi uchun zarus bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishhi tuni xil anomaliyalarga, ya ni jismoniy yoki ruhiy rivojanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

- eshitish kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
 - ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'riuvchi bolalar);
 - aqliy rivojanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
 - nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
 - harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
 - ruhiy rivojanishi sust bolalar;
 - mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
 - rivojanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
 - autizm sindromiga chalingan bolalar.
- Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojanlangan tengdoshlari orasida inkluziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvoifiq. Bolaning umumiy rivojanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlarga uni imkoniyati cheklangan bola deb hitoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qurog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojanishiga ti'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan hujjatu, u imkoniyati cheklangan bolalar tofasiga kirmaydi. Katta yordagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan

nuqsonlar ham ularning umumiyl rivojanishiga ta'sir etmasa, bu kishini imkoniyati cheklangan deb hisoblash mumkin emas.

Ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalar uchun mamlakatimizda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari-internatlari kuni ugraytilgan maktablarda tenglashshtirish sinflari tashkil etilgan. Ushbu masalalarda ta'lim umumta'lim oddiy bog'cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan muloyim davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotrasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olegan holda maxsus sharoitda, maxsus uchunlar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi.

Sog'iipi saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar ijtivayusi instituti xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatidan olganda sog'lom va yengil darajadagi aqli zaif bolalar o'rtasida oraliq o'rinda torodi. Bu olimlar tekshirish vaqtida yengil darajadagi aqli zaif va ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni herib ko'radir, shunda normal sog'lom bolalar berilgan vazifani lo'g'i tushunib, uni kerakli tartibda bajargan bo'lsalar, yengil dorajadagi aqli zaif bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani qisman tushunib, qisman bajarishadi. Demak, ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalar aqli zaif, yengil darajadagi aqli zaif bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va bularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mayjud bo'jadi. Ruhiy rivojanishi sustlashgan bolalarning o'zlashtirish qobiliyati sog'lom tengqurlariga nisbatan past bo'lsa- da, yengil darajadagi aqli zaif bolalarnikidan ancha doruet bo'lganligi uchun bunday bolalarni yordamchi makkabga yehorish noto'g'ri, chunki ushbu makkab dasturi ular uchun soddalik qiladi. Ommaviy maktab esa bola uchun zatur bo'lgan sharoitini

yaratib (maxsus sinf-tenglashtiruvchi sinf ohib) o'z dasturini o'zlashtirishini ta'minlash uchun maxsus yordam ko'rsatishi lozim.

Bog'cha tarbiyachilari va boshlang'ich maktab o'qituvchilari ruhiy rivojanishi sustashgan bolalarning maxsus sharoitida ta'limgarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o'z vaqtida aniqlab, boshqa bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim. Ruhiy rivojanishi sustashgan bolalar bilan inkluziv sharoit me'yorda rivojlangan, sog'lom tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasalarda davolab, himoya etish va ruhiy faoliyatni rostashi ko'zlab alohida ta'limgarbiya ishlari olib boriladi.

O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi alohida yordanga muhtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib, maktabni bitirgach, oly o'quv yurtlarida ham muvaffaqiyatlidir.

NUTQ NUQSONLARIGA EGA BO'LGAN BOLALAR

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos-so'z, padeo- tarbiyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) - pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rganish, shuningdek, bularning oldini olish, bortarini bartaraft etish uchun maxsus ta'limgarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tafbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Logopediya fani mavzu bahsi, nutq kamchiligi bor kishilar bilan olib boriladigan ta'limgarbiya jarayoni. Nutq kamchiligi bor kishi esa logopediya fanining o'r ganish mavzusi hisoblanadi.

Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenesini o'r ganish.
- Nutq kamchiliklarning sabablarini va simptomatikasi, ularning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, darajasini aniqlash.
- Nutq kamchiliklarning kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq-

atvori, ruhiy rivojanishiga ta'sirini o'rganish.

Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga eng bo'lgan bolalar nutqiy faoliyatining holati, yetishmoychiliklarni o'rganish, amiqlash.

Nutq kamchiliklarning aniqlash yo'llari, usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tafbiq etish.

Nutq kamchiliklarning oldini olish, bartaraf etish uchun, tashkiliy shakllarini belgilash, ishlab chiqish, takomillashtirish.

Logopedik ishni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediya fani anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya, otolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, pediatriya, higiyenika, psixolingvistikka, psixologiya va pedagogika fanlari bilan bog'liq, shular asosida rivojlanadi.

Logopediya korreksion pedagogika fani kabi, asab sistemining tuzilishi, rivojanishi faoliyati haqidagi nazarイヤaga bularning. Tabiiy fanlarni bilmay turib, nutq kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini, mexanizmi, bola psixikasiga ta'sirini aniqlab bo'lmaydi. Logoped nutq kamchiliklarning nevrologik asoslarini yoxshi bilishi kerak. Bu biimlar nutq kamchiliklarni bartaraft etish, ularni oldini olish, bolani to'g'ri tarbiyalash, unga bilim berish yo'llari va usullarini to'g'ri tanlashda logopedega yordam beradi.

Tabiiy fanlar haqidagi bilimlar to'g'ri logopedik xulosa chiqarish, nutq kamchiliklarning ularga o'xshash boshqa anomaliyalardan ajratish, bolalarni tegishli muassasalarga to'g'ri saralash imkonini beradi.

Logoped o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifani hal etishda tilshunoslik, lingvistik fanlarga, psixologiya va pedagogikaga soy'ymb ish ko'radi.

Tilshunoslik fani kishilarning eng muhim aloqa quroli bo'lgan nutqui ijtimoiy hodisa deb biladi. Nutqning asosiy tarkibiy qismi: leviush, so'z, so'z biriknasi va gap bir butun tizimni tashkil etib, ikki og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash uchun xizmat qiladi. Iltor bir logoped tilshunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini, fonetika va grammatikani, lug'at va stilistikani, orfografiya va punktuatsiyani

mukammal biliш bilan birga, ifodalı o'qiy olish va to'g'ri so'zlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Tabiiyki, logopedning o'zi imloni yaxshi bilmay turib, o'quvchilarga hech qachon savod malakasini singdira olmaydi, logoped uchun og'zaki va yozma nutq qobiliyati amaliy jihatdan juda muhimdir: logoped so'z vositasida fan xulosalarini izohlabgina qolmasdan, ayni vaqtida nutqida kamchiligi bo'lgan bolani tarbiyalaydi; tarbiyalanuvchilar yo'lini yoritadi ham.

Logopediya-korreksion pedagogika fanning bir sohasidir. Logoped ham boshqo fan o'qituvchilari kabi ta'lim va tarbiya shakllarining mohiyatini, maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini yaxshi egallab, ularni amalda qo'llay olishi kerak.

Logoped bolalarning psixologik qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Bolalarni o'z kuchiga ishonotirishi, mashg'ulotlarga havasini uyg'ota bilishi, material bayoni vaqtida ularning diqqatini to'la jalb qila olish, materialni esa saqlab qolish yo'llarining (mashq, ko'rgazmali qurollardan foydalananish, mustaqil ish, suhbat, grammatik o'yin kabi vositalarni) qo'llanishi o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Inson idrokining mazmuni, fikri, nutqi orqali shakllanadi. Bolalar logoped tushuntirgan materiallarni eshitib, yozganlarini ko'rib, kuzatib, mushohada yo'li bilan o'zlar fikr yuritadilar va berilayotgan bilim-malakalarni mustahkamlab o'zlashtirib boradilar.

Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bularning in'ikosi so'z shakliida ifodalananadi, til hodisalari vositasi namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirfangan buyum yoki voqealarni so'z yordamida nomlab, ularning mazmuni haqidagi taassurotlarni obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday hodisaniing miyada aks etishi va ongdan mustahkam o'mashib qolishida nutq yetakchi vositga hisoblanadi. Modomiki shunday ekan, nutq aloqa bog'lash jarayonida tafakkur kuragi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga aloqa jarayonida nutq - ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutq negizida paydo bo'ladi. Nutq kishi tafakkurining

el'vejlanish darajasini ham belgilab beradi. Nutqdagi kamchilik boluning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqo ruhiy jarayonlarning el'vejlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Og'ir nutqiy kamchiligi bo'lgan bolalarda intellektual kamchiliklar bo'lishi, yuzaga kelishi mumkin va aksincha, masalan, oligofren bolalar nutqida bir qator nutqiy kamchiliklar kuzatiladi. Logopedik amaliyotda nuqsonlarning birinchi va ikkilamchi ekanligini aniqlash niroyatda muhim. Logoped har bir bolaning ruhiy rivojanishini chuqur o'rganib nutq kamchiligi tufayli ruhiyatida paydo bo'lgan ikkilamchi asoratlarni ajratish kerak. Agar aql-idrok rivoji nutqiy kamchilik tufayli orquda qolgan bo'lsa, bunday bola nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha yoshdagagi bolalar bog'chusiga yuborilishi kerak. Bilish faoliyatining turg'un buzilishi natijasida bola nutqi rivojalannagan bo'lsa, bu bolani oligofren bolalar uchun tashkil etilgan maktabgacha yoshdagagi maxsus bolalar bog'chasiiga yuborish talab etiladi.

Ma'lumki, nutq murakkab funksional sistemani o'z ichiga oluvchi jarayondir. Bu sistemaning har bir tarkibiy qismi boshqqa qismi bilan mahkam bog'langan. R.Ye.Levina va shogirdlari L.S.Vigotskiyning nutq va tafakkur haqidagi ma'lumotiga asoslanib turib, nutqni uch tarkibiy qismiga bo'lib: fonetiko-fonematis, leksik va grammatik nuttqqa ajratib o'rganishni tavsija etadi. Ana shu uchta qism kishining yaxlit nutq sistemasini tashkil etadi. Nutqida kamchiligi bo'lmagan va kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq sistemasi har xil darajada rivojlanadi. Nutq sistemasining fonetiko-fonematis qismi tovushlar tilaffizi, ovoz, nutq maromi, sur'ati, ravonligidan, shuningdek idrok-qobiliyatidan tashkil topadi. Leksik va grammatik qismi tilning lug'at boyligi va grammatik qolishini o'z ichiga oladi. Nutq sistemasida leksik qism yetakchi o'nni egallaydi. Bola nutqida so'zlar soni kam, ya'ni nutqning leksik qismi rivojlanmagan bo'lsa, fonetiko-fonematis, grammatic qismundurda ham ma'lum kamchiliklar yuzaga keladi, butun nutq sistemasida yetishmovchiliklar kuzatiladi. Fonetiko-fonematis qismidagi kamchiliklar, masalan, tovushlarni noto'g'ri tilaffuz etish tufayli so'zlar leksikaning o'zgarishi, nutqning grammatik

tuzilishiga ta'sir etadi. Sistemalilik prinsipi nutq kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish, oldini olish yo'llari, usullarini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Logopediya fani barcha ishlarni kompleks yondashish asosida tashkil etishni tavsya qiladi. Kompleks yondashish-bolaga har tomonlama ta'sir ko'rsatishini ko'zlab ta'lim-tarbiya jarayonida ham pedagogik, ham psixologik, ham tibbiyot metodlarini ishlatsidir.

Rivojanish prinsipi nutq kamchiligining kelib chiqish yo'lini, uning rivojanishini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda kamchilikning kelib chiqish sabablarini rivojanish jarayonida qanday o'zgarishlar natijasi ekanligini ko'rsatish - asosiy vazifadir.

Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og 'ir ruhiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab bo'radi. Masalan, ayrim so'zlarning noto'g'ri talaftuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga, uni atrofdagilar bilan muomala qilishida qynab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'la anglata olmaydi. Nutq kamchiliklarning og'ir turlari (alaliya, rinolaliya, tutilib gapirish va boshqalar) maktab dasturini o'zlashtirishga, keyinchalik, kasb tanlashga, ba'zan umuman o'qishga to'sqinlik qiladi, biliш faoliyati rivojanishini susaytiradi, ba'zilarida intellektual yetishmoychiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, nutqdagi kamchiliklarni bosqqa ruhiy jarayonlar bilan bog'langan holda o'rganish principiga amal qilish niroyatda zarus.

Nutq kamchiliklari ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning birgalashib ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'radi. Logopedik ishning samaradorligi nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, turlarini to'g'ri aniqlashga bog'liqidir. Bu o'rinda ontogenetik, etiopatogenetik prinsiplarning ahamiyati katta.

Nutq kamchiliklarni o'rganish, aniqlash, ularni bartaraf etishda logoped barcha didaktik prinsiplarga tayangan holda ish tutadi. Logopedik ishni tashkil etishda, har qaysi bolaga xos xususiyatlarni hisobga olish, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish, ta'llimning o'quvchilarga xos bo'lishi, ta'lim va tarbiyaning birligi

principiga amal qilish, onglilik, faoliik va mustaqililik kabi prinsiplarning ahamiyati ayniqsa katta.

Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan cheqga chiqish deb ta'riflanadi. O.V.Pravdina o'zining «Logopediya» kitobida logopedik nutq nuqsonlarini quyidagicha karakterlagan:

Og'ir nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'igan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi.

Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. Nutqiy nuqsonlari bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi.

Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki unumiy rivojanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridaqgi ko'rsatilgan nutq nuqsonlari o'z xususiyatlari jihatidan bolalarda va katta yoshdagji kishitarda ba'zan vaqtinchada uehrab turadigan nutqiy kamchiliklardan farq qiladi. Yosh bolalarda keyinchalik o'zidan-o'zi to'g'rilanib, barham topib ketadi. Kattalarda esa bunday hodisalar asosan charchash, hayajonlanish, anabiyashish natijasida uehrab turadi. Ular ko'pincha o'z xatolarini nezib, bularni tuzatishga harakat qiladilar. Goho esa sezmasliklari ham mungkin. Lekin vaqt bilan bunday xatolar ham o'z-o'zidan to'g'rilanib ketadi. Nutqiy nuqsonlar ajnabiylarda, bosqqa millatli kishilarda ham kuzatilishi mumkin.

Ular tilni o'rganib borganlari sari, nutqdagi kamchiliklar bo'ham topib boraveradi.

Nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablariga ko'ra logopediya funida organik va funksional xillarga bo'linadi. Organik nutq nuqsonlari nutqiy analizatorning tuzilishidagi kamchiliklarga aloqador bo'lib, bu analizatorning qaysi bo'limida shikastlanganiga qurab markaziy yoki periferik turlarga bo'linadi. Funksional nutq nuqsonlari analizator tuzilishida o'zgarishlar kuzatilmaydi. Noto'g'ri tarbiya ota-onas, tarbiyachi yoki o'qituvchi nutqidagi kamchiliklarga taqlid etish natijasida yoki noo'r'in reflekslarning mustahkamlanib qolishi funksional nutq nuqsonlariga sabab bo'lishi mumkin. funksional nuqsonlar asab jarayonlari o'rtasidagi

muvozanatting buzilishi, analizator faoliyatidagi boshqa kamchiliklardan kelib chiqishi ham mumkin.

Nutq analizatori qaysi bo'limining o'zgarib qolganiga qarab funksional nutq nuqsonlari ham markaziy yoki periferik xarakterda bo'ladi.

Logopediya fani surdopedagogika va tiflopedagogikkalar ichidan ajralib, XIX asming ikkinchi yarmida tibbiy fanlarning alohida bir oqimi bo'lib vujudga keldi. Nutq nuqsonlarini asosan shifokorlar tuzatishar edi, biroq «davolash» ishlari yaxshi natija bermas edi.

Nutqiy kamchiliklarning ayrim belgilari nuqson sifatida o'rganilar edi. Nutq komponentlari, nutqning sistemali tuzilishi haqidagi ma'lumotlar o'sha davrlarda hali bo'lmaganligi tufayli, nutq kamchiliklarini o'rganish, aniqlash, bartaraf etish usullari ham noto'g'ri belgilangan. Asosan mexanik mashqlardan foydalananlar edi.

Hozirgi kunda logopediya fani pedagogik va psixologik, tibbiy, lingvistik fanlar asosida, shularga tayangan holda rivojlanib bormoqda. Bir qator tibbiy fanlarni chuqur o'rgangan maxsus mutaxassis pedagog (logoped) to'g'ri nutqni tarbiyalaydi.

Shifokor esa logopad bolaga anamnez tuzadi, uning diagnozini aniqlaydi, kerak bo'lsa dorilar bilan davolashni tavsiya etadi.

Logopedik analiyotda, eshitish organlaridagi kamchiliklar psixikasiga ta'sir etgan bolalar ko'p uchrab turadi. Bunday bolalarni eng avvalo otoloringolog tekshirib, ularga tibbiy xulosa chiqarmog'i lozim. Shundagina logoped bunday logopadlar bilan ishti to'g'ri olib borishi mumkin.

HARAKAT-TAYANCH A'ZOLARI DAN NUQSONI BOR

BOLALAR

Har qanday ota-onha o'z oilasida sog'lom farzandni, jismongan baquvvat, ruhan tezik, fikrlesh qobiliyati sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, har tomonlama barkamol bo'lishini istaydi.

Respublikamizda so'nggi paytlarda bolalarning sog'lom tug'ilishini ta'minlash, anomaliyalarning oldini olish hamda jahoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida talaygina ishlar olib borilmoga. Bu masalaning tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida, onaming homiladorlik davridan boshlab to bola voyaga yetgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va turbiyachilar, psixolog, defektologlar tomonidan nazorat qilinib, «Sog'lom avlod» dasturini to'g'ri amalgalashishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda, tashkil etilmoqda. Natijada, harakat-tayanch azolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga mukusus yordam ko'rsatilmoqda. Harakat-tayanch azolari jarohatlangan bolalarning ko'pehingiga nogironlar aravachalarini olib berilganligi sababli, ular bog'cha va maktablarga qatnay boshladilar. Harakat-tayanch azolari jarohatlangan bolalar cerebral falaji, poliomelit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch azolarning turli tug'ma va orttiligil deformatsiyasi-artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofya-tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya -mushak to'qimalarida modda almashinushi bilan bog'liq bo'lgan irliy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pehingida miya falaji kuzatiladi. Bolalar cerebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakklanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Ommung homiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolami kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumi y hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi. Kishi organizmining asosiy funksiyalari - nafas olish, qon aylanish, yuttunish, tana harakati, nutqiy harakatlari va boshqalar harakat

orqali - mushaklarning qisqarishi natijasida sodir etiladi. Harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladı. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan maxsus yordamning tashkil etilishini talab etdi.

Kasallikning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan harakat buzilishlari bolalar serebral falajida har xil namoyon bo'ladı. Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakkilari qayd qilingan: spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindrom. Bolalar miya falajining eng keng tarqalgan shakli spastik diplegiya. Bu shakldagi kasallik qo'l va oyoq harakattarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqa oyoq qo'lg'a nisbatan ko'proq jarohatlangan bo'ladı. Qo'l va oyoqlarning erkin harakatining chegaralaranishi yoki butunlay harakatsizlanishi mushaklarning kuchsizlanishi bilan birga kechadi. Bola qo'llarini tepaga ko'tarishga qiyonaladi yoki umuman ko'tara olmaydi, oldinga, chetiga uzata olmaydi, oyoqlarini bukolmaydi, yozolmaydi. Har qanday harakat sodir bo'lishi uchun mushak tonusi normal bo'lishi shart. Bolalar cerebal falajida mushak tonusi juda baland bo'ladı, natijada bola o'ziga xos holatni qabul qiladi: tizzadan bukilgan oyoq barmoqlarga tiraladi, tirsaklar bukilib, qo'llar tanaga yopishganday bo'ladı; qo'l barmoqlari bukilib, mushtlar hosil qiladi. Shartsiz majburiy harakat giperkinezlar shartli harakatlarni bajarilishini keskin qiyinlashtiradi yoki mutlaqo bajara olmasligiga olib keladi. Muvozanat harakatning buzilishi o'tirish, turish, yurishni qiyinlashtiradi yoki butunlay bajara olmaydigan holatga olib keladi. Kinesteziya - tana yoki tana qismlari harakatini sezish demakdir. Kinesteziya maxsus sezuuchi to'qimalar - proprioreceptorlar orqali sodir bo'ladı. Bu to'qimalar mushak, pay, bo'g'img'larda joylashgan bo'ladı. Ular oliv asab sistemasiga tana, qo'l, oyoqlarning holati haqidagi, mushaklarning qisqarishi haqidagi ma'lumot beradi.

Spastik diplegiya shaklidagi miya falaji bilan kasallangan bolalar intellekti, fikrlash qobiliyatini yaxshi rivojanmagan bo'ladı. Ular umuma'mim maktablari dasturini a'lo baholar bilan o'zlashtira olishlari mumkin. Biroq bunday bolalarning jismoniy va aqliy

tevjalishidagi o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari ular uchun maxsus yordamning tashkil etilishini talab etdi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun muktab yoshidagi bolalar uchun maxsus maktab-internatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim bolalar umumta lim ommaviy maktabgacha turbiya muassasalarida va maktabda integratsiyalashgan inkluziv ishlari korreksion yo'nalishda analga oshiriladi. Ko'proq harakat funksiyalarini korreksiyalashga e'tibor beriladi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan maxsus muassasalarda harakat funksiyasini korreksiyalash ishlari kompleks turza, ya'n'i bolaga har tomonlama ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunga tibbiy dori-darmonlar bilan davolash, fizioterapeutik, ortopedik, uqalash-massaj, davolovchi gimnastika, jumoniy tarbiya, mehnatga o'rnatish ishlari kiradi.

Tibbiy dori-darmonlar bilan davolash ishlari mushak tonusini pasaytirish, giperkinez-majburiy harakatlarni kamaytirish, asab sistemasiidagi kompensator jarayonining faoliyatini kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Fizioterapeutik muolajalar mushak tonusini pasaytirishga, mushaklardagi qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ortopedik tadbirlar harakat-tayanch a'zolari, bo'yin, gavda harakatini yaxshilash, kerak bo'lsa ortopedik moslamalardan to'ydalanishni, har bir bola shaxsiy ortopedik rejimga riyoq qilishga o'tqatishga qaratiladi.

Mushakdagi giperkinezlar bolalning nafaqat umumiy, balki nutqiy motorikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq apparatinining ham harakatlanishi (til, lab, jag', un psychalari, kichik til harakati buziladi) nutqning fonetik tomonidan buzilishiga, ya'n'i tovushlar ishrafuzidagi kamchiliklarga olib keladi. Mushaklardagi giperkinezlar dizartriya yoki anartriya kabi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladı. Diafragma, qovurg'a orasidagi mushaklar giperkinezni nutqiy nafas olishni, un psychalarning tebranishi, nutq maromining buzilishiga olib keladi.

Nisbatan ko'proq uchraydigan dizartriyaning psevdobulbar shakliida artikulatsion tonus baland bo'ladi. Lab, til, kichik til, pastki jag', un psychalari harakatchanligi buziladi va natijada tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq sur'ati nuqsonlari kuzatiladi. So'lak bezlari atrofidagi mushaklar qisqarmaganligi tufayli bola so'lagi oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yutolmaydi. Dizartrik bolaning nutqi noaniq, chuchmal, xirillagan, monoton bo'ladi. Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, correksiyalash ham shunchalik oson bo'ladi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat bilan olib borilgan logopedik ishlar natijasida yuqori ko'satikchilarga erishish mumkin.

Nutq apparatining intervatsiyasiga bevosita bog'liq bo'lgan kalla suyak asab tolalarining jarohatlari ko'p hollarda ko'z harakkati asab tolalarining jarohatlaniши bilan birga kuzatilgan ko'rinishda bo'ladi. Natijada bola g'ilay, ko'zi olaygan, ko'z harakkati buzilgan ko'rinishda bo'ladi. Bolalar o'z ko'z harakkatlarini bir maronda bajara olmaydilar, mo'jalg'a nigoh tashlay olmaydilar. Bunday kamchiliklar logopedik ishni to'g'ri olib borishga to'sqinlik qildi. Bola artikulatsion apparat a'zolari harakatini kuzata olmaydi, rasnga qarab ishlash, o'qish va yozishni o'zlashtirishda qiynaladi.

Mediko-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar inkluziv ta'lim olishga yoki maxsus maktabgacha yoshdag'i bolalar muassasasiga-maktab-internatlarga yuboriladi. Bu muassasalarga o'zлари yoki aravachada yura oladigan, o'zgalarning qaroviga muhtoj bo'lmasagan bolalar qabul qilinadi. Sog'liqlarini tikkagach tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan o'quvchilarni umum-ta'lim bog'cha yoki maktabiga o'tkaziladi. Maxsus maktab-internat pedagogik kengashi bitiruvchilariga ishga joylashish uchun tavsiyonoma beradi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar I-II guruhi nogironlari hisoblanib, ularni ishga joylashtirish ijtimoiy ta'minot bo'lmlariga topshiriladi.

(odatda bolaga) «autistlik» deb tashxis qo'yish mumkin. Bu xastalikning asosiy belgisi - bolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi; boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tortib, go'yo o'zining olamida yashayotgandek tuyuladi. Ba'zi autistik cheklanishlari bo'lgan odamlar bitta ma'lum sohaga (masalan, rassomchilik) qaratilgan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etadilar va boshqalar esa me'yoriy «normal» holatga tushib qoldilar. Shunga qaramay, butun olamda bu xastalikka haligacha davo topilgani yo'q. Autizm asab sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim olimlar fikricha, autizm ruhiy kasalliklarning belgilardan biri bo'lib, bunda bola tevarak-atrofga nisbatan befarq, beparvo bo'ladi. Natijada atrofdagilar bilan aloqada bo'imaydi, muloqot qilmaydi. Bola o'z-o'zi bilan bo'lib, o'zicha hayajonlanib, kuyinib, nimalardandir tashvishlanib o'z ichki dunyosida yashaydi. Ba'zi bolalarda emotsiyonal qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. Ular tushkunlikka tushishlari yoki bezovta bo'ishlari mumkin; yoki ularning xulq-atvori g'ayritabiyy bo'ladi, buni no'o'rin yig'lashlar yoki kulishlaridan bilish mumkin. Ular hiddan tashqari harakatchan bo'lib, ish vaqtining o'zida biror narsaga e'tiborini bir zumgina qaratib, yana boshqa narsa bilan chalg'ib ketishlari mumkin, yoki ular befarq, yoki parishonxotir bo'ishlari mumkin. Emotsional tushkunliklar yaqin orada bo'lib o'tgan jarohatlар, xafagarchilik yoki uzoq vaqt ongli ish bilan shug'ullanish natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Autizm atamasи birinchи bor shveysar psixiatri Eygen Bleyler tononidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilardan biri sifatida ishlataldi. Autizm holati shizofreniya kabi ruhiy kasallikda ko'proq namoyon bo'ladi. Bola vaqtini sezmaydi, hozirda ro'y berayotgan voqeа-hodisalarini o'tgan yoki kelasi zamон bilan almushitindi, real voqeа-hodisalarini fantastik mavhum voqeа-hodisalar bilan aralashirib yuboradi. Autizm holatida bola faoliyati muflashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug'ullanadi. Holaming xulq-atvori buziladi, o'yin faoliyati, qiziqishi sustlasha-di, mu'yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada

AUTIZM SINDROMI BO'LALAR

Autizm (grek tilida autos - o'zi) - bu atama 40 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin bazilaming bahslashib kelishicha, shaxsga

bo'lmaydi, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba'zilarda indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi.

1943-yilda ingлиз psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o'xshash belgilarni kuzatib, «ilk yoshdag'i bolalar autizmi» atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o'rganilmoqda. Shunga qaramay, ko'p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o'rganilgan edi. Faqtgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o'rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, bolalar autizmi irlsiy kasallik bo'lib hisoblansa, boshqalar esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar.

Amerikada 1996-2007-yillarda bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida ancha ko'p miqdorda hisobga olindi. Bolalarga - «sababi noaniq bo'lgan rivojlanishning og'ir buzilishi» diagnози qo'yilgan. Diagozni o'rganishda ko'proq bolaning xulq-atvoriga e'tibor beriladi. Autizmning birinchi belgilari bir yoshda paydo bo'ladi. Odatda sog'lom bola ilk yoshidan boshlab tevarak-atrofqa qiziqish bilan qaraydi. To'rt oylik bolaga shiqaldoq qo'liga tutilsa u xursand bo'ladi, onasini ko'rsa talpinadi va h.k. Bola autizmida esa go'dak atrofdagilarga e'tibor bermaydi, hech narsaga qiziqmaydi, yangi buyumlarni o'rganishni istamaydi, kattalarga ham talpinmaydi. Bunday bolalarning ijtimoiy moslashuviga muloqotida turli muammolar paydo bo'ladi.

Autizmning asosiy belgilari bir yoshdan to'uch yoshgacha davrda to'liq namoyon bo'ladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e'tiborli bo'lishlari kerak:

- bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqitirmaslik (qo'liga olishi, quchoqlashishi, o'pishi, silashi va h.k.);
- uch yashar bola nutqining rivojlanmaganligi;
- biron-bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishini

yоqirishi; ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar; tevarak-atrof bilan aloqada bo'lishni istamasligi, qiziqmaslik. Odatda, bola nutqi hali rivojlanmagan bo'lsa ham, u o'z istak-xohishlarini imo-ishora, harakat bilan bildiradi. Bola autizmida esa bu kuzatilmaydi;

bola ko'zingiza qaramaydi; bolaning harakatlari, imo-ishoralarini bildirmaydi, asabiylashganini ko'rsatadi; bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodelayotganidek gapiradi. Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya-kimnidir ketidan qaytarish qobiliyatni yaxshi bo'ladi;

odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovoza, hid, ta'm, ushlab ko'rishlarga), masalan, ovozdan qattiq qo'rqiб tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k.

Autizm bolada har xil darajada namoyon bo'lishi mumkin. Maktabga yangi kelgan bolalarda autizmga o'xshash belgilarni paydo bo'lishi mumkin, chunki bola yangi muhit, yangi sharoitga, yangi odumlarga hali o'rgannagan bo'ladi. Og'ir darajadagi autizmida aqli zaiflik belgilari kuzatiladi.

Autizmning yengil holatida tarbiyachi bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil etishi muhim. Bolaning faoliyatini uyg'unlashtirish, jurnihdag'i bolalar bilan yaqinlashtirish, psixoterapevtik tushuntirish ishlarini izchillik bilan olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini o'tkazishi zarur. Itлага haddan tashqari ko'p e'tibor bermaslik. Bola oifada o'zini hamma qatori his etishimi ta'minlash. Bolaga qo'lijdan keladigan ishlarni buyurish va bajargan ishlini maqtab qo'yish, bolani qo'llab-quvvatlash. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bola uchun qolay sharoit yaratib berib, unga yaxshi muomalada bo'lgan holda uning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishga yordam berishlari lozim.

Autizmning og'ir holatlarida bola shifokor nazoratida doridamnonlar bilan davolanishi maqsadga muvofiqdir.

Mustahkamlash uchun savol va topshirqlar:

1. Imkoniyati cheklangan bolalar qanday toifalari mayjud?
 2. Eshitishev va ko'rishida nuqsoni bor bolalar haqidagi ma'lumot bering.
 3. Autizm sindromi nima?
 4. Harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bor bolalar haqidagi ma'lumot bering.

2.2. INKLYUZIV TA'LIMGA QAMIRAB OLNUVCHI BOULAB

Inkluyuziv ta'lim - Aqliy va jismony rivojanishlarida muammolari bo'lgan bolalarni umuma'tim jarayoniga olib kirish ma'nosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta'lim olishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta'limlari ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni u yoki bu jihatdan rivojanishlarida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ular o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan quronlanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdag'i ta'lim ikki tomonlama ijobiy xisatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minansa, sog'lom bolalarning rivojanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inkluyuziv maktablardan - inkluyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Kimlarni inkluyuziv ta'lim bilan qamrab olish lozim?

Burcha bolalarni. Bizzning modelimizda esa, barcha bolalarni, o'ta qyinchilik kuzatilmasa hamda atrofdagiarga o'ta halal bermasa. Hozirgi sharoitimizda eng avval yengiroq muammolarga ega bo'lgan bolalar – zaif ko'ruchchi, zaif eshituvchi, yengil darajadagi aqli zaif – debil bolalar, tayanch-harakat tizimida (chuqur buzhishlari kuzatilmaydigan serebral fatajilgi bo'lgan) muammolari bo'lgan bolalar jalg qilishdan boshanishi maqsadga muvofiq.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-sod inkiyuziv ta'limdi tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarda jismoniy, aqiliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (ahohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inkiyuziv ta'limdi tashkil etish tartibi belgilab berilgan. Shuningdek, inkiyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi atohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqlı va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklidá tashkil etilgan sinf ekanligi e'tirof etilgan.

Mazkur Nizom o'quvchilarni inkiyuziv ta'lim sinflariga va bosqlang'ich tayanch korrekcion sinflarga qabul qilish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni inkiyuziv ta'lim sinflari va bosqlang'ich tayanch korrekcion sinflarga qabul qilish hamda cheqarish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inkiyuziv ta'lim sinflari va bosqlang'ich tayanch korrekcion sinflarga qabul qilinishiha asos hisoblanadi.

O'quvchilarni inkiyuziv ta'lim sinflariga va bosqlang'ich tayanch korrekcion sinflarga qabul qilish o'quv yili bosqlanguncha hamda o'quv yili davomida amalgalari direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Inkiyuziv ta'lim sinflari va bosqlang'ich tayanch korrekcion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning

o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy huijatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy huijatlar yig'majildida quyidagi huijatlar bo'ladi:

ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

psixologik-tibbiy-pedagogik

komissiya



xulosaci;

ta'lim o'ganligi to'g'risidagi huijatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'qish joyidan ta'limming muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tablibi aks ettirilgan ma'lumotnomha va tafsifoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

Inkluyuziv ta'lim sinflari va bosqlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi **toifadagi bolalar qabul qilinadi**:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'Imagan bolalar);

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'Imagan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomielit, miopatiya, osteomielit, amputatsiya, bo'y o'sishining etishmovchiligi - pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar (cerebral falaj);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar; hulq-atvori va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolningan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda). Maktab ushbu toifadagi bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga huqqi emas.

Quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinmaydi: aqli o'ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya); xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodavyiy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;

ko'r-kar-soqov bolalar; tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtarda tutqanog'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;

markaziy asab tizimiga shikast etganligi tufayli siyidik va ujasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Inkluziv maktablardan – inkluyuziv jamiyat sari» shiori haqida ma'lumot bering.
2. Kimlarni inkluyuziv ta'lim bilan qamrab olish lozim?
3. Maktab qaysi toifadagi bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas?



2.3. INKLUVIZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida”gi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta'lim ehtiyojlar bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi qarori, 2017-yil 27-iyuldagli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g'risida” qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta'lim ehtiyojlar bo‘lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatarni tasdiqlash to‘g'risida”gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu hujjatlar asosida O'zbekistonda maxsus pedagogika va inkluyuziv ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dolzarb muammolini, erishilgan yutuqlar va qo'yilgan vazifalarni bajarish, inkluyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlar bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish kabi ishlar olib borilmoqda.

Yaqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarish va amaliyotga inadbiq etishda inkluyuziv ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarning o'mi katta bo'lib, quyida ularning vazifa funksiyalari hatatfoll yoritib berildi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi.

Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inkluyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inkluyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. **Inkluyuziv sinf o'qituvchisi** umumiy o'rta ta'lim muassasa Nizomida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

“tarbiyalanuvchilarning jismoniylar va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarni olib boradi; -bolalarning faoliyimi, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

“diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

“O'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlanitiradi.

Inkluyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rinn egallaydi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektolgar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boradigan mashq'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani olaada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonunyu vakillarga metodik yordam ko'ssatadi, kerakli ish hujjatlarni yuritadi.

Inkluyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta **psixolog** faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyatni har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchiklarini bartaraf etish

va korreksiyalashga qaratildi. Muassasa psixologgi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oileda tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrımlari ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi **shifokor-pediatri** (psixoneurolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zaturat bo'lganda davolash muolajalarini tavsya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoni yuqlamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Inklyuziv ta'limda resurs pedagog va uning vazifalari

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqta sindan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birlgilikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi. Maktablararo qatnab yuruvchi resurs nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llannalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiyalar topish, ota-onalarni maktabga yordam berrishga jabb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lon bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'matish, maxsus resurs qo'llannalarini ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilarini va maktab

ma'muryatiqa maslahatlar berish, shuningdek, maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, xatto nogiron bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turadi.

Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad: umumta'lim

muassasalarda ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojaridan kelib chiqqan holda montazam ravishda ular bilan uchrashish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalaridan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash;
- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlarini qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish;
- sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalarini bilan omishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish;
- montazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash;
- maktab jamoasining boshqaruvi xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;
- zaturat tug'ilsa, o'quvchilarini boshqa yordam ko'rsatuvchi uyusishmangarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokortlarga);
- o'kituvchilar hamda o'kuvchilar bilan individual ravishda ollo boriladigan faoliyatami qayd etib borish;
- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;
- o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarini yangilash va baholash.

- mayjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujatlashirish va ular ro'yxatini tuzish.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarining maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablarga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;
- Sinf o'qituvchisi bilan birlgilikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;
- O'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish;
- Bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;
- Yangi kelgan o'qituvchilarining ehtiyojlarinani qlash va qondirish;
- Maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarining moslashishiga yordam berish;
- Zarurat tug'ilganda sindan tashqarida individual va guruhlarga asoslangan ko'rsatmalarini berish;
- Individual dasturlarni muvaffaqiyatli bo'lishini boshqarish;
- Maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;
- Maxsus yordamchini vositalar va qo'llannmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish;
- Inkluyuziv ta'limi rivojlantirishni qo'llab – quvvatlash kabi masalalardan iborat bo'ladi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko'p vaqtini yo'lda samarasiz sarflamastigi juda muhimdir. Resurs o'qituvchi nogiron bolalarning darslaridagi qiyinchiliklarni va ehtiyojarini muhokama qiladi. Vaqt vaqt bilan u joylarda olib borilayotgan o'qituvchilar treningida nogironlik muammosi bo'yicha maslahat va ko'rsatmalar berib

boradi. Masalan, nogiron bolaning nuqson xususiyatlarini, dorejalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o'qitanish bo'yicha metodik tavsiyalar berish kabi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida o'qitish, tarbiyalash jarayonida pedagog va ota-onalarga muallhat beruvchi resurs markazlarning roli ham muhim shahriyatga ega.

Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy ishechi vazifalari:

Oimlar me'yordagi (sog'lom) va anomal (nosog'lom) bolalar rivojanishining qiyosiy tahili bilan shug'ullanuvchi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida biron-bir organ yoki butun organizmning sog'lom yoki nosog'lom rivojanishiga qaramasdan ular, bir xilda faoliyat ko'rsatadi, hayotiy faoliyatga oid qonunlar asosan o'zgarmaydi, normal va anomal rivojanayotgan bolalarning rivojanishini umumiyl qonuniyatlar boshqaradi, degan umumiyl qonularni aniqladilar. Qiyosiy psixologiyaning vazifasi bolaning me'yordagi va anomal rivojanishining ta'iflariga muvofiq holda bola rivojanishi haqidagi sohani qamrab olgan umumiyl qonunlarni topishdan iborat. Bola rivojanishi haqidagi qiyosiy tadqiqotning nosini sog'lom va patologik holatlarda ham rivojanish bir xil, umumiyl qonunlar asosida kechishini e'tirof etish tashkil etadi. Hizoq, bu ayniyatlar har bir muayyan holatda o'zining har xil ifodesini topadi. Sog'lom rivojanish holatlarida ushbu qonuniyatlar bir xil shart-sharoitlar majmuasida amalga oshadi. O'rganilayotgan, diqqatimiz markazidagi atipik, me'yordan chetga chiquvchi rivojanishda namoyon bo'lgan holatlarda, aynan o'sha qonuniyatlar, muttaqo boshqaca shart-sharoitlar majmuasida amalga oshib, bolalarning tipik rivojanishi qotib qolgan ko'rinishda emas, bolki, o'ziga xos, spetsifik ifodaga ega bo'лади. Shu sababdan ham, qiyosiy tahsil, qiyosiy tadqiqot o'zining diqqat markazida doimo ikkita vazifani e'tiborga olishi zarur: umumiyl qonuniyatlarini aniqlash, hamda har bir bola rivojanishda o'ziga xoslikni inobatga

olgan holda o'ziga xos ifodasini topish. Shu sababli, avvalo, bola rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda, bolaning anomal (nosog'lom) rivojlanishidagi o'ziga xosligi o'rganilib, jamoani va atrofdagi muhitni anomal bola rivojlanishing omili sifatida ko'rib chiqish va shu yo'l bilan tadqiqotni amalga oshirish zarur.

Ushbu olimning sensomotor tarbiya nazarriyasi va amaliyotida,

ayrim his-tuyg'u va harakatlarni, ayrim elementar (sodda) jarayonlarni mashq qildirish (trenirovka) va tarbiyalashda yorqin ifodasini topgan edi. Aqliy qoloq bolani fikrashga emas, balki hidarni, ranglarni, tovushlarni va h.k. farqlashga o'rgatishardi. Nafaqat sensomotor madaniyat, balki anomal bolaning butun tarbiyasiga elementarnarsalarga tenglashtirish singdirilgan edi. A.R. Luriyaning ushbu sahifalarda o'z ifodasini topgan qarashlari bizni zamonaviy pedologiyada mavjud qoloqlik va iste'dod kabi muhim masalaga o'z munosabatimizni qayta ko'rib chiqishga maibur qiladi. Haqiqatda esa psixologik adabiyotlarda bunday qayta ko'rib chiqish ancha oldin boshlangan bo'lib, ushbu zamonaviy qarashlar biz uchun odatiy bo'lgan, ko'p uchraydigan qoloqlikka nisbatan fikrlar bilan o'xshashligi juda kam. Odatda aqlan zaif bola haqida primitiv tasavvur va fikr tarqalgan. Aqli zaif - demak axmoq, (aniqrog'i debil-imbetsil-idiot) - butun ruhiyati juda buzilgan, rivojlanmagan na zarur xotiraga, na yetaricha idrokka, na yetaricha aql - farosatga ega bo'lmagan shaxs.

Qoloq - bu tug'ma ruhiy kambag'al.

Ammo aniq tadqiqotlar ushbu qarashni umuman tasdiqlamadi.

Haqiqatdan ham, qoloq bola o'z yoshidagi sog'lom (normal) boladan har tomonlama past turishi to'g'rimi?

Raqamlarga murojaat qilamiz. Bir nemis muallifi turli darajadagi qoloq bolalarning ko'rish kobiliyatini batafsil o'rganib chiqdi. Natijalar juda qiziqarli chiqdi: idiotlar eng zo'r ko'rish qobiliyatiga ega ekanslar.

Qiziq va bir mucha kutilmagan xulosa kelib chiqadi: aqliy qoloq bolalarda barcha psixofiziologik funksiyalar pasayishiga duch kelamiz, deb kutgan edik - lekin, ularning asosiy tabiiy negizi - *me'yordan* pasda emas, ba'zi joylarda xatto yuqori turishi aniq bo'ldi. Bizlarni bundan keyingi qoloq bolalar psixikasi tadqiqotlarida ham shunday tasodiflar kutmoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qaysi qadimiy yozma manbalarda nogironligi bor bolalar haqida ma'lumotlar keltirilgan?
2. Nogiron bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida qaysi sharq mutafakkirlari qanday fikr bildirganlar?
3. L.S. Vigotskiyning anomal bolalar haqidagi ta'limoti haqida gapiring.



III. BOB INKLÝUZIV TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH

3.1. PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA HAQQIDA

Bugungi kunda sifatlari ta'limgan xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'limgan o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'limgan standartlari me'yordagi inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'limgan sog'iqliqi saqlash va mahalla tashkilotlarning imkoniyati cheklangan bolalarni sifatlari ta'limgan xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatlari hamkorligi talab etildi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida metodik mahorat, psixologik bilimlar, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkil etishga omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inkluyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talabarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Inkluyuziv ta'limgan sifaga zamonaviy texnologiyalar orqali osjn va qulay erishiladi.

Inkluyuziv ta'limgan tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inkluyuziv ta'limgan nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadi, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'limgan extiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi.

Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishiда nuqsonlari bo'lgan bolalar sıftatlari ta'limgan olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inkluyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha namlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Inkluyuziv ta'limgan muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'limgan ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sıftatlari ta'limgan shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inkluyuziv ta'limgan rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillar va yo'nalishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy ta'limgan dasturning muvafqaqiyatlari o'zlashtirilishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tashlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanash, natijalarni sıftatlari baholashtirsha yondashish talab qilinadi Inkluyuziv ta'limgan tizimida o'quvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'grisidagi bilmlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojiga ega bolalarni o'quvchish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Shu munosabat bilan o'quvchining psixologik bilimlari va pedagogik vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida muhim rol o'ynaydi.

Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qoshilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Hunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtiroychilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishiда nuqsoni bo'lgan kuchliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Inkluyuziv ta'limgan ishlash uchun o'quvchilarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish usullariga ega bolish;
- bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati;
- jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limgan uchun psixologikkpedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislardan o'zaro aloqada bo'lish;

Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdag'i sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'grisida daslabki ma'lumotlarni toplash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga hizmat qiladi.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanim, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlarini qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishlariga qaratilgan.

Pedagog-olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimida:

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz?

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?

- degansavolga ham javob qidirdilar. Natijada o'quv jarayonini *texnologiyalashirishga*, ya'nii o'qitishni ishlab chiqarishdagi kabi aniq natija beradigan texnologik jarayonga aylanturishga erishish mumkin-degan fikr yuzaga keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi *pedagogika fanida pedagogik texnologiya yo'nalishini* yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi qo'yidagilardir:

Birinchidan, ta'lim siyosatida rivojlantruvchi ta'limni amalga osbirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unga pedagogik texnologiyalardan foydalanishsiz, ya'nii shaxsni rivojlantruvchi ta'limni amalga osbirishsiz erishilmaydi.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga umumli fioliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjimi oldindan loyihalashirib olishga undaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki muslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, o'quvchidan ko'proq mustaqil ishlash, ijod qilish va iroda kabi shifotlarni talab etadi.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarni bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi zamон ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, oldindan puxta loyihalashirilgan dars, albatta, o'quvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shunindek ijobjiy natjaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobjiy hal etishga xizmat qiladi.

Texnologiya (yunon. "techne" – mahorat, san'at, "logos" – tushunchcha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqitsodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi.

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'nii, avvaldan loyihalashirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, uniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar (uzmini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish).

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlammasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lif texnologiyasi imkoniyati cheklangan bolalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u imkoniyati cheklangan bolalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallарини mustaqil o'zlashtirishlari uchun ziarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lif texnologiyasining markaziy muammoasi – ta'lif oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lif maqsadiga erishishi ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiq qilinidigan muayyan o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi"¹³.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jumardan asoslangan shanda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimi ifodalandaydi.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada ta'lifning shunday modellari yaratildiki, ular ta'limga texnologik jarayon sifatida yondashilib, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan maqsadlariga erishishni kafolatlaydi va keng imkoniyatlar beradi. Pedagogik innovatsiyalashuvni ta'lifning ilmiy bilimlar, metodologiyalarini jamiyat rivojlanishi, ta'limga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablarini darajasiga bog'iqliq holda moslashuvchanligi deb talqin etish mumkin. Ta'lifni texnologiyalashirishning asosini ta'lif jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'lif oluvchilarni berilgan

sharoitlarda, ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv nutijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Pedagogik texnologiya – ta'lif usuli, ma'lum ma'noda ta'lif-tarbiya jarayonlari, vositlari, shakl va usullari majmuyi. Ta'lif va tarbiya jarayonini optimal tashkil etish hamdir. O'quv materiallарини tanlash, qayta ishlab, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariiga mostab shakl hujumi o'zgartirish ham ta'lif texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya ta'lif-tarbiyaning obyektiv qonuniyatları, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lif-tarbiyaning mazmuni, usul va vostilarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimi: fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiridigan o'quv jarayonidir.

V.P.Bespalko pedagogik texnologiyaning quyidagi ta'rifi keltiradi: "Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'iqliq bo'lmagan holda pedagogik muwaffaqiyatni kafolatlaydigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir".

Pedagogika lug'atida pedagogik texnologiya tushunchasi mustahkam o'rın egalladi. Biroq uni tushunish va qo'llashda turli tariqlar mavjud:

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini realizatsiyalashning mazmuniy teknikasi (V.P.Bespalko)¹⁴.

Pedagogik texnologiya – ta'lifning rejalashtirilayotgan natijalariga erishish jarayoni tavsifi (V.P.Volkov);

Pedagogik texnologiya – shubhaisiz, o'quvchi va o'qituvchi uchun qulay sharoit ta'minlangan, o'quv jarayonini loyihalash, tushkil qilish va o'tkazish bo'yicha birgalikdagi pedagogik faoliyatning barcha detailari hisobga olingan modeli (V.M.Moxamov);

Pedagogik texnologiya – texnika va inson resurslarini hisobga olin, o'z oldiga ta'lif shakllarini optimallaştirish vazifasini qo'yadigan o'qitish va bilim o'zlashtirishning butun jarayonini qo'llash va belgilash, yaratishning sistemali metodi (YUNESKO).

¹³Бешталико В.П. Снагаемое педагогической технологией. – М.: Педагогика, 1989.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va o'quvchilar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida "oddiy" pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi. O'qituvchi-o'quvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiborlariga quyidagi jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir: Videotahlil ham zamona viy ta'limda so'nggi yillarda tobora onmalashib borayotgan metodlardan biri bo'lib, u mavzu bo'yichao'quv materialining o'quvchilar tomonidan obrazli o'rganiishiga yordam beradi. Muayyan nazariy yoki amaliy ma'lumotlar videotasvir yordamida o'quvchilarga yekazilish beriladi. Ta'lim analiyotida videotahlii sifatida o'quv ko'rsatuvlari, slaytdar, diafilmardan samarali foydalananish tajribasi mavjud. Mazkur metoddan foydalananish uchun ma'lum texnik vositalar, chunonchi, videokamera hamda tasvirni ekrange uzatish qurilmalarining mavjud bo'lishi talab etiladi, shuningdek, mashq'ulot tashkil etilayotgan xona ma'lum darajada jihozlanishi (masalan, xonada yorug'likni kamaytirish imkonini beruvchi moslamalar bo'lishi) lozim. Video tasvir yordamida o'quvchilarga o'quv materialini yetkazib berishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarilikka, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi qobiliyatlariga ega bo'lishigina emas, shu bilan birga texnik vositalar bilan ishlay olish ko'nikmalariga egaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi¹. Rivojanishida nuqsoni bo'igan bolalarni o'qitish jarayonida korreksion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga oid bilmlarni egallashga, inklyuziv ta'lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlik bilan yondashish, mulhazalar zanjirini mantiqiy qura olish, qiziqarli materialni tanlash, o'rganilayotgan obyektlarning xossalarni isbotlash bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni shakkllantirishga, o'z bilim va malakalarini mustaqil to'ldirib borish ko'nikmalarini rivojlantrishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ijobiy samara beradi. Inklyuziv ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida bolalarni o'quv imkoniyatlari – bunda tahsil

oluvchilarning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlar, o'z – o'zini boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish lozim. Inklyuziv ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga binoan ta'lim metodlarini tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o'quv jarayonlarini to'liq hovylashshtirish orqali tashkil etiladi va berilgan o'quv materiallari mazmuni ular ongiga tez, oson singdirilishiha hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi. Rivojanishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsiy sifatlar shakllanishida, nutqiy rivojlanishning va nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olundagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O'yin bolalarning tabiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish, ularni analiyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashq'ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashq'ulotga qoraganda, o'yinga tez intilladi va qiziqadi. Rollarga asoslangan o'yin ta'lim usuli sifatida bolalarni yushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllanmiradi. Rolli o'yinlar bolaning erkin fikrashi, suhbattoshiga nimanidir aytishi, no'rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan furoqi ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan bolalarning asosiy dicqatini suhab nuzmuniqa qaratadi. Bolalar o'yin jarayonida suhbatti boshlash, suhbattoshi nutqini anglash, savollar berish, savollarga javob berish kabi malfakarni egallaydilar. Rolli o'yin bolalar guruhni tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo'lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. Bola o'yin jarayonida ikkilanchi durajali rollarda ishtirot etishi mumkin, bosh rolda emas. Bu holda rolli – o'yin ta'limning an'anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqoda yo'i qo'yigan kamchiliklarni o'yin jarayonida emas,

balki undan keyin muhokama qilish maqsada muvoqifdir. Bolalar nutqini rivojantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bolalarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so'z boyligini oshirish va tafakkurini rivojantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Bolalarga individual yondashib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o'strishni ta'minlaydi¹⁵.

SHAXSGA YO'NALTRIRILTIRILGAN TA'LIM

TEKNOLOGIYALARI

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga texnologiyalarining turlari. Globallashuv sharoitida ta'limga shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisiga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Bugungi tezkor davr imkoniyati cheklangan bolalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shartsharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitida ta'limga jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojantirish, ijtimoiylashtirish unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilimoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarini namoyon eta o'lgan ta'limga shaxsga yo'naltirilgan ta'limga deb nomlandidi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga – imkoniyati cheklangan bolaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga o'lgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojantirishga yo'naltirilgan ta'limga Bu ta'limga o'qitish muhitining imkoniyati cheklangan bola imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'limga muhit, pedagogik shart-sharoitlar, ta'limga hamda tarbiya jarayonini to'lagicha imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojantirish, shaxs sifatida

kamolotga etishimi ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'ziga xos jihatni ta'limga undovchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojantirish uchun quhiy, zarur muhitni yaratishdan iborat Bu turdagiga ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi siyofat, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagiga ta'limga tashkil etishda pedagoglardan har bir imkoniyati cheklangan bola imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'qitish jarayonining ishtiroychilari pedagog-imkoniyati cheklangan bola yoki imkoniyati cheklangan bola-imkoniyati cheklangan bolalar guruhi, imkoniyati cheklangan bola-imkoniyati cheklangan bolalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog inklyuziv ta'limga jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limga turtaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rivoja etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- har bir imkoniyati cheklangan bolani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- imkoniyati cheklangan bolani hurmat qilishi;
- imkoniyati cheklangan bolaning ruhiy holatini to'g'ri bisholuy olishi;
- imkoniyati cheklangan bolaning xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir imkoniyati cheklangan bolaga tolerant munosabata bo'lishi;
- imkoniyati cheklangan bolaning kuchi, imkoniyati va intishlariga ishonch bildirishi;
- har bir imkoniyati cheklangan bola uchun qulay ta'limga mohitini yaratishi;

¹⁵ Бекташев П. Педагогика прогрессивных технологий обучения. – М.: ИРНО, 1996.

- imkoniyati cheklangan bolalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
 - imkoniyati cheklangan bolalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qiliш, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'regatish;
 - ta'lim jarayonida hech bir imkoniyati cheklangan bolaga tazyiq o'tkazmaslik;
 - alohida imkoniyati cheklangan bolaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
 - bordi-yu, imkoniyati cheklangan bola tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
 - aniqlangan sabablar assosida imkoniyati cheklangan bolaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
 - ta'lim jarayonida har bir imkoniyati cheklangan bola uchun "muvaffaqiyat muhit"ni yarata olish;
 - har bir imkoniyati cheklangan bolaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
 - imkoniyati cheklangan bolaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyati cheklangan bolani ta'lim tizimiga - pedagog sifatida har bir imkoniyati cheklangan bolaning hurmati va ishonchini qozona olishi moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olsinga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun sharoitni vujudga ketirishi zarur. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalar o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni noshash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimi topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladи.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga bolalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.

Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik subbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv usborolarining imkoniyati cheklangan bolalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, iforashtiga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Inkluziv ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqudi foydalananish;
- o'quv topshirqlarini bajarishda imkoniyatti cheklangan bolalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- imkoniyati cheklangan bolani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qiyatlishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilayi, samaradorligini oshiradi.

Eng muhimmi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat isborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan musala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan imkoniyati cheklangan bolalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-

da, fikr bilishlariiga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'лади:

- insonparvarlik - yani insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rashdan to'la voz kechish;
- hamkorlik - yani pedagog va imkoniyati cheklangan bolalar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- erkin tarbiyalash - yani shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqilligini berish, natijalarini tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarining kommunaktiv asosiy pedagogik jarayonda talabga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'лади:

- pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;
- har bir imkoniyati cheklangan bola qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnasevartlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor hislatlari hisoblanadi;

Ayni vaqtda zamonaviy ta'larning quyidagi turlari farqlanmoqda:

O'YIN TEKHNOLOGIYALARI

Shulardan quyida biz, inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalar o'quv materiallarini o'zlashtirishiga imkoniyati yaratuvchi texnologiyalarni ko'rib chiqamiz.


MUAMMOLI TEXNOLOGIYALAR

Muammoli ta'lim bu - o'quvchiga beriladigan biliunning qaysi qismini, qanday yo'liban berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaquning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi horokati bo'lib, u o'quvchi shaxsida muhim belgi ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

N.G.Dayri aytganidek, darsda o'rganiladigan mazmuning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'larning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim - o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada iwojlantirishga ta'sir etishidir. Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishi, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu

ASOSIY TURLARI



vaqida kerakli sanara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'hajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'larning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni usulini ishlab chiqish zarrur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta. Muammoli ta'limgan an'anaviy ta'larning salbyj jihatlarini barтараf etish maqsadida yuzaga kelgan insomni fikrlash, xotirasini mustahkamlash va ekspluatatsiya qilish asnosida yuzaga kelgan. Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiadi: "muammo" va "muammoli vaziyat" tushunchalar. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob'yektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Muammoli ta'limg shunday shakkni, u ta'limgarayoni sub'yektlarini muammoli izlanish asosida bilim olishiga asoslanadi. Bu jarayonda ular ilming ob'yektiiv qarama-qarsibiliklari, ijtimoiy va kasbiy amaliyot hamda ularni hal etishda, fikrlashda, samarali muloqotga kirishish va bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar. O'qitishni bunday shakllanishining asosi muammoli vaziyatlar hisoblanadi.

Ko'plab olimlar (T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, S.L.Rubinshteyn, I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, M.Maxmutov, R.A.Mavlonova va boshqalar) muammoli ta'larning afzal jihatlarini haqida fikr yuritib, u shaxsda bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantirishni, fikrlash va ta'limgagi muammoli vaziyatning chuqur psixologik xarakteristikasini ifodalaganlar.

Psixologlarning ta'kidashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn). Ana shularga ko'ra, pedagogika nazarriyasi va amaliyoti asosini o'quv muammoi tashkil etadigan ta'limga muammoli yondashish tushunchasi faol kirib kela boshladi.

Hu'mummoning mohiyati o'quvchiga ma'lum ko'nikma va mulakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar kamlik qiladigan voqealar o'rtasidagi didaktik ziddiyatardan iboratdir. Bunday ziddiyat ijodiy o'zgartirishga turki bo'ladi (M.Maxmutov).

Muammoli vaziyat - o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat biror topshiriqni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. An shu ziddiyatni anglash o'quvchilarda predmet to'g'risidagi, ishlani bajarishning usuli yoki shartlari haqidagi yangi bilimlarni fikrlash ehtiyojini uyq'otadi.

O'tgan asrning 60-yillarida muammoli ta'limgindiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.I.Rubinshteynning "Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli ta'larning psixologik mosi sifatida qabul qilingan. Muammoli ta'larning bir necha turlari mavjud. M.N.Skatkin o'z ishlarida muammoli ta'larning quyidagi turlari bordinga urg'u beradi.

Pedagogika sohasida ko'pholatlarda "muammo" tushunchasi (ishkiliy-pedagogik, psixologik, ta'limiylar va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi:

- didaktik xarakterdagi muammo;
- amaliy xarakterdagi muammo;
- ilmiy-metodik xarakterdagi muammo;
- sofiy ilmiy xarakterdagi muammo

Ma'lum bilimlar, nomalum bilimlar va muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limgarayonda masalani qo'yishda mayjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos bilanida namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonda imkoniyati cheklangan bola "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi.

Darhaqiqat, muammoli vaziyat deganda imkoniyati cheklangan bolanining hozirda yoki kelgusida ta'lim maqsadiga erishishi uchun xavf tug'diraigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyat – o'quvchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'iqliq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'iqliq yangi bilmalni izlashni taqozo etadi.

RIVOJLANIRUVCHI TEKNOLOGIYALAR

So'nggi yillarda o'qituvchilarning e'tiborini rivojlaniruvchi tallim g'oyalarini tobora ko'proq jalg qilmoqda. Rivojlanayotgan ta'llim o'quvchilarni mustaqil- "kattalar" hayotiga tayyorlashga qaratilgan.

Zamonaviy makkabning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'z kasbiy, ijtimoiy va oilaviy hayotida zarus bo'ladigan muayyan ko'nikma, bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlashdan iborat.

Rivojlaniruvchi ta'llim shaxsiy xususiyatlarning butun majmuasini rivojlanirishga qaratilgan.

L.S. Vigotskiy shunday deb yozgan edi: "Pedagogika kechagi kunga emas, balki bolaning rivojlanishining kelajagiga e'tibor qaratishi kerak". U bola rivojlanishining ikki darajasini ajratib ko'rsatdi:

- 1) haqiqiy rivojlanish sohasi (darajasi) - allaqachon shakllangan fazilatlar va bola mustaqil ravishda nima qila oladi;
 - 2) proksimal rivojlanish zonasasi - bu bola hali mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo'lmagan, lekin u kattalar yordamida engishi mumkin bo'lgan harakattar.
- Proksimal rivojlanish zonasasi-bu bola o'z-o'zidan qila oladigan narsadan hamkorlikda qanday qilishni biladigan va biladigan narsaga o'tish uchun katta yoki kamroq imkoniyatdir.

Rivojlanish uchun haqiqiy rivojlanish sohasi va proksimal rivojlanish zonasasi o'rtaisdagi chegarani doimiy ravishda engib o'tish juda samarali - nomalum, ammo bilinga potentsial kirish mumkin bo'lgan hudud.

Rivojlaniruvchi ta'llim bolaning proksimal rivojlanish zonasida amalg'a oshiriladi.

Proksimal rivojlanish zonasining tashqi chegaralarini aniqlash, uni haqiqiy va erishib bo'lmaydigan zonadan ajratish-bu o'qituvchining tajribasi va mahoratiga qarab, hozirgacha faqat intuitiv darajada hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifadir.

Ta'llimning maqsadi - har bir bolaning optimal umumiy rivojlanishini ta'minlash.

O'qitishning vazifasi fan, adabiyot, san'at va to'g'ridan-to'g'ri bilmlar vositasida o'quvchilarga dunyoning yaxlit keng tasvirini berishdir.

Demak, rivojlaniruvchi ta'llim shunday ta'llim bo'lib, unda o'qitishning shakllari, usullari, vositalari nafaqat bilim, ko'nikmalarni egallasha, balki o'quvchi shaxsini jadal har tomonloma rivojlanirishga qaratilgan.

O'YINLI TEKNOLOGIYALAR

O'yinli texnologiyalar imkoniyati cheklangan bolalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi.

Pedagogik maqsadda foydalilanayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi.

O'yin
texnologiyalari

Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning
barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma,
malaka hamda hissiy-baholovchi
faoliyat jarayonini hosil qilishga
yo'naltirilgan shartli o'quv
vaziyatlarini itodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'llim (pedagogik
texnologiya) turlaridan biri

O'yin texnologiyalari ta'limga oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonda bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakkalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilar (M: ta'lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va

b.) sifatida turli rollarni bajarish imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazar, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi. O'quv mashg'ulotlaridan o'yinlar va o'yinli vaziyatlarni qo'llash quyidagi assiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:


- didaktik maqsad imkoniyati cheklangan bolalar oldiga o'yinli topshiriq shaklida qo'yildi;
- o'quv faoliyatni o'yin qoidalariga bo'yundiriladi;
- didaktik o'quv materialdan o'yin vositasi sifatida foydalaniлади;
- o'quv faoliyatida didaktik vazifani o'yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo'llaniladi;
- muvaffaqiyatlari bajarilgan didaktik topshiriq o'yin natijasi sanaladi.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan Pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o'yinlar o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi.

Ayni o'rinda o'yin metodikasiga ko'ra guruhlangan o'yin texnologiyalarining mohiyati xususida so'z yuritiladi.

1.Didaktik o'yinlar- o'rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellasshtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faoliyklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar

Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari:



Ta'limga muassasalarida ko'p holatlarda rolli va kasbiy karakterga ega ishbilamronlik o'yinlarian foydalaniлади. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalarining asosini imkoniyati cheklangan bolalarning faoliyat va tezkorlikka asoslangan faoliyat tashkil etadi.

Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolalning ijodiy qobiliyatini rivojlantrish, umumiyligini kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, mulakkalarini shakllantirish kabi masalalarni echishga quruladi. Ular yordamida imkoniyati cheklangan bolalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirot etishga tayyorlaydi, ulardag'i turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

2. Syujetli o'yinlar - pedagogik voqe'lilik, hodisalar faoliyatining o'zaro bog'iqligiga asoslangan o'yinlar sanaladi. Bu kabi o'yinlar odada pedagogik muammolarning echimini izlash, ta im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsn qayta tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi.

3. Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarni bajarishdagi ruhiy holati, xattisharakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqe'lilik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirot etish uchun dastlabki ko'nikma-malakalarни hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirotchilari (m: o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish imkoniyati cheklangan bolalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratса, o'quvchilarga ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazarli, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

4. Ishbilarmonlik o'yinlari - ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmuniti yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka hamda sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar. Bu turdag'i o'yinlar ta'lim oluvchilarda aniq faoliyat yo'nalishida zatur BKM va sifatlarni

shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. SHu jihatdan ishbilarmonlik o'yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy aoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o'yini imkoniyati cheklangan bolalarda kasbiy sifatlarni hosil qilish bilan birga shaxsiy sifatlarni ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

5. Imitatsion o'yinlar - ishlab chiqarish korxonalarini ish o'rinnari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitsatsiyalash (toqlid qilish, ko'chirish) asosida imkoniyati cheklangan bolalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayvorlashga yo'naltiradigan o'yinlar. Bu turdag'i o'yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitsatsiya jarayon, obyektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to'la ochib berish maqsadia modellasshtiriladi. Imitatsion o'yinlar jarayonida ta'lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar echiш, ma'lum bir usulni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'лади.

6. Dramatik o'yinlar (psixologik va ijtimoiy dramalar) - psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar bo'lib, ular taskil etilishi, metodik xususiyatlariga ko'ra rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatta psixologik va ijtimoiy xarakterdag'i dramatik o'yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror topitish, o'zgalarning ruhiy holatini to'g'ri baholash, og'ir vaziyatlarga uch kelgan subyektlarga yordam ko'rsatish hamda somarali, unumli faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharotini yaratishga xizmat qiladi.

Baracha o'yinlarda bo'lgani kabi pedagogik o'yinlar jarayonida ham ishtirotchi-imkoniyati cheklangan bolalar faol holada bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o'z qarashlarini sheriklarini bilan tuqqoslash, jamoa bilan zatur munosabatni o'rnatish orqali o'zin o'zi o'rganadi.

Pedagogik jarayonda o'yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan:

- o'yin ssenariysini tayyorlash;

- yo'riqnomalar tuzish;

- auditoriyani o'yin mohiyatiga muvofiq jihozlash.

Pedagogik xarakterdagi o'yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- o'quv maqsadi;

- o'yinning vazifasi;

- o'rganiladigan muammo tafsiloti;

- o'yin vaziyatining tafsiloti;

- ishtirokchilarning tasnifi

Ta'llim jarayonida o'yin texnologiyalari qo'llash quyidagilarga asoslanadi:

- guruuhni shakllantirish;

- muammoli vaziyatni vujudga keltirish;

- rollarni taqsimlash;

- o'yin reglamentini o'rnatish;

- materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va

- ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;

- maslahat berish.

O'yin texnologiyalarini qo'llashda rollar qur'a tashlash

yo'li bilan taqsimlanadi. Bunda roller nomi yozilgan kichik

qog'ozchalarда foydalanish mumkin. Rollarning

imkoniyati cheklangan bolalar o'ritasida qur'a asosida

taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo'lgan noroziliklarning

oldini oladi.

O'yin jarayonida belgilangan vaqt (reglamentiga, muloqot odobiga rioya etish, faoliyk ko'rsatish hamda o'yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolathaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi:

- o'yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;

- o'yin maqsadi va vazifalarining to'g'ri, aniq belgilanishi;

- o'yin qoidalarining aniq, lo'nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;

- o'yin yo'riqnomasining mavjudligi;

- imkoniyati cheklangan bolalarning o'yin jarayoniga qiziqishlari;

- rollarning samarali, to'g'ri taqsimlanishi;

- jamoada ko'tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;

- ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo'llab-quvvatlashlari;

- har ishtirokchining o'yin natijasi uchun mas'uliyatni his etishi;

- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo'naltirilishi.

O'yin jarayonida hech kim halaqt qilmasiligi kerak. Bordi-yu, zuriyat bo'lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning hurakatlarini tuzatishi, ularni to'g'ri yo'naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o'yin yakunida uning tashkil etilishi, o'tkazilishi yuzasidan muhokama o'tkazilishi zarur.

Muhokama chog'ida o'yin ishtirokchilari, tomoshabin

(jamoaning o'yina ishtirok etmagan a'zolari), ekspertlar

o'yinning tashkil etilishi va o'tkazilishi yuzasidan o'z fikr-

muhohazalari, takliflarini bildiradi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqrizchilarni chiqishlari;

- fikrlar almashinuv;

- ishtirokchilarning o'z qarorlari va

- xulosalarini himoya qilishlari;

- o'yingga yakun yassash

O'yin texnologiyalarining metodik ta'minoti loyiha, o'yinning mezonlari, ish qog'ozlari (metodik ko'rsatmalar), o'yin mohiyatini yorituvchi hujatlar (ssenary) kabilidan iborat. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan o'yinlar subyekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (m: kompyuter) o'yinlari tarzda farqlanadi. O'yinlar chog'ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajiyorlar, sport anjomlari (koptok, arkon, halqa), xomashyolar (plastlin, yunshoq o'yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog'ozlari, o'yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va b. kerak bo'ladи.

Faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim olovchilar bilish jaraeniga jaib qilingan bo'ladi, ular biladigan va o'ylaetgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'nalturishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanimoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

- Pedagogik texnologiya nima? Ta'rifini ayting.
- Nogiron bolalarning ta'limida qanday pedagogik texnologiyalaridan foydalangan ma'qul?
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nima?
- Rivojlantruvchi ta'lim texnologiyalaridan inklyuziv ta'limda foydalanish mazmuni va tartibi qanday?
- Pedagogik o'yinning asosiy belgilarini ayting.



3.2. INKLUVIZIV VA KORREKSION TA'LIMDA QO'LLANUVCHI INTERFAOL USULLAR

Interfaol («Inter» - bu o'zaro, «act» - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir subbatda, muloqotda bo'lishi)ni anglatadi. Interfaol ta'larning mohiyati – o'quvchilarni bir-birlaridan o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'lim ekanligi. Interfaol ta'lim, interfaol usulular muntazam muloqotga asoslangan usulular tizimi bo'lib, o'quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtiroyidagi ta'lim va usulular tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol usulublari – bilish va kommunikativ

analoga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mayjud. Amalyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mungkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tushash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini ortirib, ularning ta'lim jarayonida faoliigi muttasil rag'battantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmuniini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli

o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro mulqotda, o'zaro babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-imkoniyati cheklangan bolani mustaqil fikrlashga o'regatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniadi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydalı jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarası yuqoriqroqbo'lgan o'qish-o'rGANISH;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'battantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashitirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-imkoniyati cheklangan bolalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'satadi. O'quvchi-imkoniyati cheklangan bolalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahsil

etilganda o'quvchi-imkoniyati cheklangan bolalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladı.

Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyl mulhazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sunaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim", va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini taskil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashq'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakkarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakkarda o'quv mushq'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llannoqda. Bu metodlarni qo'llash mashq'ulot ishtirokchilarining faoliyklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro

almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirotard natijasida imkoniyati cheklangan bolalar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratildi.

To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantrishga, mustaqil amaliy faolyatni faollahtirishga olib keladi.

Ta'lim mazmuning interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o'qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o'quv jarayonini rejashtirish muolajalariamaliyotida qo'llash bilan bog'liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsiyfladi.

Pedagogikada an'anavyv metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarining ishlariida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi.

Eng jiddiy didaktik muammollardan biri ta'lim metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir.

Interfaol metodlarni tanlash mezonı – ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantrish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'lli bilan jorty etildi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turfichadir.

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonı ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir.

Metod mazmuni harakattanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu bousdan bu mezonnинг hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobjiy o'zlashtirishga imkon tug'duradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonı ularning imkoniyati cheklangan bolalar o'quv imkoniyatlariга to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyatni uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta'minlashdir.

Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariغا mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlarini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir.

Darvoqe, o'qitishning yalpi,guruqli va individual shakllari imkoniyati cheklangan bola o'rtaisdagi babs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha imkoniyati cheklangan bolalarning ishtiroti zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

Ma'lumki, pedagogik texnolgiya ham ma'lum qonuniyatlar usosida loyihalandi va o'quv jarayonini tashkil etishga asos yaratadi, joriy qilingach esa yakuniy natijani, imkoniyati cheklangan bolaning u yoki mavzuni mustaqilagini ta'minlaydi. Ta'limning imumiy maqsadidan kelib chiqib o'qitishning ayni bosqichidagi turbiyaviy va rivojlantriruvchi masalarni yechish zarurati hisobga olgan holda ajratilgan variant tahlillanadi va baholanadi. Zamonaivy o'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha iubiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak bilmlarni o'quvchilarga yetkazib berish,ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hisil qilish,shuningdek,o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish,ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga o'sbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari
 va vazifalariga bog'liq;
 ikkinchidan, bayon qilinadshan materialning harakteriga
 bog'liq;
 uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish
 darajasiga bog'liq;
 to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan
 asoslarining muayyan (hozirgi) davridagi metodlariga bog'liq;
 beshinchidan, olyi o'quv yurti yoki kafedraning
 sharoitlariga bog'liq;
 oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti
 bilan bog'liq;
 yettingchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning
 tayyorlarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda
 o'qituvchining hozirgi zamон metodlari bo'yicha bilimlariga
 bog'liq.
 Shunday qilib, olyi ta'lim muassasalaridagi kasbiy ta'lim
 jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq
 tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi.
 Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin
 shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi.
 Bu didaktik majmuuning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining
 psixologik-pedagogik qonuniyatları билан belgilanadi.

Zamonaviy ta'limi tashkil etishga qo'yiladigan muhim
 talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoni kuch sarf etmay, qisqa
 vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida
 muayyan nazariy bilmlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda
 ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qifish,
 shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan
 egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash
 o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga
 nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv
 xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil
 etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
 o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
 o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta
 bilimlarining egallanishini ta'minashi;
 o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash
 ko'nikmalarni shakkantirishi;
 o'quvchilarning o'z imkoniyatlarni ro'yogga chiqara
 olishlari uchun zaur shart-sharoitlarni yaratishi;
 pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik
 iloyalarining ustivoirligiga erishishni kafoflatlashi zatur.
 Quyida inklyuziv ta'lim jarayonida keng
 qo'llanilayotgano'qitishning zamonaviy metodlari keltirildi.

"FIKRIY HUJUM" METODI

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi
 fikolliklarni ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'battantirish
 hamda bir xil fikrash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu
 yuzasidan rang-barang g'oyalarini to'plash, shuningdek, ijodiy
 vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan
 fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti
 mashg'ulotning har bir ishtirotchisi tomonidan o'rtaga
 inshlanayotgan fikrga nishbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash, har
 qanday luqma va hazil-mutoyibalamni rag'batlantirishdan iboratdir.
 Hundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot
 jurnyomidagi erkin ishtirotkini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushu
 metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va
 tufakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'лади.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida
 o'quvchilarning soni 10-15 naferdan oshmasligi maqsadga
 muvofiqdir.

"YALPI FIKRIY HUJUM" METODI

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta
 tushlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5
 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa
 ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy

vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobjiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruuhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruuhlar a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroktari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

"FIKRILARNING SHIDDATLI HUJUMI" METODI

Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- o'quvchilarida ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat. "Fikrlarning shiddatlari hujumi" metodidan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni o'zida biriktirilgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakkllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash; 3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarining ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratishi;

5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'nii ularning to'g'riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash;

6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlар yuzaga keladi:

— o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilmlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

— vaqtini iqtisod qilish;

— har bir o'quvchini faoliikkiga undash;

— ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

"6x6x6" METODI

"6x6x6" metodi yordamida bir vaqning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalg etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruuhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Hu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta ga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt niyoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruuni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangancha guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangancha guruh a'zolari o'z jamondoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida uqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"6x6x6" metodining afzallik jihatlari quyidagiildir:

- guruuhlarning har bir a'zosining faol bo'lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ko'nikmalarini hosil qiladi;

- ilgari surilayotgan bir necha fikri umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqo) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Usbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruuhlarda qo'llash mumkin. Biroq yirik guruuhlar o'ritasida "6x6x6" metodi qo'llanilganda vaqtini ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan

metod qo'llanilayotganda mashq'ulotlarda quruuhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mayjud.

“бхбхб” metodidan ta’lim

jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq shakllantirishiga olish layoqatiga ega bo‘lishni talab etadi. Guruhlarning to‘g’ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g’ri hal etilmastigiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu metod yordamida mashq’ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashq’ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadi.

O‘quvchilarini guruhlaga bo‘lishda har o‘rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarini olganlar o‘z o‘rinlariga joylashadir.

3. O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashq’ulot mavzusini e’lon qiladi va guruhlarga muayyan topshirqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a‘zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruuhlar tomonidan berilgan topshirqlarning to‘g’ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt niyoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a‘zolari o‘z jamaodoshlariga guruhni tomonidan muammo yechimi sifatida taqdum etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birlgilikda muhokama qiladilar.

“AQILY HUJUM” METODI

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo’llaniladigan metod sanalib, umashq’ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish handa o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobjiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlaniradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan

mashq’ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni tanlash imkoniyati tug‘iladi. “Aqly hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni miqlash va ularga muqabil bo‘lgan g‘oyalarini tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

o‘quvchilarining o‘zlarini erkin his etish uchun sharoit yaratib berish;

g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;

muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

mashq’ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

bildirilayotgan g‘oyalarning ularning mualiflari tomonidan hisoslanishiga erishish va ularni yozib olish;

qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasi qo‘yish;

bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oya (yoki fikr)lar ustidan tulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

yangi g‘oyalar bildirilish davom etayotgan ekan,

muammoming yagona yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek:

o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholannaydi;

o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya ligari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi.

boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar hisosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning o‘quvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

Dars jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirlgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'lishiga olib keladi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mungkin. Awval bildirligan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, o'quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yoddha tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

"KLASTER" METODI

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bernalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turi bilan g'oyalar o'rtaсидаги aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalananish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan "Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosidan tashkil etiladigan mashg'ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'лади. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

"Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga riyoqlishtab etiladi:

1. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Belgilangan vaqt niyoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'yay olmasangiz, u holda qog'ozga bitor narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ulguncha davom ettiring.
3. Yozuvning orfografiyasini yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarini ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, bog'iqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

"TAJriba VOSITASIDA O'QITISH SIKLI" METODI

Mazkur metod quyidagi 4 omil asosida quriladi:

- 1.reflektiv kuzatish;
- 2.abstrakt xulosalash;
- 3.faol tajriba olib borishga tayyorlanish;
- 4.aniq tajriba o'tkazish.

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan g'oyaga o'soslanadi. Chunonchi:

- 1.O'quvchilar uchun mashqlar mazmunini tanqidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkoniyatini beruvchi sharoit yarat (reflektiv kuzatish);

2. O'quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber;

3. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash);

4. O'quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqtida yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashqlarni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);

5. Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o'tkazish).

"QORA QUTI" METODI

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashdirishga erishish bilan birga ulami faoliyikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

1. o'quvchilar juftlikka biriktiriladi;

2. juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . .)ni kartochkalariga qayd etish vazifasi yuklanadi;

3. o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhi tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;

4. topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;

5. sind o'quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikri sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . qanday ma'noni anglatishini aytadilar);

6. to'g'ri javob bergen o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

"BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTOCHA METODI

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llash quyidagi harakatlardan amalga oshiriladi:

✓ o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

✓ hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish;

✓ o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani uniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

✓ o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtaisdagi mantiqiy bog'likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtaisdagi mantiqiy bog'likni ko'rsata va asostash olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zar o'tqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

"QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH" METODI

Inkluyuziv sinfdagi o'quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobjiy natijalarini kufolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlardan amalga oshiriladi:

✓ o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkanning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi "yadro" tushunchanining bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);
✓ har guruha maxsus kartochkalarining alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarini ulardagi vazifasi yuklanadi; mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi asosan
✓ guruhi tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarining orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qaydarajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Agar topshiriq guruuhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'girilganda mavzuning mohiyotini yorituvchi "yadro" tushuncha hosil bo'ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchilarida mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'iqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nkmalari hosil qilinadi.

"ZIG-ZAG" STRATEGYASI (*metodi*)

Metodi o'quvchilar bilan guruh asosida ishslash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- 1. O'quvchilarida jamoa (yoki guruh) bo'lib ishslash ko'nkmasi shakllanadi; mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.
- 2. "Zig-zag" strategiyasini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:
 - ✓ sinf o'quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhga bo'linadi;
 - ✓ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi;
 - ✓ har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni, ...) beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi;
 - ✓ -belgilangan vaqt mobaynida guruuhlar matn ustida ishlaydilar;
 - ✓ vaqtini tejasz maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'lab beradilar;
 - ✓ liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin;
 - ✓ barcha guruuhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlardan so'ng matnlar guruuhlararo almashtiriladi;
 - ✓ bu bosqichda ham yuqoridaq faoliyat takrorlanadi;
 - ✓ shu taxlidida mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.
- 3. Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nuzariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. sinf o'quvchilar 4 guruhga bo'linadi;
2. yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettruvchi sxema chiziladi;
3. har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
4. topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;
5. liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirligan fikrlarni unumlashtirib, yozuv taxtasida aks diagrammani to'ldiradilar.

"ZAKOVATLI ZUKKO" metodi

Mayjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariiga egaliklari muhim ahamiyatga ega. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nkmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi o'quvchlarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

- 4. Ushbu strategiya o'quvchilarida mavzuga nisbatan tahhiliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini

o'zlashtirish (sentezelash) ko'nkmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruuhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 4 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi.

Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nuzariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

"VENN DIAGRAMMASI" strategiyasi (*metodi*)

Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

"QARAMA-QARSHI MUNOSABAT" metodi

Metodi o'z mohiyatiga ko'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sentez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. mavzuning umumiyligi mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;
2. ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
3. tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'limgan tushunchalar tarzida guruhlanadi;
4. jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'limgan tushunchalar yoziladi;
5. kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuv muhokama qilinadi;
6. jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Interfaol metod nima?
2. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligi qanday omillarga bog'liq?
3. Inkluyuziv va korreksion ta'linda qo'llanuvchi interfaol usullarga misollar keltiring.
4. Interfaol metodidan inkluyuziv ta'linda foydalanish mazmuni va tartibi qanday?

3.3. INKLUYUVIZ VA KORREKSION TA'LIMDA AKTDAN FOYDALANISH

Inkluyuziv ta'linda AKTlardan foydalanishning afzallikkari

U yoki bu funksional cheklanishlari bo'lgan bolalaming ta'limiyligi ehtiyojlarini juda ham xilma-xil. Ular bir tomonidan, o'zlarining sog'iom tengdoshlari bilan bir xil bilimlar olish ehtiyojiga egalar. Boshqa tomonidan esa, ularda boshqa (ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlarini deb belgilanadigan), funksional chekinishlar bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar ham bor bo'lib, ular o'quv jarayonida odatdagagi ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini bermadi. Shu munosabat bilan bolalarning har turli toifalarining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan AKTlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'quv jarayonda AKTlardan foydalanishning afzallikkari yangi texnologiyalarning kommunikatsiya va o'zaro faoliyat jarayonini yo'nga qo'yishga, ta'mim resurslaridan eng qulay shakilda foydalanish imkonini berishga, hamda motivatsini oshirishga yordam berishi bilan bog'liq. AKTlami inkluyuziv ta'linda qo'llash sohalari juda ham xilma-xil bilishiga qaramay, ulardan foydalanishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. kompensator (o'mini bosish) masalalarini hal etish uchun AKTlar;
2. didaktik masalalarni hal etish uchun AKTlar;
3. kommunikativ masalalarni hal etish uchun AKTlar.
- Bunday yondashuvni hisobga olgan holda AKTlaming o'quv jorayoni dagi rolni shu asosiy kategoriyalarga muvofiq bayon qilinadi.

AKTlardan foydalanishning umumiy afzallikkari:

- bolalarga ko'proq avtonomlik beriladi;
- kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo'lgan bolalarga ichki, yashirin imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini yaratiladi;
- bolalarga o'z yutuqlarini ilgari an'anaviy pedagogik

usullardan foydalanilganda amalga oshirib bo'lmaydigan usullar bilan namoyish qilish imkoniyatini beradi;

- bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini beradi.

AKTlardan foydalanishning alohida ehtiyojli bolalar uchun afzalliklari:

- kompyuterlar bolalarning avtonomligini va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi;
- alohida ta'limiy ehtiyojlar bo'lgan bolalar topshiriqlarni o'zining o'quv faoliyatini maromida bajara oladilar;
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining koradigan tengdoshlari bilan bir qatorda intemetdan foydalanish imkoniyatini oladilar;

AKTlardan kompensator masalalarni hal etish uchun

Yangi texnologiyalami texnikaviy qo'llab-quvvatlash sifatida qo'llash alohida ehtiyojli bolalarga o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Masalan, harakat nuqsonlari bo'lgan holda AKT yozish imkonini beradi, ko'rish nuqsonlari bo'lgan holda esa, o'qish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, texnologiyalar bolalamining o'z atrof-muhbirinini boshqarish, o'quv va ijtimoiy masalalar yechimini qo'llab-quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Boshqachasiga aytganda, texnologiyalar organizmning tabiiy funksiyalaridagi yetishmovchiqliklarning o'mini bosish (kompensatsiyalash) imkoniyatini beradi va shu bilan esa, bolalar tomonidan bilmalmi olish va o'zlashtirish jarayonlarini optimallashtiradi.

AKTlardan didaktik masalalarni hal etish uchun foydalanish

AKTlardan didaktik vosita sifatida foydalanish o'quv-metodik jutayonga yondashuvlami o'zgartirishga yordam beradi va yangi ta'lim strategiyalari va bilimlarni nazorat qilish strategiyalarining vujudga kelishini rag'batlanadir.

Bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida o'quv dasturi faqat bolalamining ta'limiy qo'shish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- axborot resurslarining elektron shaklti ta'limdan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda oshiradi.

Inkyuziv ta'limda AKTlarni qo'llash juda katta imkoniyatlarga

ega, lekin bu yo'lda ko'p qiyinchiliklar mayjud, yangi texnologiyalar ta'lim tizimining an'anavy tartibini o'zgartirib, alohida ehtiyojli bolalar ta'limidagi ilgarigi passiv yondashuvlarga nisbatan munosib alternativlarni ilgari suradi. Mavjud shubhasiz afzalliklariga qaramay, agar ularni bolalarning individual ehtiyojlarini va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyat tamoyillarini hisobga olmagan holda qo'llanilsa, bunday texnologiyalar ta'limga to'sqinlik qilishi mumkin.

ehtiyojlarinigina qondirib qolmasdan, ulaming individual qobiliyatlaridagi va o'quv faoliyatari matomidagi farqlardan qat'i nazar, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga yordam berishi lozim. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalar orasidagi farqlami minimum darajaga keltirish imkonini beradi va bolalaming o'zaro va o'qituvchi bilan hankorligini yaxshilashga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashga yo'l ochadi.

AKTlardan kommunikativ masalalarni hal etish uchun foydalanish

Texnologiyalar alohida ehtiyojli odamlarning muloqotlari jarayonida vositachilar bo'lishi mumkin. Kommunikatsiya jarayonida qiyinchilikka uchraydigan foydalanuvchilarning har bir toifasi uchun maxsus yordamchi qurilmalar va dasturiy ta'minot tanlanishi va moslashtirilishi lozim. Avvalo, gap kompyuterning kommunikatsiyani yengillashtridan, ayrim hollarda esa, atrofdagi olam bilan munosabatning yagona imkoniyati bo'lib qoladigan noyob resurs sifatiga egaligi haqida bormoqda. Masalan, zamona viy o'z qibiliyatlarini eng mos keladigan holda amalga oshirish, muloqotdagi qiyinchiliklar harakat nuqsonlari tufayli murakkablashadigan odamlar uchun esa, bunday texnologiyalar ko'p hollarda tashqi olam bilan aloqada o'z fikrash va ehtiyojlarini ifoda etish imkonini beruvchi yagona usul hisoblanadi.

Bundan tashqari ayrim bolalar toifalarining harakalanish imkoniyatlari cheklanganligi hamda o'qituvchi-o'rgatuvchi kadrlar (bunday hollar inkiyuziv ta'limda kam) munosabati bilan masofaviy kommunikatsiya metodlaridan foydalanish korreksion ta'lim jarayoni uchun dolzarb bo'lib qolishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi kommunikatsiyalar va texnologiyalar masalalari bo'yicha Britaniya agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra inkiyuziv ta'lim tizimida AKTlardan foydalanish bolalarning o'qishi, kommunikatsiyasi va o'zaro faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Inkluyuziv ta'limda AKTlardan foydalanishning afzalliklarini ayting.
2. AKTlardan kompensator masalalarni hal etish uchun foydalanish deganda nima tushundingiz?
3. AKTlardan didaktik masalalarni hal etish uchun qanday foydalanish mumkin?

4. AKTlardan kommunikativ masalalarni hal etish uchun foydalanish mazmunini yoriting.
5. Interfaol metoddan inkluyuziv ta'limda foydalanish mazmuni va tartibi qanday?



IV. BOB INKLIVUZIV TA'LIMNING KORREKSION-KOMPENSATSIYON YO'NALGANLIK AMALIYOTI

4.1.O'QUV MUHITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TINCHLANTIRUVCHI VA FAOLLASHTIRUVCHI YONDOSHUVLAR

Logoritmika va uning ahamiyati

H a r a k a t tirk materiyaning asosiy biologik sifati hisoblanib, u jonli tabiatning evolyusiyasi bilan birgalkida mukamallashadi. Harakat eng oly mukammallikka "organizm-muhit" tizimidagi tizimosti o'z-o'zini boshqarish hisoblanuvchi organizm, insonning filogenetik rivojlanishida erishadi. Harakat-bu tizimda muvozanatlashtiruvchi asosiy mexanizmlardan biri. Inson moslashadi, ko'nikadi va bu moslashuv jarayonida bir tomonidan, tuzilmaviy va funksional tarzda takomillashadi, boshqa tomonidan esa- muhitni faol o'zgartiradi va moslashtiradi. Ushbu jarayonda harakat insonda o'ziga xos, sifat jihatidan inson faoliyatining ongli, ijtimoiy-biologik karakteriga sabab bo'ladigan yangi xarakterga ega bo'ladi. Harakatdan profilaktika, davolash va reabilitatsiyaning ulkan omili sifatida ham foydalaniladi.

H a r a k a t l a n u v c h a n m a l a k a harakatning tarkibiy qismlari va harakatlanuvchan vazifani hal qilish usullariga diqqatni ko'tarinki jamlash bilan farqlanuvchi faoliyatning texnikasini egallash darajasi sifatida belgilanadi.

H a r a k a t l a n u v c h a n k o'nikma – harakat texnikasini shunday egallash darajasiki, unda harakatlarni boshqarish avtomatik tarzda sodir bo'ladi va harakat yuqori ishonchlilik bilan farqlanadi. Ishlab chiqilgan harakatlanuvchan malakaning mavjudligi harakatlanuvchan akting butunlay anglashni yo'q qilmaydi. Anglash qo'yilgan harakatlanuvchan vazifani bajarish uchun, harakat ustidan nazorat va hatto ba'zi hollarda harakatlanuvchan vazifalarni bajarishda kutilmaganda o'zgaruvchan sharoitga bog'liq ravishda malakani qisman avtomatashtirmslik

uchun zarudir. Harakatlanuvchan malakating shakllanishi o'zida birinchi va ustunlik qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi signal tizimining o'zaro ta'sirida dinamik stereotipning vujudga kelish jarayonini aks ettridi.

Psixomotor rivojlanish motor rivojlanish bilan mustahkam bog'liqlikda boradi. Bu aloqa shunchalik kuchliki, psixik rivojlanishning buzilishhi esa shunday ko'p miqdorli va turli-tuman harakatlanuvchan buzilishlar bilan o'zaro aloqalarni yuzaga emas, baiki patologiyaga nisbatan ham qo'llaniladi.

Rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida badanning harakati va turlicha hissiyotlar (ko'rish, etishish, taktil, ta'm, muvozanat, kinestetik va boshqalar) ning anglanishi inson uchun atrofdagi dunyoni tanish vostasi hisoblanadi- bu intellektual bilishga qaraganda birmuncha elementlar daraja. Psixomotor rivojlanish buzzilishida turlicha modalitikni his qilishning to'liq bo'lmagan va noto'g'ri his qilish tahibili amalga oshiriladi. Bitta analizator olib tashlash bilan bog'liq ravishda qolganlarining sezgirigi pasayadi. Masalan, past aqli zaiflik bilan qiyunaluvchi bolalar bilan ishllovchi shaxslar ko'p e'tiborni bolalarning ushlab olishiga, maqsadli yo'naltirilgan artikulyasiyoning harakatlarga, maqsadli yo'naltirilgan artikulyasiyoning harakatlar va h.k. larga o'rgatishga qaratadi. Kar va past eshituvchi bolalar bilan shug'ullanuvchi pedagoglar ularni yuzdan o'qishda ko'zdan foydalanishni yoki unli va undosh tovushlarning to'g'ri artikulyasiyasi o'rgatadilar. Ko'rilar va zaif ko'rvuchilar bilan ishaydigan pedagoglar patsientlar harakatlanuvchi turli yuzaliklarda va binoda mayjud bo'lgan predmetlar, mebellar va h.k. larning joylashishiga harakatlanishga, qomatni ko'rvuchi odamdan farq qilmaydigan holda tutishga, shuningdek, yuqori taktil qobiliyatni talab qiluvchi Brayl bo'yicha o'qishni, makon orientatsiyasi, harakatlari nozik tuyg'ularni egallasha maslahish malkasi va qobiliyatini ishlab chiqadilar.

Psixomotor rivojlanishi nisbatan me'yorda bo'lgan bola bir necha bosqichni o'taydi. Psixomotor rivojlanish predmetlar bilan maxsus bo'lmagan manipulyasiyadan boshlanadi va maqsadli

yo'naltilrilgan, rejalashtirilgan anglash hamda harakat yordamida haqqoniylikning bunyodga kelishi deb tushuniluvchi aqli, anglangan faoliyatgacha davom etadi. Anglangan faoliyat shaxsiy tajribada biliq oлган predmetlar va ko'rinishlarning muayyan miqdoriga, motorikani takomillashtirmaydigan va atrofdagi borliq ko'rinishlariaro sabab-oqibatl aloqalarni bilishga tayanadi. Shaxsning psixomotor rivojlanishi jarayonida ongli faoliyatga bola rivojlanishi va faoliyatini takomillashtiruvchi ikkinchi signal tizimi qo'shiladi.

Har bir harakat ma'lum bir ritmda sodir etildi. Ritm (ohang) tushunchasi keng qamrovga ega va she'rga, proza, yurak nafas olish, tabiat, i shva h.k. larga nisbatan qo'llaniladi. Ritm universal kosmik kategoriya sifatida ham yuzaga chiqadi. «Makon va vaqf mangu ritm qonuniga bo'y sunuvchi materiya bilan to'idirligan», – deb yozgandi E.Jak-Dalkroz¹⁶. Ritmning barcha ko'rinishlariiga mos tushadigan ta'rifi topish mushkul. "Ritm" tushunchasi ko'pincha ko'rinishlarning vaqtda almashinishi xususiyatlari bilan bog'liq, biroq makon san'ati – balet, rassomlik, haykaltaroshlik, arxitekturaga nisbatan "makon ritmi" haqida ham gapirish mumkin. Ritmning asosiy belgisini birmuncha kamroq yoki ko'proq takrorlashning qat'iy davriyligida ko'rish qabul qilingan. Biroq vaqtinchalik san'atlarda, ya ni "ritm" tushunchasi birmuncha yuqori rol o'ynaydigan joyda bu belgi yo'q bo'lishi mumkin, masalan, spektakl, proza ritmi, ba'zida musiqa ritmi takrorlanishning davriyligi bilan xarakterlanmaydi. Ritm ko'p narsani o'z ichiga oladigan tushuncha sifatida faqat bitta, noaniq belgisi bilan farqlanadi: bu predmetlar, ko'rinishlar, jarayonlarning vaqtinchalik yoki makoniy tartibi. Psixolog B.M.Teplov ritm ba'zi bir muayyan jarayonni vaqtda tashkil etish deb hisoblaydi. Ritm bir-birining ketidan keluvchi u yoki bu guruh vaqt qatorining ba'zi bo'limishlarini zaruriy shart sifatida ko'zda tutadi. Ritm haqidagi faqatgina bir tekisda ketma-ket keluvchi qo'zg'atuvhilarning ma'lum bir guruhlarga bo'linganidagina gapirishimiz mumkin, shu bilan birga, guruhlar bir xil (2-3 a'zodan va h.k.) yoki bir xil

bo'lmasiagi ham mumkin. Biroq har qanday guruh va vaqt qatorining bo'linish ham ritmnosi hosil qilmaydi. Ritmik guruhning, albatta, umuman ritmning majburiy sharti urg'uning mavjudligi, ya'nii birmuncha kuchli va qandaydir ajralib turadigan qo'zg'atuvhingga munosabat hisoblanadi. Urg'usiz ritm yo'q. Shunday qilib, ritm urg'u atrofida birlashuvchagi guruhlarda qo'zg'atuvhining vaqtinchali ketma-ketligidagi qonunyu so'zi ritmga taalluqli, ravon, bir me'yordagi kabi ma'nolarni beradi) – bu harakatning musiqa bilan bog'liqlikda qurilgan jismoni mashqlar tizimi. Ritmika, ayniqsa, bola yoshida jismoni va badiiy turbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning uyg'unlashgan jismoni rivojlanishiga, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, harakat uniqligining rivojlanishiga yordamlashadi, bolalarни musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishtiradi, harakada musiqiy asarning xarakteri va judalligini aks ettirishga o'regatadi. Ritmika mashg'ulotlarida sakrash, o'yinli mashqlar, yugurish, badiiy gymnastika elementlari, raqsli va imitatsiyali harakatlardan foydalananladi. Maxsus, o'ziga xos tumoyillar – logopedik ritmning nutqiy patologiyaga ega shaxslarning jismoni imkoniyatlari bilan aloqasi, nutqiy nuqsonini e'tiborga olish, shaxsni rivojlantrish, harakat faoliyatini rivojlantrish jarayonida u bilan bir vaqtda aqliy, axloqiy, estetik va sensor tarbiyani amalga oshirish; logopedik ritmikaning sog'iomlashtirishga yo'nalganligi; logopedik ritmikaning musiqiali faoliyatning bosqqa turlari; musiqani eshitish, ashula aytish, musiqali ritmik harakatlar, bayramlar, raqsga tushish, musiqa usboblarini chalish va boshqalar bilan bog'liqligi: logopedik ritmikaning nutqiy patologiyaga ega bo'lgan shaxslarga tibbiy-psixologo-pedagogik ta'sir kompleksi vositalari bilan bog'liqligi. Logoritmix ta'sir tiziminining asosiy bo'g'lnari tavsifi. Nutqiy bo'Imagan jarayonlarni rivojlantrish; eshitish diqqati va eshitish ko'rasasi; ko'rish tasawvuri va malakalarini, umumiyy harakatlar minikasini rivojlantrish, harakatda sur'at va ritm xislarni, ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash, taqpid qilish, faollik, mustaqillik kabi shaxs

¹⁶ Жак-Далкрос Э. Ритм, хайд унди ва санаси унди тарбиявий ахаммати: 6 маорула. – СТБ, 1913. – 5-6.

xususiyatlarini tarbiyalash, xulq buzilishlarni korreksiyalash. Musiqi bolalarni estetik tarbiyalash, aqiliy qobiliyatlarini faollashtirish va jismoni jihatdan rivojlanitirish vostasi, musiqi va harakat. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan shaxslarni musiqali ritmik tarbiyalashning vazifalarini sog'lomlashdirish, ta'limiy, estetik, tarbiyaviy, korreksion. Logopedik ritmika vostitalari: ashula, turli yo'nalishidagi qadam tashlashlar (marshirovka), tonusini bo'shashtiruvchi mashqlar, musiqasiz nutqiy mashqlar, musiqali ritm hissini tarbiyalovchi mashqlar, musiqali mustaqil faoliyat, o'yin faoliyati. Logopedik ritmika metodlari: harakat xislari va xissiy idrokning yorqinligini ta'minlovchi ko'rgazmali metodlar; ongi o'zlashtirishga qaratilgan topshiriqlarni anglashga va harakatlari mashqlarni ongli bajarishga, turli holatlarda ulardan mustaqil ravishda foydalanishga yordam beradigan og'zaki metodlar; amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, o'z muskul-motor sezgilarida harakat idrokining to'g'rilingini ta'minlovchi amaliy metodlar: turli o'yin va musobaqa metodlari; ko'rgazmali, og'zaki va amaliy metodlarda qo'llaniladigan muammoli o'qitish va tarbiyalash metodlari.

Inkluyuziv ta'linda art texnologiyalariningo'rni

Ma'lumki, tarbiya jarayonida ayniqa, rivojlanishida nuqsoni mayjud o'quvchilarni tarbiyalash g'oyat murakkabdir. "O'zbekiston Respublikasining nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq jismoni va aqliy nuqsonlari mayjud bo'lgan va shu nuqsonlar tufayli turmush faoliyati cheklanganligi sababli ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj bo'lgan shaxs nogiron yoki imkoniyati cheklangan deb hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan har qanday inson esa atrofadigilarning alohida yordamiga muhtojdir. Shunday ekan, ularning hayotda o'zinlarini topib ketishlariga ko'maklashish har birimizning burchimizdir.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan alohida yordamga muhtoj bolalarga juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoida. Bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda maxsus fanlarning o'mni beqiyosdir Ta'lim muassasalarida art-terapiya

badiiy ijod orqali korreksiyalash va rivojlanitirish usuli hisoblanadi. Uning pedagoglar uchun jozibadorligini, asosan og'zaki aloqa vostitalaridan foydalananadiqan asosiy tuzatish va rivojlanish yo'nalishlaridan farqli o'laroq, Art terapiya vizual va plastik ifoda "tilidan" foydalanishi bilan izohlash mumkin. Bu, ayniqa, bolalar bilan ishlashda juda muhimdir va ularni izlanish, rivojlanitirish va uyg'unlashtirish uchun ajralmas vospita bo'lib, bola hissiy holatini so'z bilan ifoda eta olmaydi. Aksariyat hollarda bolalar o'z muammolari va tajribalarini og'zaki bayon qilishda qynaladilar. Og'zaki bo'lмаган ifodalar esa ular uchun ko'proq qulaysidir. Bu, ayniqa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun juda muhim, chunki ularning xatti-harakatlari o'z-o'zidan paydo bo'лади va ular o'zlarining xatti-harakatlari aks etirish qobiliyatiga ega emaslar. Ularning tajribalari to'g'ridan-to'g'ri badiiy obraz orqali "chiqadi". Bunday "mahsulot" ni idrok etish va tubhil qilish oson. Bolaning o'yin faoliyatiga tabiy moyilligi, bolalar tasavvurining boyligi muhimdir. Shuni inobatga olgan holda, Art-terapiya elementlari bilan tuzatish ishlarni tashkil etishda sinifa o'yin va ijod muhiti yaratiladi.

Art terapiya elementlari bilan mashe'ulotlar imkoniyati cheklangan bolalar bilan tuzatish ishlardida juda samarali. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati "Art" texnologiyalarining boy resurslaridan foydalangan holda tuzatilishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

Art texnologiyalari, uydagi ta'linda xam bolalar bilan ishlashga qiziqish uyg'otadi. Birgalikda o'z-o'zini namoyon qilish orqali oilaviy munosabatlar uyg'unlashadi. Shuningdek, oilaviy muammodan uzoqlashtirish va boshqa tomonidan qarash imkoniyati beradi.

Badiiy usulular orqali o'zini namoyon qilish jarayoni bevosita bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lib, uni muhim psixoprofilaktika omili deb hisoblash mumkin. Art-texnologiyalaridan foydalananish pedagogga bolaga uning muammolarini yengishega, hissiy muvozanatini tiklashga yoki mayjud xatti-harakatdagagi buzilishlarni bartaraf etishga va

intelлектуал ривожланышга юрдам беришга юрдам беради.

Bolalar art-терапијаси - бу болалар билан терапевтик муносабатларни о'рнатиш юки болаларнинг ривожланышини та'минлаш учун психолоѓик юрдам, гар qандай сан'ат воститаридан фойдаланышни о'з ичига олган арт-терапијанинг замонавиј юналishi.

Bolаларда кattalar singari keng ko'lами himoya mexanizmlari mavjud emas, demak ular o'z muammolari haqida ancha oldin gapirishga tayyor bo'lishadi. Terapevtning vazifasi bu daqiqani o'tkazib yubormaslik va har bir so'zga juda diqqati bo'lib, bola haqidagi gapiradigan narsaga juda diqqatli bo'lishdir. Aloqa ko'pincha aynan shu sababdan yuzaga kelmaydi - chunki terapevt kutib turadi va barcha ma'lumotlar uning oldida bo'lganida qidiradi.

"Art Therapy" atamasi ikkita so'zning qo'shilmasidan hosil bo'lgan. "Art" inglizcha so'zdan olingan bo'lib - "san'at", "Terapiya" so'zi esa yunoncha "therapeia" so'zidan olingan bo'lib - davolash degan ma'nomi anglatadi. Art terapiya - san'at bilan davolash demakdir. Art terapiya - бу сан'ат ва ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaniнg eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsing psixologik muammolarini davolashni o'z ichiga oladi.

Art terapiya - бу ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o'z ichiga олган psixoterapiyaniнg eng samarali usullaridan biridir. Art-терапија юрдамидаги тузатиш eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlanтириш билан yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art-терапијанинg asosiy maqsadi bolada o'zini-o'zi bilish jarayonini o'zlashtirish va uning o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlanтиришdir.

"Art terapiya" tushunchasi hozingi vaqtida bir necha ma'noga ega:

- davolash va tuzatishda ishlataladigan san'at to'plami;
- art-терапија texnikasi to'plami;
- psixoterapevtik va psixoreksiya amaliyotining yo'nalishi;
- usul.

Dastlab art-терапија rasm terapiyasi, ya'ni tasviriy san'at bilan davolash deb nomlangan. Bugungi kunda art-терапија mavjud ko'п turlari va kichik turlari paydo bo'lgan.

"Art terapiya" (art-терапија) atamasi birinchi bo'lib 1938 yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriylarda sil kasalligi bilan og'rigan bemorlarning badiiy mashq'ulotlarini tasvirlashda ishlataligan. Keyin bu atama terapevtik san'atning barcha turlariga qo'llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida artoterapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada psixoterapiya bilan bog'liq holda rivojlanana boshladi. Ifjodkorlikda qasddan o'zini oshkor qilish bilan terapiya Z.Freydning psikoanalizidan, K.G.Yungning analitik psixologiyasidan Moreno psiko-dramasidan va amerikalik o'qituvchi M.Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi.

A.Kopitinning so'zlariga ko'ra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badiiy amaliyotdir, chunki art-терапија mashq'ulotlari payida mijozlar vizual faoliyat bilan shug'ullanishadi.

Art-technologiyalarning maqsadi - bo'lajak defektologlar, alohida yordamga muhtoj bolalarni art texnologiya yordamida ularning hissiy-irodaviy sohasini, bilish jarayonlarini, umumiy va mayda motorikasini rivojlanтиришдан iborat.

Art-technologiyalarning vazifalari:

- Mavjud art-технologiya usullarini moslashtirish va ulardan alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari bilan psixo-korreksion ishlari tizimida foydalananish.
- Turli yoshdag'i va shaxsiy rivojlanishning turli xil buzilishlari bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan psixo-korreksion ishlarda artterapiyadan foydalananishning xususiyatlarni ochib berish va samaradorligini aniqlash.
- Alohida yordamga muhtoj bolalardagi turli xil kasalliklarni tuzatishni ta'minlaydigan art-технologiyalari va korreksion dasturlarini ishlab chiqish.

-Alohida yordamga muhtoj bolalardagi o'zini-o'zi nazorat qilishga o'rgatish, iqtidorini namoyon qilishga yordam berish va o'z-o'ziga bo'lgan bahoni ko'tarishga o'rgatishdan iboratdir.

-Art-texnologiya nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning, nutq nuqsonlarini bartaraf etish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantrirish. Ularning ruhiyatini barqarorlashtirish va yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Zamonaviy art-texnologiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

-Izotexnologiya - tasviriy san'at yordamida terapeutik ta'sir rasmi, modellasshtirish, badiy hunarmandchilik va hokazolar;

-imotexnologiya - obraz, teatrlashtirish, dramatizatsiya orqali ta'sir o'tkazish;

-musiqiy terapiya - musiqani idrok etish orqali ta'sir o'tkazish;

-ertaktehnologiya - ertak, masal, afsona orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiga ta'sir o'tkazish;

-kinestik texnologiya - raqs va harakat orqali ta'sir;


-dramatexnologiya- imkoniyati cheklangan bolalar o'rtaaside teatr pyesasini sahnalashtirishga o'rgatish

-qum texnologiya- qum orqali imkoniyati cheklangan bolalarning nutqi hamda bilish jarayonlarini rivojlantrishdan iborat.

-fototexnologiya- rasmga tushirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini, nutqini rivojlantrish.


-tuzatuvcu ritm (harakattlar bilan ta'sir), xoreotexnologiya;

-o'yin texnologiyasi va boshqalar.(1-sxema)



Yuqoridaqgi art-texnologiyalar, imkoniyati cheklangan bolalarni, ta'lim va ijtimoiy hayotga tayyorlashda korreksion alumiyatga ega. Har bir turi bolani san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb tanlash haqidagi tushunchalarini kengayiradi. Bolalarni eng asosiyi bilish texnologiya kursidan o'tib, bola o'zini-o'zi bilish, o'zini ifoda etish, nutqining ravonligi, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligi, umumiy va barmoqlar harakatchanligining yaxshilanishi va buning natijasida uning ruhiy holati uyg'unlashishiga erishiladi. Art-texnologiya mashg'ulotlari individual va guruhli shaklda olib boriladi.(2-sxema)

Art-texnologiya



Individual art-texnologiya

Bunda defektolog-logoped alohida yordamga muhtoj bolalar, nutqida nuqsoni bor bolalar bilan yakka tartibda mashg`ulot olib boradi. Bunda aniq bita mavzuda rasm chizishni topshiriq sifatida berradi. Defektolog-logoped nutqida nuqsoni bo`lgan yoki alohida yordamga muhtoj bolalar bilan uzog`i 45 minut yoki 1 soat davomida ishlashi zaur. Bunda vaqtini tanlashda, albatta, bolaning yoshi, individual xususiyatlari inobatga olinadi. Individual ishlash jarayonida defektolog-logoped bolani har tomonlama rivojlantirish yo`llari ustida ish olib boradi. Bunda bolaning nutq nuqsonlarini bartaraf qilish, barmoqlar harakkatchanligini oshirish, bog`langan nutqini art-texnologiyalar orqali rivojlantirish. Shuningdek, bolanish yosh davrlaridan kelib chiqqan holda, uning bilish jarayonlarini shakllantirish ishlari mashg`ulotlar davomida, turli didaktik o`yinlar orqali bartaraf etildi. Bunda art-texnologiyalarni shunday tanlash lozimki, bola bunda zerikib olmasligi lozim.

Guruhli art-texnologiya

Guruqli art-texnologiya holatida butun psixoterapevtik guruh ya`ni mashg`ulotda ishtiroy etuvchi bolalar yollanadi. Bolalar soni 8-10 nafridan oshmasligi lozim. Texnologiya jarayoni ikki shaklda tashkil etilishi mumkin:

➤ tarkibi doimiy bo`lgan yopiq guruh;

➤ yangi odamlar ishtirok etishi mumkin bo`lgan ochiq guruh. Bitta mashg`ulotning davomiyligiga kelsak, an'anaviy ravishda u 1,5 dan 3 soatgacha o`zgarib turadi. Bunda ham bolaning yoshi, individual xususiyatlari inobatga olinadi. Guruh mashg`ulotlari har bir ishtirokchining o`ziga xos muhitda cho`mishiga hissa qo'shadi, u erda hamma bir-biriga ehtiyojkorlik va ehtirom bilan munosabatda bo'ladi, o`z his-tuyg`ularini xotirjam va erkin ifoda etishi va ularni muhokama qilishi mumkin. Mashg`ulot ishtirokchilari badiiy asarlarni individual, juft-juft yoki guruhli bo`lib yaratishi mumkin.

Odatda, topshiriqlarni bajarishdan oldin ham, keyin ham ishtirokchilar kelajakdag`i ishlarni birlgilikda muhokama qilishadi. U maakali mutaxassis tomonidan nazorat qilinadi. Shu bilan birga, uning nazorati va ishdagi ishtiroki minimallashdiriladi. Ko`pincha, u shunchaki mashg`ulotlarni tashkil qiladi, ularni otkazish joyi va vaqtni belgilaydi, ishtirokchilarni qoidalar bilan tanishitradi.

Art texnologiya usullari:

➤ Faol. Bunday holda, barcha mashg`ulot yangi ijodiy kompozitsiyani loyihalashga qaratilgan. Bola sifat va go`zallikni baholamasdan o`z ijodini voqelevka aks etirishni o`rganadi;

➤ Passiv. Ushbu texnikaning asosiy maqsadi - oldindan tayyorlangan san`at turlaridan foydalanish, masalan, musiciy kompozitsiyani tinglash, hayajonli videofilmlarni tomosha qilish;

➤ Aralash. Bola o`zining shaxsiy ijodiy mahsulotlarini loyihalash uchun mavjud bo`lgan badiiy asarlardan foydalanadi.

Art-texnologiyadan foydalanan ijtimoiy moslashuvning eng samarali usuli hisoblanadi. Uning maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi bolalarga jamiyat hayotida to`liq ishtirok etish, tafakkur ijodi va shaxsning yaxlitligini rivojlantirishga imkon beradi.

Bolalar bilan ishlashda art-texnologiya

Zamonaviy art terapiya texnikasining asosiy vazifasi salbiy tajribalardan ijobjy hissiyorlarga o'tishdir. Maktabgacha tarbiya muassasalarida qo'llaniladigan progressiv usullar bolaning ichki imkoniyatlarini oshib berish va uning samaradorligini maksimal

darajada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, art-terapiya bolaning xotirasi, diqqatini, nutqini, tasavvurini, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalardagi nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarda umumiy, ingichka va artikulyatsion vosita mahoratini rivojlantirish zarurati tug'iladi; ritm tuyg'usini rivojlantirish; fonematik jarayonlar va talaftuz qobiliyatları va ijobjiy qobiliyatları shakllantirish; tiling leksik va grammatic vositalarini takomilashtirish, shuningdek, kommunikativ tajribani boyitish.

Rivojanishda nuqsoni bo'lgan bolaning ichki dunyosi, murakkab va xilma-xildir. Bunday bolalarga qanday yordam berish, ko'rish, eshitish, atrof-muhitning xilma-xilligini his qilish, ularning "men" ini anglash, uni ochish va kattalar dunyosiga kirish, unda to'lq mavjud bo'lish va u bilan o'zaro aloqada bo'llish, o'zini rivojlantirish zatur va shardir.. Ushbu muammolarning barchasini hal qila oladigan vosita - bu san'at, ya'ni art texnologiya usullari va psixokorreksiya tizimidir. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda art terapiya usullaridan foydalananish vizual tasvirlar orqali bolalarning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Inkluyuziv ta'limda logoritmikaning ahamiyati va afzalliliklarini aytинг.
2. Inkluyuziv ta'limda art texnologiyalariningo'mni qanday?
3. Art-texnologiya turlari haqida ma'lumot bering.
4. Logoritmika va Art-texnologiyaning maqsadi va vazifalari?

4.2. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MUSTAQILLIKKA O'RGATISH – INKLUYUV TA'LIM SAMARADORLIGINING MEZONI

Mamalakatimizda yosh avlodni mustaqillikka o'rgatish borasida keng qamrovli amaliyishlar bajarishga kirishildi. Bu masala O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida o'rin egallaydi. Zero, har ikkala hujjatda o'sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir etishi, o'z qadr-qimmatini xis qilishi, o'zida erkin fikrlesh ko'nikmalarini shakllantirishi dolzarb vazifalar siyatida belgilab berilgan. o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsий sifatlar, xususan, mustaqillikni shakllantirish nafaqat ta'lim muassasalarini va tarbiya maskanlari balki umumjamiyat vazifasiga aylanib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'z navbatida o'zları ham deyarli ilmning turli sohalarini mustaqil holda o'rganganlar, jumladan, bobokalonimiz Alisher Navoiy o'zining "Majolisun nafois" asarida mustaqil mutolaa qilish yo'li bilan ilm cho'qilarini egallagan donishmandlardan ko'plarining nomlarini zikr etganlar. Mazkur asarda alloma Mir Murtozning mustaqil holda ilm soxibi bo'lib etishganligini ta'riflab: "Mir Murtoz yoshdan ilm bilan mashq'uldir... Kecha tong otguncha va kunduz oqshom bo'lguncha ilm mutolaa qilur erdi", -deydi.O'z navbatida, A.Navoiy ham ilm sirlarini mustaqil holda o'rgangan. U o'zining "Muhokamatul lug'atayin" asarida yoshlik chog'ida qariyib 50 mingdan ortiq baytlarni mustaqil holda yod olganligini alohida takidlaydi. Ilg'or pedagoglar, jumladan I.G.Pestalotsi, J.J.Russo, A.Distvergler ham bolalarda mustaqillikni tarbiyalashga alohida e'tibor bergenlar. Ular o'z qarashlarida bolada shaxs sifatlarini rivojlantirishga mehnat tarbiyasining samarali ta'sirini ta'kidlagانlar. I. G. Pestalotsining «Lingard va Gertruda», «Gertruda o'z bolalarini kanday o'qitdi», «Kuzatish alibesi», «Oqqush ko'shig'i» asarlari shular junlasidandir. U «Lingard va Gertruda» asarida inson nimaiki ko'iga kiritsa, bu halol mehnati orqali roxat ko'rishimi Glyufi

faoliyatida yoritib beradi. Pestalotsining g'oyaviy ta'lomitiga ko'ra bolani har tomonlama erkin rivojlanishirish bu maktabning maqsadi edi.Jan Jak Russoning «Emil yoki tarbiya to'g'risida» nomli romanida ozod yangi odamni boshlab ist'e'dodining rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish to'g'risida g'amxo'rlik kilish zarurligini aytadi. «Tarbiyachi bolaga o'zining fikr - muloxazalarini, tayyor axloqiy koidalari majburan qabul qildirmasligi tabiatiga ko'ra, uning o'sishi va erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratishi kerak. Tabiy tarbiya bu - erkin tarbiyadir. Bola o'zining zararli noto'g'iishlari natijasini his kilishi lozim», - deb ta'kidlaydi.R.Mavlonova: «Bolalarmi qiyinchiliklarni engishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'ida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga etkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobjiy emotsiyalar: Mehnatdan quvonish, lazzatlansh va qoniqish xissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muximidir. Mehnatda turli psixologik xolat, aktivlik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'radi», - deb yosh avlodda mehnat tarbiyasi orqali mustaqillikni tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi.

O.Musummonova ma'naviy qadriyatarni shakllantirishni bir necha turlarga bo'radi. Shulardan biri sifatida ... insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, muruvvat, saxovat, adolat, tinchliksevarlik, tenglik, do'stlik, o'z-o'zini anglash, erkinlik kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlardan iborat ekanligini keltiradi.

Ma'lumki, zamonaviy milliy pedagogika yo'nalishida ko'plab tadqiqotlar amalg'a oshirilmoadaki, ularidan ko'zlangan maqasad-uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida barkamol, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash uchun zaruriy pedagogik, psixologik shart-sharoitlarni yaratish, usul, vosita va imkoniyatlarni taxlil qilish orqali ularni zamonaviylashtirish, ta'lim texnologiyalaridan eng samarali va maqbulini tanlash va amaliyotga joriy qilishdir.Uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri-maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'lim kanchalik o'z maqsad va

vazifalarini to'laqonli bajarsa, keyingi bosqich ta'lim jarayonidan kutilayotgan natija shunchalik erishimli va samarali bo'radi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllantishini ta'minlaydi, unda o'qishga qiziqish xissini uyg'otadi, uni muntaзам та'lim olishga tayyorlaydi» - deb ta'kidlangan.

Mustaqillik o'zi nima? insonnинг mustaqilligi qachон namoyon bo'radi?

yoki *qanday sharoitda va muhibda inson o'zini erkin va xur xis qiladi va bu xurlik unga nima beradi?* каби savollar inklyuziv ta'limga ham tegishlidir. Demak, inson uchun mustaqillik bu uning o'zligini anglashi va o'zini har tomonlama namoyon qilishi deb e'tirof etish mumkin. «Inson» deb atalmish ijtimoiy tushuncha zamirida bola shaxsini ko'radigan bo'lsak, unda bolaning mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillar, vositalar va shartsharoitlar oila va maktabgacha ta'lim muassasidagi muhitining nechog'ilik boladagi mavjud qiziqish, mayl, imkoniyatarga yo'naltirilganligiga bog'liqidir. Ya'ni, mustaqillikning namoyon bo'lishi uchun zaruriy sharoit bu ta'limiy-tarbiyaviy jarayoning bolaga yo'naltirilishi. Buesa bola tarbiyalanayotgan muhitining insonparvarlashtirilgani demakdir. Ta'lim va tarbiya jarayonining markazida bola shaxsi turar ekan, kutilayotgan natija ham bola egallagan bilim, ko'nikma va malakalar darajalari bilan tavsiflanadi. Insонparvarlashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayon boladagi turfa imkoniyatlar, cheksiz qiziqishlarning namoyon bo'lishining zaruriy sharhlaridandir. Insонparvarlikning inson erkinligi, uning qadr-qimmati, tarbiyasiga bog'liqligi Sharq Uyg'onish davrida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ta'lomotlarda o'z aksini topgan. Abu Nasr Farobiy insonparvarlik, aniq maqsad sari intilish baxsaodatga eltuvchi ekanligini ta'kidlaydi: «Insон baxt-saodat nimadaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va hoxishiga aylantrimagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, shavq-zavq sezmassa, istak va muloxazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo'rindir... Mustaqillikning ildizi insonparvarlik, ong va faoliyat

Ya'ni:

**Mustaqillik
(motiv)**

FIKR LASH
taxmin qilish, tasavvur
qilish, anglash, rejalar
tuzish, uqish, tushunish va
tafakkur jarayonlari
(umumlashtirish, analiz-
sintez, xukm chiqarish,
mantiqiy qaror qabulqilish
va hk...)

FAOLIYAT
(izlanish, tadqiq qilish, tuzgan
reja, qiziqishi bo'yicha va
extiyojini qondirishga
yo'nalihrilgan harakatni
amalga oshirish, kuzatish va
hk... operatsiyalar)

birligi, ruhiyat, nazariya va amaliyot bog'liqligi, tarbiya (uning barcha yo'nalishlari: aqliy, ahloqiy, jismoni, huquqiy, iqtisodiy, jinsiy, gigienik, estetik, mehnat, ijtimoiy ...) ning mayjud bo'lish tarixi va amaliyotiga borib taqaladi.

Demak, bolalarda mustaqillik u yoki bu (masalan, aqliy, ahloqiy va boshqa) yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi, rivojlantiriladi degan yondashuv bir tomontama hisoblanadi. Ya'ni mustaqillik bolaning borliq, makondagi mayjudligining, zamonning har soniyasida u ishtirot etgan, bevosita va bilvosita guvoхи bo'lgan mazmunning ta'sirida paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bu fikr bola shaxsida mustaqillik sifatini shakllantirishning nazariy asosi sifatida pedagogika va psixologiyaning va albatta, yo'nalishlar bo'yicha metodika fanlari bo'yicha olib borilgan, amaliyotga o'z samarali ta'sirini bergen, umumiliy maqsadga erishish yo'lida amalga oshirilgan barcha tadqiqotlarni olish mumkinligini ta'kidaydi.

Bolalarni mustaqil ishlashga o'rgatish, ularda mustaqil harakat qilish ko'nikmasini hosil qilish orqali ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalalari K.D.Ushinskiy ta'limotida alohida ta'kidlab o'tilgan.

Quyidagi namunaviy vaziyatlar bolani mustaqillikka undashi mumkin:

- egallagan, o'rgangan, anglagan har bir bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda sinab ko'rishi;
- uchun qiziq tuyulgan narsa, vaziyat, hodisa ketidan izlanishi (savollar berish, harakat orqali taxlit qilish (ochish, maydalash, chizish, tegishli operatsiyalarni bajarish), kuzatish va x.);
- tashqi ta'sir yoki da'vat, chaqiriq va boshqa atrofdagilar buyrug'i bilan biron bir topshiriqni, harakatni amalga oshirishi;
- kutilmagan vaziyatlar, favqulodda hodisalarda behosdan ixtiyorsiz ravishda ishtirot etishi va x.

Demak, mustaqillik fikrlash va u asosida faoliyat yuritish jarayonida yashaydi deb aytish mumkin.

qiziqishlarni inobatga olgan holda tashkil etilsa, jarayonidan ko'zlangan maqsad shunchalik erishimli va samarali bo'ladi.

Binobarin, bola qiziqqan narsasi, yumushi va mashg'uloti bilan shug'ullanishni istaydi. Bolaning istagi uni mustaqil faoliyatga undaydi. Mustaqil faoliyat esa o'z navbatida bolaning dunyoqarashini, ijodiy taakkurini, o'ziga ishonch xissini rivojlantiradi. O'ziga ishongan bola atrofdagilarni ishontira oladi va hayotda o'z o'mi va mavqeiga ega bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Inklyuziv ta'limda bolalardamustaqillikni shakllantirish mazmunini yoriting.
2. Qanday vaziyatlar bolani mustaqillikka undashi mumkin?
3. Bolalarni mustaqil ishlashta o'rgatish, ularda mustaqil harakat qilish ko'nikmasini hosil qilish orqali ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.



V. BOB INKLIZIV TA'LIMDA TARBIYA

MASALALARI


5.1. TA'LIM VA TARBIYA UZVIVLIGI- ITIMOY

MOSLASHUV OMILI

Inklyuziv maktab va sinflarda tarbiya prinsiplarining qo'llanilishi.

Inklyuziv maktablardagi tarbiya prinsiplari butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsaddida foydalaniladigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga tarbiyaning mazmuni, usullari, tashkil etish shakllari kiradi. Barcha maktablarda tarbiya prinsiplari umumiy ko'rinishga ega. Ammo, inklyuziv maktablarda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik, jismoniy, hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos prinsiplardan ham foydalaniлади.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvcheli) lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis-tuyg'ulari rivojlandi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatta bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hoishlarini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining onigina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining oniga (ta'lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga faoliyatni uyuştirish, hulqini idora qilish jarayonida sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. O'quvchini tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi. Uning xususiyatlari 1- shaklda quyidagicha aks etiriladi.



Tarbiya jarayoni, odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhiddagi u yoki bu hoddisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlardan va ularning xususiyatlarni bartaraf etish bilan olib boriladi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand nasihatlari va o'gitlari va tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rinn egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelhagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz «tarbiya» so'zini turlicha izohlagan.

Tarbiya – arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'im bermoq, o'rganish, odob o'regatish, mehibonlik ko'rsatish, himoya qilib singari ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda Zardushtlik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" katta ahamiyatga ega. "Avesto"da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi fikri, ishi, birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan baracha ma'rifiy asarlarga asos bo'gan desak xato qilmagan bo'lamiz. Ayniqsa, "Avesto"da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'miga munosabati to'liq yoritilgan. Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan.

Tarbiya – hayotning eng muhim tırgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pag'onaga ko'tarilsin deb aytadi va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasi - sog'lon avlod qoladi" - deb ta'kidlaydi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatning paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismalar - axloqiy ong axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirishning pedagogik jarayoni bo'lib, tarbiyalanuvchilarining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya - o'sib ketayotgan yosh avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqodni, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

Tarbiya deb- tarbiyachi o'zi hohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilarining oniga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug'ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

Tarbiya – bitor maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega bo'ladi va buning uchun maxsus vakolatga ega bo'igan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iy'moni va vijdoni, bilimi - malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davr talabari va ehtiyojlar, istiqlol vazifalari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga, rivojantirishga harakat qilganlar. O'z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo'lgan muayyan maqsadlarni qo'ygan davlatlar ham ta'llim-tarbiya ishlariiga befarq qaramagan.

Maxsus pedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan tarbiya prinsiplari tizimi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligini, shaxsxiy, jamoada va jamoa orqali tarbiyalashni, tarbiyaviy ta'sirning izchilligini va davomiyligini, tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan

talabchanlik bilan hurnatning birligini, tarbiyaning rivojanishida muammosi bo'lgan bolalarning yosh va individual xususiyatlariiga mosligini, ta'lim va tarbiyaning bog'liqligini, tarbiyada atroficha yondashish prinsiplarini o'z ichiga oladi.

Rivojanishida muammosi bo'lgan o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy shakllantirish manfaatlari pedagogining har bir xatti-harakatini tarbiyaning maqsadlari bilan qiyoslashni, uning amalga oshirilishiga rejali tarza va qunt bilan erishishni talab qiladi. Har bir tarbiyaviy tadbirning qimmati uning rivojanishida muammosi bo'lgan o'quvchilar jamoasi hayotini qanchalik boyitganligi, ishonchni shakl-lantirishga qanchalik yordam berishi bilan o'chanadi.

Afsuski, qator inklyuziv maktablarda tarbiyaviy tadbirlar xo'jako'rsinga rejalashtiriladi. Bular oqibatda bolalarda qiziqish, jo'shqinlik va hissy shakllanishning imkonini pasayadi. Inklyuziv maktab o'quvchilarini tarbiyalash vositali bo'lgan faoliyatning barcha turlariga puxta yo'malish berilishi shart.

Inklyuziv maktabda tarbiyaning hayot bilan, amaliyat bilan bog'liqlik prinsipi etakchi prinsip hisoblanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, tarbiyaga jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarni, voqeletning qadriyatlarini, ahloqi va estetikasini tatbiq etishdan iborat.

Inklyuziv maktabda o'quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga, kasbni asosli tarzda tanlashiga o'qituvchilar, tarbiyachilar, o'quvchilar va ota-onalar tomonidan chuqur anglab olinishi kerak. Ba'zan tarbiyaning turmush bilan bog'liqligini tarbiyaviy ish hamda inklyuziv maktab o'quvchilarining unumli mehnati o'rtaida aloqa o'matishdangina iborat deb qaraladi. Ammo hayot unumli mehnatga qaraganda ancha kengroq va mazmuniroq tushunchadir. Inklyuziv maktab o'quvchilarini mehnat faoliyatining xilma-xil shakllariga jalb etayotganda bu narsa insomni jamiyatga xizmat qilish, o'z hayoti farovonligini ta'minlash, moddiy va ma'naviy mo'l-ko'llikka erishish kabi maqsadlarni ta'minlashga zamin ekanligini tushuntirish kerak. Qilinayotgan barcha tarbiyaviy tadbirlar hayotiy, ya'ni rivojanishida muammosi bo'lgan bolalar

eshitigan, ko'rgan narsalarga asoslangan tarzda olib borilsa, yaxshi samara beradi. Aks holda o'tkazilgan tadbirlar bolalar uchun tushunarsiz narsa bo'lib qolishi mumkin.

Inklyuziv maktab o'quvchilarini jamaoda jamaoa orqali va jamaoa uchun tarbiyalash prinsipi ham o'ziga xos o'ringa ega. Bu prinsip tarbiya tizimining jamiyat talablaridan kelib chiqadigan prinsiplaridan biri bo'lib, uning tabiatli ishlab chiqarish vostitalariga munosabat, o'rtaqlarcha hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari bilan xarakterlanadi.

Jamaoa shunday «mashq maydonidirk», unda shaxsning hilma-xil fazilatlarini mashq qilinadi va shakllanib boradi.

Birgalikda faoliyatda, bir maqsadni ko'zlab tashkil etilgan jamaoa harakatlarida insonga nisbatan mumkin qadar ko'proq talabchanlik qilish va shu bilan birga unga mumkin qadar ko'proq humrat bilan qarash kerak. Shu prinsipga amal qilish rivojanishida muammosi bo'lgan o'quvchilarining ruhini tushirmaydi, balki ularning kuchiga erkinlik beradi. Bu uslub ijobjiy harakattlar va xulq-atvorga undaydi, o'z qadr-qimmati va o'z xulq-atvori uchun mas'uliyat tuyg'usini singdiradi. Timoq orasidan kir qidirish, ikir-chikir gaplarga berilish bilan aloqasi bo'lmagan talabchanlik insonga nisbatan eng olyi xurmardir. Klassik pedagoglar ta'biri bilan aytganda, insonga ishonib yondashishkerak, bunda hatto ayrim tavakkalchilikka ham yo'l qo'yish mumkin.

Tarbiyachi o'quvchida ijobjiy fazilatlarni tarbiyalashni nazzarda tutib va shunga tayanib, ishonchga asoslanib, insomni o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanish ruhida tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy ta'sirning izchilligi, tizimligi, yaxlitligi va uzluksizligi prinsipi ham tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy prinsiplardandir. Bu prinsiplarga amal qilish pedagogika tizimini shunday qurishni taqozo etadiki, uning tarbiyaviy qismlari va elementlari bir-biri bilan yonna-yon bo'lmasdan, yaxlit birlikni tashkil etishi kerak. Pedagogik ta'sirning biror tizimga ega emasligi tarbiyaviy ishga tamomila ziddir. Inklyuziv maktab o'quvchilariga nisbatan talablarining turlichaligi turbiyaga ko'p zarar etkazadi. Afsuski, amalda ko'pincha shunday

bo'ladik, oila maktab tashabbusini qo'llab-quvvatlashi u yoqda tursin, balki qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'qituvhilar va tarbiyachilar orasida ham talablar birligi ta'minlanmaydi. Tarbiya ko'plab kishilar ishtiroy etadigan, uzoq muddatli jarayondir. Shu sababli ularning ishida izchillikka, erishish, davomiylikka rioxo qilish, o'quvchilarining tarbiyalanish darajasini, yaqin oradagi rivojlanish zonasini o'z vaqtida aniqlash niyoyatda muhimdir.

Inklyuziv maktablardagi o'ziga xos tarbiyaviy prinsiplardan yana biri maktab o'quvchilarining yoshi va individual xususiyatlарини e'tiborga olishdir. Bu prinsipni amalgalashish o'quvchilar faoliyatining mazmun va shakllarini ularning yoshi, hayotiy tajribasi, kuchi va imkoniyatlarga muvoqfiqlashtirishni talab etadi. Ayni vaqtida har bir bola-bu alohida olamdir. Shu sababli tarbiya jarayoni ta'lim jarayoniga qaraganda ham ancha individual bo'fishi kerak. Inklyuziv maktab tarbiyachilar barcha ta'lim-tarbiya jarayonlarida umumiy kamolotida bitor nuqsoni bor bolalar bilan ishlayotganligini hech qachon unutmasisi kerak. Shundagina, ular amalda uchrab turadigan har xil ko'ngilisiz, noxush holatlarni to'g'ri tushunadijar va ularning oldini ola biladilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarning xarakter xususiyatlari xos xulq-atvor, fe'lida injiqqliklar, qaysarliklar, o'jarkilar, buzg'unchi harakatlar va b. salbiy holatlarni oldini olishda tarbiyachining individual yondashish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini muhimdir.

Inklyuziv maktabda tarbiya usullarining qo'llanish samaradorligi va harakatlantiruvchi kuchlari, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning individual-tipologik xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasi bilan, bola yashayotgan muayyan muhit vaziyatning tabiatini bilan qanchalik hisoblashishiga ham bog'liq. Tarbiya usulidan foydalanish kar bolalarning ruhiy, jismoniy holatiga mos kelsa muvaffaqiyatti bo'radi. Amalda tarbiya usullari o'zaro ancha murakkab, ba'zan esa qarama-qarshi aloqada namoyon bo'radi. SHubhahsizki, qandaydir alohida usul tarbiyaning boshqa usullaridan ajralgai holda qo'llanishi ham mumkin, lekin u albatta boshqa usullar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Inklyuziv maktabda tarbiyachi tarbiyalanuvchilariga maktabda, sinifa yurish-

turish qoidalarini, o'ritoqlari bilan muomalani o'rgatadi. O'qituvchi ham birinchi kundayoq o'z sinfini, butun maktabi ko'rsatadi, o'quvchilar o'zlarini qanday tutishlarini, ular qanday shug'ullanishlarini, darsda qanday o'tirishlari, tanaffus vaqtida qanday dam olishlari lozimligini o'rgatadi. Inklyuziv maktab ostonasiga qadam qo'ygan kar va zaif eshituvchi bola dastlab moslashish davrini boshidan kechiradi. Tarbiyachi shu payda tushuntirish, namuna ko'rsatish, namoyish va b. usullardan foydalaniib, kar va zaif eshituvchi bolani muassasa maydonida va qoidalarini o'rgatadi.

Inklyuziv maktabga kelgan birinchi sinf o'quvchilari rivojlanishi, xususiyatlari jihatidan xilma-xildir. Birlari tarbiyachi gaplarini tushunib, barcha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan uning iltimosini tezda bajaradilar, topshiriqlarni qunt bilan ishlaydilar. Ayrimlari esa, tarbiyachining gapiga yaxshi quloq solmaydilar, tushunmaydilar, tarbiyachining hamma tarbiyalanuvchilarga qilgan murojaatini darhol anglab etmaydilar. Inklyuziv maktab bolalari har bir topshiriq yakunida tarbiyachi tomonidan rag'batlantrilishi kutadi. Dastlabki kunlardanoq tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ayrimlarini yaxshi xulqi uchun maqtab qo'yadi, boshqalariga esa, gapga e'tibor bilan qulq solish kerakligini tushuntiradi. SHu tarzda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash jarayonida inklyuziv maktab tarbiyachisi ta'sir etishning turli usul va yo'llaridan foydalaniib, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga oладди, bu narsa ayrim tarbiyalanuvchidar va umuman inklyuziv maktab manfaatlari yo'lida har xil echimlarga kelishni talab qiladi.

Inklyuziv maktab o'quvchilarini bilan amaliy ishlashda tarbiya usullaridan foydalanish ko'nikmalarini va malakalarini o'rganish va hosil qilish qulay bo'lishi uchun ularni shartli ravisida bir necha guruhga birlashtirish mumkin. Inklyuziv maktab o'quvchilari ongini shakllantirish usullari, jamoatchilik xulq-atvorini shakllantirish yo'llari, rag'battantirish usullari va o'z-o'zini tarbiyalash usullari

ham qo'llanildi. Shuni aytilib o'tish o'rnligi, ayrim adabiyotlarda yuqorida aytilib o'tilgan tarbiya usullari ham son jihatidan ba'zan mazmun jihatdan ham o'zgacha bayon etilgan. Ayrim adabiyotlarda tarbiya usullari 3 ta: mashq qildirish, ishontrish va rag'battantirishdan iborat deyilgan. Ayrim adabiyotlarda esa tarbiyaning usullari ta'lif usullari bilan ug'unlashgan holda talqin etiladi.

Inklyuziv maktab o'quvchilarida dunyoqarash va e'tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-to'yg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari ham tarbiya usullariga kiradi. Bu toifadagi usullarning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan jamiyat yosh avlodga nisbatan qo'llayotgan talablar bola ongiga etkaziladi.

Inklyuziv maktab o'quvchilarini tarbiyalashda tarbiyachi dasturxon atrofida, ko'chada, kattalar bilan muomalada to'g'ri xatti-harakatlar qilish odatlarini tarkib topitirishga, ana shu muomaladan zavqlanish, yaxshi xulqi uchun kattalar maqtovidan mammun bo'lish tuyg'usini shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. Inklyuziv maktab quyvi sinflarida tushuntirish e'tiqod hosil qilishning keng qo'llaniladigan usulidir.

Tushuntirishdan maqsad-bolaga hatti-harakatlar, voqealar, hodisa-larga nisbatan u yoki bu talablarning ijtimoiy, ma'naviy, estetik mazmumini ochib berishda, unga xulq-atvor va insomiy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iborat.

